

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI

---

**M. Maxkamova, I. Masteyeva, N. Yuldasheva**

# **IQTISODIYOT ASOSLARI**

*Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi  
kasb-hunar kollejlarining «Axborot-kommunikatsiya tizimlari  
(3521916)» mutaxassisligi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma*

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK kompaniyasi  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2007

Mazkur o'quv qo'llanma Germaniya texnikaviy hamkorlik tashkiloti (GTZ) hamda Germaniya taraqqiyot banki (KFW) ishtirokidagi «Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb-hunar ta'limini rivojlantirishga ko'maklashish» loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etilgan.

### T a q r i z c h i l a r:

**B. Sh. Omonov** — Toshkent Davlat Aviatsiya instituti «Menejment» kafedrası mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi

**M. Mirzayev** — Hamza nomidagi kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji maxsus fan o'qituvchisi

### **Maxkamova M.**

Iqtisodiyot asoslari: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi kasb-hunar kollejarining «Axborot-kommunikatsiya tizimlari (3521916)» mutaxassisligi talabalari uchun o'quv qo'l./M. Maxkamova, I. Masteyeva, N. Yuldasheva; O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — Toshkent: Sharq, 2007. — 104 b.

I. Yuldasheva N., II. Masteyeva I.

**BBK 65.01ya722**

**ISBN 978-9943-00-179-4**

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2007.

## M U N D A R I J A

<i>Kirish</i> . . . . .	5
<b>1-b o b. Ehtiyojlar va resurslar</b>	
1.1. Ehtiyojlar ta’rifi. Ehtiyojlarni qondirish usullari . . . . .	8
1.2. Resurslar turlari . . . . .	12
1.3. Ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasi . . . . .	13
<b>2-b o b. Xo’jalik yuritishning zaruriyati</b>	
2.1. Xo’jalik yuritish. Iqtisodiyot tamoyillari . . . . .	16
2.2. Iqtisodiyot va ekologiya, atrof-muhitga xo’jalik yuritishning ta’siri . . . . .	19
<b>3-b o b. Ishlab chiqarish omillari (ICHO)</b>	
3.1. Asosiy tushunchalar va ta’riflar . . . . .	22
3.2. ICHO ning iqtisodiy-ishlab chiqarishda tasniflanishi . . . . .	23
3.3. Iqtisodiy tamoyilni hisobga olgan holda texnik imkoniyatlar bo’yicha ICHO tasnifi . . . . .	24
<b>4-b o b. Mehnatni taqsimlash</b>	
4.1. Asosiy tushuncha va ta’riflar. Insonlar orasida mehnatni taqsimlash . . . . .	28
4.2. Korxonalar orasida mehnatni taqsimlash . . . . .	30
4.3. Xalq xo’jaligi subyektlari orasida mehnatni taqsimlash (mehnatning xalqaro taqsimlanishi) . . . . .	32
<b>5-b o b. Iqtisodiy sikl</b>	
5.1. Iqtisodiy siklning sektorlari . . . . .	34
5.2. Pul va tovar oqimlari . . . . .	36
5.3. Investitsiyalar mohiyati va ularning turlari. . . . .	38
<b>6-b o b. Bozor tushunchasi va vazifasi</b>	
6.1. Iste’molchi ehtiyojlari. Ishlab chiqarish manfaatlari . . . . .	40
6.2. Qo’yilgan maqsad, talab, raqobat, bozordagi o’rin, xarajatlar, konyunktura holati . . . . .	40
6.3. Narx. Iste’molchi va ishlab chiqarish o’rtasida muvozanat o’rnatish . . . . .	43

## **7-b o b. Bozorning turlari va shakllari**

7.1. Bozor tavsifi . . . . .	47
7.2. Bozor shakllari . . . . .	48

## **8-b o b. Noraqobat bozorlarda sof raqobat modelida narx belgilash**

8.1. Narx belgilash. Narx bo'yicha egiluvchanlik . . . . .	50
8.2. Talab va taklifning o'zgarishi hamda narxga ta'siri . . . . .	53
8.3. Noraqobat bozorlarda narx belgilash . . . . .	58

## **9-b o b. Iqtisodiy tizimning zarurligi**

9.1. Iqtisodiy tizimlar. Bozor iqtisodiyoti . . . . .	62
9.2. O'zbekiston misolida iqtisodiy tizim . . . . .	64

## **10-b o b. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishi**

10.1. Davlat va uning tuzilmasi . . . . .	66
10.2. Davlat sektorining optimal chegaralari . . . . .	67

## **11-b o b. Umumiy xalq xo'jaligi hisob-kitobining tamoyillari**

11.1. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar . . . . .	70
11.2. Milliy hisoblar tizimi . . . . .	71

## **12-b o b. Iqtisodiy siyosatda davlatning vazifalari. Iqtisodiy siyosatning maqsadlari**

12.1. Davlatning iqtisodiy vazifalari . . . . .	74
12.2. Iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalari . . . . .	76

## **13-b o b. Xo'jalik tizimini shakllantirish siyosati**

13.1. Soliq tizimini tuzish . . . . .	78
13.2. Raqobatga bardoshlilikni belgilash . . . . .	80

## **14-b o b. Iqtisodiy jarayonni tartibga solish siyosati**

14.1. Konyunktura siyosati (Davlat va davlat tashkilotlari) . . . . .	82
14.2. O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati . . . . .	88

## **15-b o b. Markaziy bankning pul-kredit siyosati**

15.1. Inflyatsiya, uning o'lchamlari va namoyon bo'lish shakllari . . . . .	93
15.2. Markaziy bankning kredit tizimidagi pozitsiyasi va vazifalari . . . . .	95

<i>Adabiyotlar ro'yxati</i> . . . . .	100
---------------------------------------	-----

## KIRISH

Mustaqil Respublikamiz iqtisodiyotini har tomonlama mustahkamlashda iqtisodiyot fanini mukammal egallash talab etiladi.

Iqtisodiyot — bu ma'lum darajada barcha iqtisodiy fanlar qo'lg'a kiritgan yutuqlarini sintez qiluvchi fan.

Iqtisodiyot so'zi quyidagi bir nechta ma'nolarni anglatadi.

Birinchidan, odamlarning o'zlari iste'mol qilishlari uchun zarur bo'lgan ne'matlarni yaratishga qaratilgan faoliyatini tashkil qilish usulini «iqtisodiyot» deb ataydilar.

Ikkinchidan, «iqtisodiyot» odamlar cheklangan resurslardan o'zlarining hayotiy ne'matlariga bo'lgan talablarni qondirishda qanday foydalanayotganliklarini o'rganuvchi fandır.

Bu fanning nomi Qadimiy Yunonistonning buyuk olimi Aristotel tomonidan ikki so'z: «oykos» — xo'jalik va «nomos» — qonun so'zlarini qo'shish yo'li bilan berilgan. Shuning uchun ham «iqtisodiyot» yunonchadan aynan tarjima qilinganda «xo'jalik qonunlari» ma'nosini bildiradi.

Iqtisodiyot nazariyasi ijtimoiy fan bo'lganligi uchun, falsafa, huquq, siyosatshunoslik, tarix kabi ijtimoiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir, chunki ulardan uslubiy va boshqa ilmiy oziqa oladi, hamda o'z navbatida, ular uchun ham manba bo'lib xizmat qiladi. Lekin ularning birortasi ham iqtisodiyot nazariyasi fanining o'rnini bosa olmaydi, chunki uning o'z vazifasi va predmeti bordir.

Nobel mukofoti sovrindori, amerikalik iqtisodchi, professor Pol Samuelson iqtisodiy nazariyaga shunday ta'rif beradi: «Iqtisodiy nazariya — bu ishlab chiqarish va odamlar o'rtasidagi almashinuv bo'yicha faoliyat haqidagi fandır. U mavjud resurslarga, ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga, ulardan unumli foydalanishga bo'lgan munosabat, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini o'rganadi. Iqtisodiyot nazariyasi — bu ijtimoiy fan bo'lib, ayrim kishilarning va jamoalarning ishlab chiqarish, tovar ayirboshlash, taqsimlash va moddiy ne'matlarni, xizmatlarni iste'mol qilish jarayonidagi harakatlarni o'rganadi. Bundan maqsad — resurslar cheklangan sharoitda talabni qondirishdir.

Iqtisodiyot nazariyasi — tanlash ilmidir. U turli xil tovarlarni ishlab chiqarish va jamiyatning turli xil a'zolari o'rtasida taqsimlash uchun odamlar cheklangan ishlab chiqarish resurslari (yer, mehnat, uskunalar, texnik bilimlar)dan foydalanishning qaysi usullarini tanlashlarini o'rganadi. U odam o'zining iste'mol va ishlab chiqarishni tashkil qilish muammolarni qay tarzda hal qilayotganligini, pulni, foiz me'yorini, kapital va boyligni tatqiq qiladi».

Iqtisodiyot nazariyasi fan sifatida XVII—XVIII asrlarda, kapitalizmning oyoqqa turayotgan davrida vujudga keldi. Uning o'sha paytdagi asosiy vazifasi davlat boyliglarining manbalarini aniqlash edi.

Eng oldin *merkantizm* (italyancha «merkenta-savdogar» so'zidan olingan) nazariy maktabi paydo bo'ldi.

Bu maktab vakillari odamlarning boyligini evaziga hamma narsani sotib olish mumkin bo'lgan pullar tashkil qiladi deb hisoblashar edi. Merkantilistlarning tasavvurlari kapital boshlang'ich jamg'arishga katta daromadlar keltiruvchi xalqaro savdoga muvofiq kelardi.

Bu holatda boyligning o'sishi o'z-o'zidan ayon edi, zero, o'sha vaqtda tovarlar bir mamlakatda ancha past narxlarda sotib olinar, boshqa mamlakatda esa ancha baland bahoda sotilar edi.

Merkantilistlar iqtisodiyot nazariyasini vazifasi davlatning mamlakatda savdoni kengaytirish va oltinni to'plashga da'vat etilgan siyosat uchun tavsiyalar ishlab chiqarish deb hisoblar edilar.

Merkantilizmning Angliyadagi birinchi namoyondasi Tomas Lin (1571—1641-yy.) savdogar. Ost-Indiya kompaniyasining kotibi edi. U tovarlarni chet ellarga chiqarishni ko'paytirish va xorijdan keltirilgan tovarlarni iste'mol qilishni kamaytirish choralarining butun bir dasturini ishlab chiqdi.

Merkantilizmdan keyin *fiziokratlarning* nazariy ta'limoti paydo bo'ldi. Ular klassik siyosiy iqtisodga asos soldilar.

*Klassik siyosiy iqtisod* boylig sifatida odamlarning ishlab chiqarish faoliyatini tan oladi. To'g'ri, fiziokratlar birgina tarmoq — boylig tabiiy yo'llar bilan, tabiatning in'omi sifatida ko'riladigan, qishloq xo'jalik bilan cheklab qo'yilgan edilar.

Bu yerda ishlab chiqarish xarajatlari mahsulotning ko'paytirilishi, sof foyda olinishi bilan qoplanadi. Daromad hosilining umumiy summasidagi ishlab chiqarish xarajatlarini ayrib tashlash bilan hisoblab chiqariladi.

Biroq vaqt o'tishi bilan fiziokratni qarashlari bir yoqlama ekanligi bilinib qoldi. Fiziokratlar jamiyati boyligining o'sishini faqat yerning tabiiy unumdorligi bilangina bog'lar edilar va shunga asoslanib, sanoatni daromadlarni ko'paytiruvchi tarmoq deb hisoblamas edilar.

Millat boyligining tashkil topishi va o'sishi masalalari bo'yicha savollarga eng asosli javoblarni klassik maktab vakillari — ingliz iqtisodchilari Uilyam Petti (1623—1687-yy.), Adam Smit (1723—1790-yy.), David Rikardo (1772—1823-yy.)lar berishdi.

Bu iqtisodchilarning asosiy (bosh) xizmati shundaki, ular o'z ta'limotlarida shuni aniqlab berdilarki, butun millatning boyligi moddiy ishlab chiqarishning hamma tarmoqlarida vujudga keltiriladi. Boylikning o'sishi ishlab chiqarishga dastavval (pul, tovarlar shaklida) sarflangan qiymatlar mehnat jarayonida qo'shimcha kattalik (foydaga yoki qo'shimcha qiymat)ga o'sib o'tgandagina ro'y beradi.

Iqtisodiy nazariyaning pirovard natijasida haqiqatdan ham tom ma'nodagi fanga aylanishiga imkon bergan tamoyil jihatdan muhim bo'lgan kashfiyot mana shu tarzda qilingan edi.

Ishlab chiqarish resurslari hamma vaqt ham cheklangandir, chunki odamlarning xohish va ehtiyojlari, talablari doimo o'sib boradi, ya'ni ular resurslardan farqli o'laroq, cheklangan. Shuning uchun, yer, yer osti boyliklari, xomashyo, dastgohlar, odamlarning mehnatidan samarali foydalanishni o'rganish zarurdir.

Cheklangan resurslardan jamiyat hamda uning a'zolari talablarini qondirish uchun oqilona foydalanish muammosi nazariy iqtisodiyotning predmetidir.

Iqtisodiyot — murakkab, ko'p darajali tizim. Shu narsa ayonki, uning hamma darajalari o'zaro aloqador, o'zaro bog'liq. Ammo shunday bo'lishiga qaramay, masalan, firma, tarmoq, xo'jalikning faoliyat yuritish tamoyillari iqtisodiyotning bir butun tizim sifatida rivojlanishining qonunlaridan farq qilmaydi. Shuning uchun nazariy iqtisodiyot *cheklangan resurslardan makro va mikro darajasida samarali foydalanish muammolarini o'rganadi*.

## 1.1. EHTIYOJLAR TA'RIFI. EHTIYOJLARNI QONDIRISH USULLARI

Inson boshqa jonzotlardan o'zining aql-idroki bilan ajralib turadi. Inson biologik mavjudot sifatida ovqat yeyish, uxlash, dam olib o'z kuchini tiklash, o'zini issiq-sovuqdan asrash ehtiyojlariga ega. Mazkur ehtiyojlar moddiy shaklda — kiyim-kechak, oziq-ovqat, turar joy va boshqalar shaklida ifoda etiladi.

Moddiy ehtiyojni qondirish uchun esa zarur noz-ne'matlarni ishlab chiqarish kerak. Inson borsa-kelmas orolda, afsosalarda aytilganidek, qush uchsa qanoti, odam borsa oyog'i kuyadigan joyda, tanholikda yashamaydi. Inson ijtimoiy jonzot. U ma'lum mamlakat fuqarosi, aniq bir hudud (shahar, qishloq, mahalla, kvartal) da kishilik jamiyatida yashaydi. Uning mehnat orqali qondiriladigan jamiki ehtiyoji moddiy ehtiyojga kiradi.

Insonning moddiy ehtiyojlari bilan birga ijtimoiy ehtiyojlari ham borki, bularga bilim olish, madaniy saviyani oshirish, malaka, mahoratga ega bo'lish va sog'lom hayot kechirib, uzoq umr ko'rish kiradi. Aytilgan ehtiyojlar moddiy shaklga ega bo'lmagan har xil xizmatlar ko'rsatish orqali qondiriladi Shifokor, o'qituvchi yoki madaniyat xodimi xalqqa xizmat qilib, uning ehtiyojini qondirishga hissa qo'shadi, ammo ularning mehnati ishchi yoki dehqon mehnati kabi moddiy mahsulotda ifodalanmaydi.

Insonning mehnat qilish ehtiyoji ikki narsadan kelib chiqadi: birinchidan, mehnat moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni qondiradi; ikkinchidan, mehnatda inson kamolotga erishadi, qobiliyatini o'stiradi. Hayotda o'z o'rnini topadi, obro'-e'tiborga erishadi. Shu sababli mehnatning tagi rohat deydilar. Mehnat qilish uchun jihozlangan ish joyi bo'lishi zarur. Ish joyi uchun bino qurish, kerakli uskuna-jihozlar, masalan, stanoklar, kompyuterlar, o'lchash asboblari, laboratoriya uskunolari o'rnatish kerak. Demak, ularni ham ishlab chiqarish talab qilinadi.

Ehtiyoj qat'iyonli tabaqalashgan bo'ladi. Ehtiyoj kishilarning odati, didi, ruhiyati, yoshi, jinsi, oilaviy ahvoli, millati, mehnat va yashash sharoitlariga ham bog'liq. Maktab o'quvchisi bilan



olimning, yosh yigit bilan pensioner cholning, dehqon bilan shaxtyorning ehtiyoji bir xil emas. Hatto kishilarning jismoniy tuzilishi ham ehtiyojlarda farqlarni hosil qiladi. Albatta gavdasi yirik kishining ehtiyoji bilan jussasi kichik kishining ehtiyoji bir xil emas. Eng muhimi — xilma-xil ehtiyojni qondirish uchun xilma-xil faoliyat talab qilinadi.

Ehtiyojlarning yuksalishi quyidagicha yuz beradi: kishilarning ehtiyoji miqdoran o'sib boradi. Uning sababi esa aholi sonining ko'payishi, turmushining yuksalishida.


Xullas ehtiyojlarning miqdoran o'sib, tarkiban yangilanib borishi tabiiy jarayon bo'lib, iqtisodiyotni rivojlantirishiga undaydi, lekin uning o'sib, yangilanib borishi resurslarning kamyobligi muammosiga yo'liqadi.

**Iqtisodiyotda omilliy cheklanganlik.** Odamlar yashashlari uchun oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak va boshqa ko'pgina narsalar kerak. Hozirgi zamon kishisini buyumlar olami 4 millionga yaqin pozitsiyadan iborat va u doimo muttasil rivojlanib bormoqda.

Iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish imkoniyatlari qo'llanilayotgan omillarning kamyobligi uchun limitlangan. Buning ustiga jamiyat rivojlanib borgan sari, barcha iqtisodiy omillarning cheklanganligi saqlanib qoladi, hatto kuchayadi. Bu faqatgina qayta tiklanmaydigan tabiiy omillarning tugab borayotganligi bilangina emas, balki, iste'molning ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muttasil ravishda impuls (turtki) berishi, ya'ni tovar va xizmatlarning yangi turlari yaratilishi, ularning sifat xususiyatlarining o'zgarishi, bu esa iste'molchilarning iste'mol va investitsiya tovarlarga bo'lgan talablarini o'stirish bilan taqozo etiladi, izohlanadi. Va har gal jamiyatda bor bo'lgan omillar bilan bu ne'matlarning qaysilarini va qanday miqyoslarda ishlab chiqarish masalasini hal qilishga majbur bo'ladi.

Xizmatlar — harakatlar bo'lib, demak, ularni saqlash yoki o'tkazish boshqa odamlarga jo'natish mumkin emas.

Tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun cheklangan omillar zarur bo'ladi, shuningdek, ular o'z-o'zidan kamyob bo'lganligidan, har bir odamning xohishi va cheklanmagan talablarini qondirishini ta'minlash uchun yetarli emas. Iqtisodiy tovarlar bizning talablarimizni qondirganlari uchun biz ularni foydali deymiz.



1-sxema.

Keltirilgan chizmalardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodiy tovar o‘z ichiga bir vaqtning o‘zida ham ne‘matni (chunki iste‘molchiga kerak) ham xarajatni (chunki uni ishlab chiqarish uchun omillar zarur) oladi. Tovarlarning bu xususiyatlari ularning foydaliligini, kamyobligi va omil sig‘imdorligi sifatida namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy tovarlarni sotib olayotganda odamlar ular uchun belgilangan summada pul to‘laydilar. Bu summa tovarning narxi deb ataladi.

### Iqtisodiy omillar

Resources; Economic resources

Fransuzcha Ressource — yordamchi vosita ma‘noni anglatadi.

**Omillar** — mavjud texnologiyalar va ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar vositasida sotish mumkin bo‘lgan moddiy hamda ma‘naviy ne‘matlarini olish uchun zarur bo‘lgan manbalar va asoslardir. Omillar uchta asosiy guruhga bo‘linadilar. Bular:

- *moddiy omillar*;
- *mehnat omillari*, shu jumladan, *intellektual omillar*;
- *tabiiy omillar*.

**Moddiy omillar** — ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ishlatish uchun mo‘ljallangan mehnat predmetlari: xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya, yarim fabrikatlar, detallar va hokazolarning yig‘indisidir.

**Moliyaviy omillar** — davlat yoki tijorat tuzilmasi tasarrufidagi pul mablag‘lari.

**Xomashyo** (xom, tayyor bo‘lmagan materiallar) — ilgari mehnat ta‘sirida bo‘lgan (ularni ma‘lum bir holatga yetkazish uchun mehnat sarflangan) va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan mehnat predmetlari. Ular quyidagicha farqlanadi.

— *birlamchi xomashyo* — qazib olingan ruda, paxta xomashyosi va hokazolar;

— *ikkilamchi xomashyo* — yaroqsiz holatga kelgan tayyor mahsulotlar: metall parchalari, makulatura va boshqalar.

**Axborot omillari** — keng ma'noda — haqqoniy axborotni olish uchun tashkil qilingan ma'lumotlarning yig'indisi.

**Axborot omillari** — alohida hujjatlar va hujjatlarning alohida massivlari, axborot tizimlari; kutubxonalar, hujjatgohlar, fondlar, ma'lumotlar banklari, axborot tizimiy omillarining boshqa turlaridagi hujjatlar va hujjatlar massivlaridir.

**Hujjat omillari** — axborot omillarining bir turi; alohida hujjatlar, axborot tizimlaridagi hujjatlar massivlarning yig'indisi.

**Mehnat omillari** — mamlakat aholisining jismoniy rivojlangan, ishlash uchun zarur bo'lgan aqliy qobiliyat va bilimlarga ega bo'lgan qismidir.

*Mehnat omillarining miqdori aholining soniga uning qayta ishlab chiqarish rejimiga, jins, yosh bo'yicha tartibiga bog'liq bo'ladi. Mamlakatning mehnat omillarining asosiy qismini mehnat qilishga qobil yoshdagi aholi, shuningdek, mehnatga qobiliyatli o'smirlar va pensiya yoshdagi shaxslar tashkil qiladi.*

**Tabiiy omillar (tabiat omillari)** — jamiyat odamlarning moddiy va ma'naviy talablarini, ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanadigan tabiiy obyektlari, tabiiy jarayonlar va sharoitlardir.

Tabiiy omillar:

— o'rni to'ldiriladigan va o'rni to'ldirilmaydigan;

— yangilanadigan va yangilanmaydigan;

— almashtiriladigan va almashtirilmaydigan;

— tenglanadigan va tenglanmaydiganlarga bo'linadi.

**Tabiiy omillar** o'z ichiga: foydali qazilmalar, enegriya manbalari, tuproq, suv yo'llari, suv havzalari, ma'danlar, o'rmonlar, yovvoyi holda o'suvchi o'simliklar, quruqlik va suv ostidagi hayvonot dunyosi, madaniy o'simliklar va uy hayvonlarining genofondi, go'zal va betakror landshaftlari, sog'lomlashtirish mintaqalari va boshqalarni oladi.

**Tugaydigan (yo'q bo'lib ketadigan) tabiiy omillar** — foydalanish barobarida yo'qolib, qisqarib boradigan omillar. Tabiiy omillarning ko'plab turlari yangilanadigan va yangilanmaydigan guruhlarga bo'linuvchi tugaydigan tabiiy omillarga kiradi.

**Kamyoblik (tanqislik)** — iqtisodiy nazariyada — tovar yoki xizmatga *talab* uni *ishlab chiqarish hajmidan oshib ketgan* vaqtda yuzaga keladigan sharoitdir.

Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan omillardan farqli o'laroq, inson ehtiyojlari amalda cheklanmagan. Shuning uchun ko'pgina tovarlar va xizmatlar kamyobligi bilan harakatlanadi.

**Bozor iqtisodiyoti** *kamyob omillarni* taqsimlash baholar (narx) lar mexanizmi vositasida amalga oshiriladi.

**Rejali iqtisodiyotda** tanqis omillarni taqsimlash muammosi-ni davlat o'z markaziy idoralari timsolida o'z zimmasiga oladi.

## 1.2. RESURSLAR TURLARI

Ehtiyojlarning cheksizligi bilan resurslarning cheklanganligi o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiyotning azaliy muammosidir.

**Iqtisodiy resurslar** — bu iqtisodiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan moddiy va insoniy omillarning yaxlitligidir.

Iqtisodiy resurslarni uch toifaga bo'lish mumkin:

**1. Moddiy resurslar.** Bularga tabiiy boyliklar, asbob-uskuna, mashina mexanizmi, bino-inshoat va har xil qurilmalar kiradi. Ular ishlab chiqarishning moddiy, buyumlashgan omilini tashkil qiladi

**2. Mehnat resurslari.** Bularga mehnatga layoqatli aholi kiradi. Iqtisodiyot uchun resurs sifatida aholining faqat soni emas, balki uning bilimi, ish tajribasi va mehnat mahorati ahamiyatlidir.

**3. Ishbilarmonlik qobiliyati.** Bu tadbirkorlarning ishning ko'zini bilishi, ishlab chiqarish, tijorat, bank ishi va boshqa faoliyatni samarali boshqara olishi, tavakkalchiligi, zarar ko'rish-dan qo'rqmasligidir.

Resurslarning so'nggi ikki turi ishlab chiqarishning shaxsiy insoniy omili hisoblanadi. Resurslar sarfi texnika-texnologiya darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu daraja qanchalik yuqori bo'lsa ehtiyojlarni qondirish shu qadar kam resurs talab qiladi yoki aksincha. Masalan, eski texnologiya sharoitida 10 so'mlik mahsulot olish uchun 1 kVt elektr energiya sarf qilinsa, ilg'or texnologiya sharoitida 0,5 kVt sarflanadi, demak, energo resurs birligi evaziga 2 barobar ko'p mahsulot olinadi.

Resurslarning kamyobligi umumiy hodisa. Bu ekiladigan yerlarning yer osti va yer usti boyliklarining, mehnatga yaroqli aholi sonining cheklangan bo'lishi, energiya resurslarining yetishmasligida ifoda etiladi.

### 1.3. EHTIYOJLARNI QONDIRISHNING OPTIMAL DARAJASI

Resurslarni ko‘proq ishlatish hisobidan — ehtiyojlarni qondirish vaqtinchalik, chunki, resurslar tugab boravergani sayin kishilar uni kamroq sarflash yo‘lini qidiradilar, resurslarni tejovchi texnologiya yaratilib, keng qo‘llaniladi. Natijada resurs birligini ishlatishdan olingan mahsulot ko‘payadi. Umuman olganda cheksiz ehtiyojni kamyob resurs bilan ta‘minlash uchun 2 narsa amalga oshishi shart:

1. Ehtiyojlar ko‘p bo‘lganidan ularning hammasini birdaniga qondirish mumkin emas, shu boisdan ularning eng muhimi ajratib olinadi va ishlab chiqarish ularni qondirishga qaratiladi. Masalan, hozir O‘zbekiston uchun neft mahsulotlari va donga bo‘lgan ehtiyoj eng zarur ehtiyojlardan hisoblanadi va resurslar eng avval shularni qondirishga qaratilgan. Shu sababli 2002-yil O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi 6 foiz, sanoat — 2,5 foiz, iste‘mol tovarlar ishlab chiqarish 11,8 foiz ko‘paydi va 5 million 400 ming tonna don yetishtirildi.

2. Resurslar kamyob bo‘lganidan ishlab chiqarishning eng zarur sohalariga ustivorlik beriladi. Muqobil mahsulotlardan eng maqbuli tanlab olinadi. Bir mahsulot uchun resurs ko‘proq ketsa, tabiiy ravishda boshqasiga kamroq qoladi. Hadisi sharifda aytilganidek «tejamkorlar muhtoj bo‘lmaslar».


#### **Iqtisodiyot fanining eng ahamiyatli, muhim vazifasi.**

*Bilish (o‘rganish) vazifasi* — bu vazifa hamma fanlar uchun umumiydir. Lekin iqtisodiyot fanida bitta o‘ziga xoslik bor: bunda iqtisodiy tajriba o‘tkazish mumkin emas yoki mumkin bo‘lsa, juda qimmatga tushadi.

*Metodologik vazifa* — aniq iqtisodiyotlar tadqiqotlarning boshlang‘ich metodologik belgilari sifatida umumiy qonuniyatlarga tayanib xususiy muammolarni tadqiq qilayotgan bir paytda iqtisodiyot nazariyasi umumiy muammosi, ya‘ni ob‘yektzni to‘laligicha tadqiq qiladi.

*Amaliy vazifa* — iqtisodiy siyosatni ta‘minlaydi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish, fan va siyosatning o‘zaro nisbatlari va munosabatlari haqida savol paydo bo‘ladi. (2-sxema)

Iqtisodiyot fani asosida insonning va bir butun olganda jamiyatning yangi talablari va manfaatlarining yuzaga kelishi uchun boshlang‘ich nuqta bo‘lib xizmat qiluvchi ishlab chiqarish yotadi. Talablar manfaatlar shaklida bo‘lib ishlab chiqarishni



2-sxema.

sifat jihatidan ham, miqdor jihatidan ham harakatlantiradi. Ammo talablar ishlab chiqarishga ta'sirini bevosita emas, balki bozor va iqtisodiy siyosat orqali oshiradi. O'z navbatida iqtisodiy siyosat faqat ishlab chiqarishnigina emas, iqtisodiyot fanining ham ta'siriga duch keladi.

Iqtisodiyotni funksional (vazifaviy) o'zaro bog'liqlik tamoyillari asosida tadqiq qilish («economics») nomini olgan.

Iqtisodiyot — cheklanganlik va tanlov haqidagi fandir.

«**Iqtisodiyot**» — odatda samaradorlik, tejamkorlik omillardan oqilona foydalanish kabi tushunchalar bilan qo'shib ular uyg'unligida qabul qilinadi, tushuniladi. So'z yunoncha «oikonemia» — xo'jalikni boshqarishdan yasalgan.

«**Iqtisodiyot nazariyasi**» — bu odamlar cheklangan omillardan tovarlar ishlab chiqish va xizmatlar ko'rsatishda ularni oqilona taqsimlab va almashib o'zlarining cheklanmagan talablarini insonning qobiliyatlari va imkoniyatlarini har tomonlama rivojlantirish maqsadida qondirishga harakat qilib foydalanihga intilishlari haqidagi fandir.

Hammaning cheklanmagan talablarni qondirish mumkin bo'lmaganligidan har bir kishi, firma yoki davlat orasidagi eng zarurlarini tanlab olishlari kerak. Bunda ularning har biri ko'proq narsa olish va iqtisod qilib qolishga intiladi.


Buni nazarda tutgan holda biz iqtisodiyotni jamiyatning omillar cheklangan holatda ehtiyojlarini qondirish uchun tanlovini ta'riflovchi va tahlil qiluvchi ijtimoiy fan sifatida belgilashimiz mumkin.

Shuning uchun iqtisodiyotning bosh muammosi shundaki, iqtisodiy omillar, odamlarning talablaridan farqli o'laroq, cheklangandir. Iqtisodiy nazariya va amaliyotning asosiy muammosi tanlov muammosi sifatida ham taqdim etilishi mumkin. Darhaqiqat, agar turli xil talablarni qondirish uchun ishlatiladigan har bir omil cheklangan ekan, unda doimo undan foy-

dalanishning muqobilligi va ishlab chiqarish omillarining eng yaqin qo‘shiluvini izlash muammosi ham mavjud bo‘ladi, ya‘ni tanlov muammosi mavjud bo‘ladi. Javoblari xo‘jalik tizimining ko‘piga bog‘liq bo‘lgan *iqtisodiyotning uch asosiy savolining* (masalasining) qo‘yilishi ushbu muammoning aks ettirilishidir.

O‘z xo‘jalik faoliyatini tashkil qilar ekan insoniyat doimo nima ishlab chiqarish kerak? Qanday qilib ishlab chiqarish kerak? Ishlab chiqarilganlarni qay tarzda taqsimlash kerak? Omillarni qachon ishlatish kerak degan muhim (bosh) iqtisodiy savollarga javob axtarishga majbur. Aynan shu savollarga eng oqilona javoblarni izlashdagi mahorat darajasi pirovard natijada mamlakatning boyligini va fuqarolarining farovonligini belgilaydi.

### Iqtisodiyotning uchta asosiy savoli:



*3-sxema.*

### Nazorat savollari:

1. Iqtisodiy tovarlar tushunchasi o‘z ichiga nimalarni oladi? Tovarlarni va xizmatlarning qanday xususiyatlarini sanab berishingiz mumkin?
2. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasini jadvali milliy iqtisodiyotning rivojlanishining qaysi faktini namoyish qiladi?
3. Ehtiyojlarni qondirishning optimal darajasini ayting.
4. Iqtisodiyot fanining eng muhim vazifasi nimadan iborat?
5. Iqtisodiy resurslarni uch toifasini sanab bering.

### 2.1. XO‘JALIK YURITISH. IQTISODIYOT TAMOYILLARI

**Xo‘jalik faoliyati** maqsadga muvofiq faoliyatdir, ya‘ni u odamlarning xo‘jalik yuritish jarayonidagi ma‘lum bir hisob-kitobga asoslangan va talablar qondirishga yo‘naltirilgan harakatlaridir.

**Xo‘jalik yuritish jarayonida** odamning *hayot faoliyati* bir tomondan esa energiya, omillar va hokazolarni *sarflashda* ikkinchi tomondan esa hayotiy xarajatlarni *tegishlicha to‘ldirishda* namoyon bo‘ladi. Bunda iqtisodiy subyekt (xo‘jalik faoliyatidagi odam) oqilona, ya‘ni xarajatlar va foydalarni taqqoslash yo‘li bilan harakat qilishga intiladi.

Inson hayoti va faoliyatining muhim xususiyati uning moddiy dunyoga bog‘liqligidir. Bir xil moddiy ne‘matlar shunday miqdorda, shunday shaklda mavjudki, ulardan inson har joyda va hamma vaqt foydalanish imkoniyatiga ega. Ularga bo‘lgan *talablarni qondirish* hech qanday kuch sarflashni va qurbonlikni talab qilmaydi. Bular *erkin va in‘om etilgan ne‘matlardir*. Shunday sharoitlar mavjud bo‘lib saqlanib turar ekan, bu ne‘matlar va ularga bo‘lgan talablarni qondirish insonning tashvish tortishi predmeti bo‘lmaydi.

Boshqa *moddiy ne‘matlar cheklangan miqdorlarda* mavjuddir. Ularga mavjud bo‘lgan talablarni *qondirish*, ularga yetarli miqdorda ega bo‘lish uchun ularni topish hamda talablarga moslashtirish uchun kuch va harakat sarflash kerak bo‘ladi.

Bu ne‘matlar «xo‘jalik ne‘matlari» deyiladi. Bu ne‘matlarni qo‘ldan chiqarish, yo‘qotish zararni tashkil etadi, ularning o‘rnini qoplash yangitdan kuch sarflash, xarajat va qurbonliklar talab qiladi. Odamlarning farovonligi shularga bog‘liqdir. Shuning uchun xo‘jalik yurituvchi bilan ehtiyotlik, tejamkorlik bilan me‘yorida, hisob-kitobni qilgan holda muomala qiladi.

«Iqtisodiyot» so‘zi ikki ma‘noda: firma, tarmoq; viloyat mamlakat (masalan, O‘zbekistonning iqtisodiyoti)ni «xo‘jalik jihatdan joylashishi, faoliyat yuritishi» tushunchasining sinonimi va uzoq o‘tmishda vujudga kelgan va dastlab inson faoliyatining juda tor sohasini ko‘rib chiqqan fan ma‘nosida ishlatiladi.



**Iqtisodiyot** — omillarning cheklanganligi sharoitlarida oqilona yuritish haqidagi fandır.

Optimallik mezonlari bu yerda — xarajatlar, sarflar va natijalar daromadlarning nisbatidir.

Bu iqtisodiyot tamoyillari tushunchasiga olib keladi.

**Maksimallik tamoyili** — maksimum, eng ko‘p darajada foyda, daromad olishga foydalilik, talab va ehtiyojlarning qondirilishiga erishishga intilishdir.

**Minimallik tamoyili** — xo‘jalikni minimum, eng kam darajadagi zarar, xarajat, sarf yo‘qotish bilan yuritish.

Masalan, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirishda eng kam — minimal xarajatlar qilib, maksimal foyda olish maqsadi qo‘yiladi.

Talablarning cheklanmaganligi sababli iqtisodiyotning o‘z cheklangan omillaridan maksimal foydalanish muhimdir. Bu biz uchun juda muhim bo‘lgan samaradorlik tushunchasiga olib keladi.

**Samaradorlik** — yo‘qotishlarning mavjud bo‘lmasligini yoki iqtisodiyot omillaridan odamlarning ehtiyojlari va xohishlarini qondirish uchun qanchalik imkon bo‘lsa, u shunchalik samarali foydalanish hisoblanadi.

**Odamlarning xo‘jalik faoliyati** — turli xil holatlar va jarayonlarning murakkab hamda chigal majmuyidan iboratdir. Unda to‘rtta bosqich: xususan ishlab chiqarishning o‘zi, taqsimot, almashinuv va iste‘mol ajralib turadi.

**Ishlab chiqarish** — bu insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan moddiy va ma‘naviy ne‘matlarini yaratish jarayonidir.

**Taqsimlash** — ishlab chiqarilgan mahsulotda har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning ishtirok etishi (miqdori, proporsiyasi)ni aniqlash jarayonidir.

**Almashinuv** — moddiy ne‘matlar va xizmatlarni bir subyekt-dan ikkinchisiga harakatlantirish jarayoni va ijtimoiy mahsulot almashinuvini yuzaga keltiruvchi ishlab chiqaruvchilar va iste‘molchilarning ijtimoiy aloqalarining shaklidir.

**Iste‘mol** — ishlab chiqarish *natijalarini, talablarni qondirish uchun* ishlatish jarayonidir.

Bu bosqichlarning hammasi o‘zaro aloqada va o‘zaro harakatda bo‘ladilar.

Ammo inson xo‘jalik faoliyatining ushbu bosqichlarining o‘zaro aloqalarini ta‘riflashdan avval, shuni ta‘kidlash zarurki,

har qanday ishlab chiqarish *ijtimoiy va uzluksiz jarayondir*. U doimiy ravishda takrorlanib, *tarixan rivojlanadi* — eng sodda shakllardan zamonaviy yuqori darajada unumdor ishlab chiqarishga bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tadi.

Ishlab chiqarishning bu tiplarining bir-biriga qanchalik o‘xshash emasligiga qaramasdan ishlab chiqarishga mansub bo‘lgan umumiy joylarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Umuman olganda ishlab chiqarish insonning *predmetlariga va tabiat kuchlariga ularni u yoki bu ehtiyojlarini qondirishga moslashtirish maqsadidagi* ta’siri jarayonidir.

Alohida shaxsning, turli guruhlarining, butun jamiyatning xo‘jalik faoliyati ma’lum bir sharoitlarda, ma’lum holatda iqtisodiy muhitda amalga oshiriladi.

**Xo‘jalik faoliyati** haqidagi ta’limot tabiiy va ijtimoiy muhitni ajratib ko‘rsatadi. Bu shu bilan izohlanadiki, odamlar o‘zlarining xo‘jalik faoliyatlarida cheklanganlar va birinchidan tabiiy tomonidan, ikkinchidan esa ishlab chiqarishning ijtimoiy tarzda uyushtirilishi tufayli yuzaga keladigan shart-sharoitlar bilan hisoblanishga majburlar.

**Tabiiy muhit** *xo‘jalik yuritishning* tabiiy sharoitlarini belgilaydi. Bunga iqlim va tuproq sharoitlari, nasliy shart-sharoitlar, aholining soni, ovqatlanish, uy-joy, kiyim-kechak kiradi. Bunda odam *o‘z faoliyatini omillarning tabiiy cheklanganligi* sharoitida amalga oshiradi.

Odamlarning xo‘jalik faoliyati ma’lum bir qoidalar doirasida olib boriladi. Ulardan asosiylari mulkka munosabatlardir. Aynan shu munosabatlar xo‘jalik yuritishning natijalarida o‘z aksini topuvchi xo‘jalik faoliyatining ijtimoiy muhitini belgilaydi.

*Xo‘jalik yuritish shart-sharoitlariga xo‘jalik yuritishning qonunlari, qoidalarni* belgilovchi, mehnat faoliyati sharoitlarini tartibga soluvchi turli xil davlat tashkilotlari, shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilashni talab qiluvchi jamiyatlar, o‘rtoqliklar, partiyalar, kasaba uyushmalari va boshqa iqtisodiy institutlar jiddiy ta’sir ko‘rsatadilar.

### **Ishlab chiqarish**

Kishilik jamiyatining rivojlanishi asosida moddiy ne’matlarni ishlab chiqarish yotadi.

***Ishlab chiqarishning bosh maqsadi*** — odamlarni ularning talablarini qondiruvchi tovarlar va xizmatlar bilan ta’minlashdir. Shuning uchun ishlab chiqarish o‘z ichiga odamlar haqini to‘lashga tayyor bo‘lgan hamma tovarlarni ishlab chiqarish va

xizmatlarni ko'rsatishni oladi. Ishlab chiqarishda eng muhimi — bu bir soat yoki bir kun ichida ishlab chiqarilgan tovarlarning miqdorlaridir.

Ishlab chiqarishning qandaydir omilidan foydalanib, ma'lum bir vaqt bo'lagi ichida ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmini o'lchash bu omilning unumdorligini baholashning usullaridan biridir.

**Unumdorlik** — bu tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning samaradorlik ko'rsatkichidir.

**Unumdorlik** — mehnat unumdorligi *xizmatchi tomonidan sarflangan jonli mehnatning har bir birligi evaziga, ya'ni kishi kuni, kishi soati hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan aniqlanadi.*

### **Ishlab chiqarishning asosiy turlari.**

Tovarlar ishlab chiqaruvchi va xizmatlar ko'rsatuvchi turli xildagi ko'pchilik tarmoqlar uchta katta guruhga bo'linadilar:

**Birlamchi guruh** — deb ishlab chiqarish jarayonining birinchi bosqichini ta'minlovchi tarmoqlarga aytiladi. Ular ham materiallarni qazib olish, topish, yetishtirish yo'li bilan ishlab chiqaradilar. Bu qishloq xo'jaligi, tog'-kon sanoati, o'rmonchilik, baliqchilikdir.

**Ikkilamchi tarmoqlar** — ishlab chiqarish jarayonining ikkinchi bosqichini ta'minlovchi ishlov beruvchi tarmoqlardir. Ular xomashyoni tayyor mahsulot yoki yarim fabrikatga aylantiradilar.

**Uchlamchi tarmoqlar** — bu *tarmoqlar* birlamchi va ikkilamchi tarmoqlarning korxonalariga, shuningdek, bevosita iste'molchilarga *turli xildagi xizmatlarni* ko'rsatadilar. Bular banklar, sug'urta kompaniyalarining xizmatlari transport, savdo va hokazo xizmatlaridir.

## **2.2. IQTISODIYOT VA EKOLOGIYA, ATROF-MUHITGA XO'JALIK YURITISHNING TA'SIRI**

Mana bir necha asrlar davomida, insoniyat tabiatining hayotiga aralashib, undan foydalanib keladi. Xo'jalik yuritishning atrof-muhit ta'siri tabiiy omillardan noratsional foydalanishda, ishlab chiqarish chiqindilari va axlatlar bilan havoni, suvni, yerni ifloslantirishda va boshqa ko'pgina salbiy holatlarning yuzaga kelishida o'z aksini topgan.

Bu masalalar bilan iqtisodiyotdagi alohida yo'nalish «tabiiy omillar va atrof-muhit iqtisodiyoti» shug'ullanadi.

Atrof-muhitni bulgʻovchi iqtisodiy sabablar quyidagilardir:

- **Aholi** sonining ekologik muhit bosimida ifodalanuvchi aholi zichligi.
- **Daromadlarning oʻsishi.** Iqtisodiy oʻsish har bir odamning doimiy oʻsib boruvchi hajmlarida omillarni isteʼmol qilishi va chiqindilar chiqarishni bildiradi.
- **Texnologiya.** Texnologik oʻzgarishlar atrof-muhitning ifloslanishining yana bir sababidir.
- **Ragʻbatlar.** Foyda olishni moʻljal qilgan ishlab chiqaruvchilar, odatda, omillarning eng kam sarflanishini talab qiladigan qoʻshilmasini tanlaydilar va ekologiyaga oʻzlari bu jarayonda yetkazgan zararni hisobga olmasidan faqat eng zarur xarajatlarni qoplashni afzal koʻradilar.

Inson xoʻjalik faoliyati biotsenozlarining qayta qurilishiga sezilarli taʼsir koʻrsatib, ular qator landshaft — ekologik oqibat-larga olib keladi. Dunyoning turli tumanlarida ayrim hayvonot turlarining qirib yuborilishi, bir butun, yaxlit landshaftlar (masalan, dasht, oʻrmon) yoʻq qilinishining koʻplab faktlari maʼlum. Shu bilan bir qatorda insonning Yer shari aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan taʼminlashga yoʻnaltirilgan, yaratuvchilik faoliyati ham buyukdir: madaniy oʻsimliklar, uy hayvonlari turlarini, parrandalarni, qushlarni yaratish, baliq yetishtirish va boshqalar. Tabiiy landshaftning barcha komponentlari insonning oʻzgartiruvchi taʼsiriga bir xil darajada berilmaydi. Oʻsimlik va hayvonot olami, tuproq, suv rejimi, relfning mikro shakllari eng koʻp taʼsirga uchragan. Vaqt mobaynida har qanday landshaftda geologik fundament va iqlim jarayonlari barqaror boʻlib, ular kam oʻzgarishga uchraydilar. Shuningdek, inson landshaftning zonal, geografik kenglik, azonal qonuniyatlarining umumiy kechishini ham oʻzgartirishga qodir emas. Shuning uchun inson oʻzgartirgan va barpo etgan landshaftlar tabiiy qonuniyatlarga muvofiq rivojlanishini, tashlab ketilgan landshaftlar oʻzlarining dastlabki holatiga qaytishga harakat qilishini unutish mumkin emas. Jamiyatning tabiiy landshaftni qayta oʻzgartirishi darajasi quyidagi asosiy omillar bilan belgilanadi: 1) aholi soni; 2) jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi; 3) ishlab chiqarish kuchlarining energetika bazasi; 4) odamlar tomonidan hududlarni oʻzlashtirishning tarixiy davomiyligi muddatlari.

Landshaftning qaytarib boʻlmaydigan oʻzgarishlari landshaftdagi tabiiy jarayonlarning xoʻjalik taʼsirida (rejalashtirilgan

yoki nomaqbul o'zgarishlar) sodir bo'lishining tezlashishi, masalan, botqoqlanish, tuproq sho'rlanishi, jarlikning paydo bo'lishi va boshqalar oqibatida yuz beradi. Inson ta'sirida landshaftning o'zgarishi darajasi va xarakteriga ko'ra ular o'zgaragan (birlamchi), kam o'zgargan, kuchli o'zgartirilgan (buzilgan), ratsional qayta o'zgartirilgan landshaftlarga bo'linadi. Ular mavjudligining davomiyligi bo'yicha o'z-o'zini tartibga soladigan uzoq yashovchi landshaftlar (tuproq ko'tarmalar, qo'rg'onlar, ba'zi suv havzalari) ko'p yillik qisman tartibga solinuvchi landshaftlar (hovuzlar, o'rmonlar va boshqalar). Qisqa muddatli tartibga solinuvchi landshaftlarga (don va texnika ekinlari) bo'linadi.

Tabiiy resurslarning ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish omili sifatidagi rolining oshib borishi «tabiat-ishlab chiqarish» tizimi ishlashining samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishni ratsional joylashtirishning ahamiyatini oshiradi. Ishlab chiqarishning joylashishi normal atrof-muhit shakllanishining asosiy sharoitiga, tabiatdan foydalanish masalalari esa ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning eng asosiy omillaridan biriga aylanayotir. Bu masalalarni to'g'ri hal etish uchun tarmoqlar, ishlab chiqarish va texnologiyalarni ularning tabiatga va uning komponentlari — o'simlik, yer, suv, havo, insonga munosabatlari bo'yicha klassifikatsiyalash zarur. Tarmoqlar va ishlab chiqarishni klassifikatsiyalashda eng avvalo ularning jonli tabiat va insonga zararli ta'siri har tomonlama to'la hisobga olinishi kerak. Korxonalar, ishlab chiqarish, texnologiyalarni joylashtirishda ularning resurslardan foydalanish va atrof-muhit uchun zararliligining bir xil tipdagilari birikmalari (birga qo'shilishini) paydo bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Bular atrof-muhit, hovli ifloslanishi yoki hududlar axlat va chiqindilar bilan ifloslanishining oldini olishga yordam beradi. Moddiy tarmoqlar orasida o'rmon xo'jaligi atrof tabiiy muhitga zararli ta'sir ko'rsatmasligi, balki uni ancha yaxshilashi bilan alohida o'rinni egallaydi. O'rmon xo'jaligi faoliyati jonli tabiatning eng qudratli kompleksi hisoblangan o'rmonlar bilan bog'liq bo'lib, ular o'zlari egallagan maydonlargagina emas, balki tutash hududlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### 3.1. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TA'RIFLAR

Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi. Har qanday ishlab chiqarishda ikki omil — shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy omillar ishtirok etadi.

Shaxsiy-insoniy omil — bu mehnat qilish qobiliyatidan iborat bo'lgan ish kuchi va uning faoliyatidir.

Shaxsiy-insoniy omil mehnatga layoqatli aholi, uning jismoniy va aqliy qobiliyati, bilim va saviyasi, malaka va mahoratidir. Mazkur aholi O'zbekistonda 2002-yilda 12 million kishi edi. Bu omil insoniy qobiliyat bo'lgani sababli inson shaxsi bilan birgalikda, undan ajramagan holda namoyon bo'ladi va inson shaxsida gavdalanadi.

Moddiy-ashyoviy omil — bu ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha oddiy shakldagi vositalardir.

Tadbirkorlik qobiliyati oddiy ish kuchidan farq qilib, ishlab chiqarishda boshqarishdan iborat bo'lgan alohida vazifani bajaradi. U tabiatan ishbilarmonlik bo'lib, alohida bir iste'dod, yuksak bilim, maxsus tayyorgarlik va mas'uliyat mujassami demakdir.

Tadbirkorlik qobiliyati moddiy omillar bilan birikmaydi, balki shu omillar bilan ish kuchining samarali birikishi, iqtisodiy faoliyatdan yaxshi natija olinishini ta'minlaydi.

Omillarning birikishi tufayli olingan mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning natijasi hisoblanadi. Ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot ikki xil bo'ladi: birinchisi — natural mahsulot bo'lib, uni ishlab chiqaruvchining o'zi iste'mol etadi. Bu mahsulot ayirboshlash uchun bozorga chiqarilmaydi. Masalan, fermer xo'jaligida yetishtirilgan donning bir qismi natural mahsulot bo'lib, xo'jalikning o'zida molga yem yoki fermer oilasiga oziq-ovqat uchun ishlatiladi; ikkinchisi — tovar shaklidagi mahsulot bo'lib, ishlab chiqaruvchining o'z iste'moli uchun emas, balki bozorda sotish uchun yaratiladi. Mahsulotni bozorda oldisotdi qilish uchun ishlab chiqarish tovar ishlab chiqarish deb yuritiladi. Mana shu tovar ishlab chiqarish bozor iqtisodiyotining asosidir.

Bozorda sotish uchun — chiqarilgan mahsulot va xizmatlar tovar deyiladi.

### 3.2. ICHO NING IQTISODIY-ISHLAB CHIQRISHDA TASNIFLANISHI

Iqtisodiy tizimda ishlab chiqarish omillarining o‘zaro hamkorlikdagi harakati markaziy o‘rinni egallaydi.

#### **Ishlab chiqarish omillarining tasnifi.**

**Ishlab chiqarish omillari** — ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan va chiqarilayotgan mahsulotning miqdori ularga ma‘lum darajada bog‘liq bo‘lgan omillardir. Ishlab chiqarish omillariga talab erkin bo‘lib, u ushbu omillar ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlari tufayli mavjuddir. Demak, ishlab chiqarish jarayoni yo‘q bo‘lsa, bunday omillarga talab ham bo‘lmaydi.

Iqtisodiyot fanidagi to‘rtta asosiy ishlab chiqarish omili bu — yer, mehnat, kapital, shuningdek, tadbirkorlik qobiliyatidir.

#### *Ishlab chiqarish omillari:*

- Tabiiy omillar — «yer».
- Inson omillari — «mehnat».
- Ishlab chiqarish omillari — «kapital».

**Mehnatning** ishlab chiqarish omili ekanligi haqida gapirganimizda biz odamlar o‘zlarining jismoniy va aqliy imkoniyatlari, shuningdek, ta‘lim olish paytida qo‘lga kiritilgan ko‘nikmalar va ish tajribalarini ishga solish yo‘li bilan tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha faoliyatini nazarda tutamiz. Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish uchun odamlarning qobiliyatlari qandoq bo‘lsa, shundoq sotib olinmasdan, balki bu qobiliyatlardan ma‘lum vaqt davomida, ma‘lum bir turdagi ne‘matlarni sotish uchun foydalanish huquqi qo‘lga kiritiladi. Shunday qilib, mehnatni sotib olish deganda aniq mehnat xizmatlarini vaqtning ma‘lum bir davriga sotib olish nazarda tutiladi.

Bu jamiyatning mehnat omillarining hajmi mamlakatning mehnatga qobiliyatli aholisining soniga va bu aholi yil davomida ishlab berishi mumkin bo‘lgan vaqt miqdoriga bog‘liq demakdir.

**Mehnat** — ishlab chiqarishning to‘rt asosiy omilidan biridir.

**Mehnat** — *insonning ish faoliyati* bo‘lib, u ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlardan uning aniq natijalaridan qat’i nazar, ish kuchining yoki mehnatga qobiliyatlarining sarflanishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Mehnat jarayoni o‘z ichiga uch asosiy omilni oladi. Bular:

- insonning maqsadga muvofiq faoliyati;
- mehnatga yo‘naltirilgan predmet;

— inson, ular yordamida mehnat predmetiga ta'sir qiladigan mehnat vositalari.

**Mehnatning shaxsiy omili** — tovarlar ishlab chiqarishda va xizmatlar ko'rsatishda ishlatiladigan ish kuchining tashuvchisi sifatidagi insondir.

**Mehnatning shaxsiy omili** — mehnat faoliyatining moddiy omillari, mehnat predmetlari va vositalari, shuningdek, atrofni o'rab turuvchi tabiiy va ijtimoiy muhit bilan o'zaro harakat qiluvchi *mehnat jarayoni subyektidir*.

Mehnatning ikki yoqlama harakatlari:

Bir tomondan, mehnat aniq bo'ladi va tovarning iste'mol qiymatini yaratishidir.

Boshqa tomondan esa mehnat mavhum bo'lib har bir tovar-da uning qiymatini tashkil etish tasnifidir.

**Jonli mehnat** — odamning moddiy ne'matlarini yaratishga yo'naltirilgan maqsadga muvofiq faoliyatidir.

**Yollanma mehnat** — o'zi mulk egasi bo'lmagan korxonada yollanish shartnomasi bo'yicha ishlayotgan yollanma xodimning mehnati.

**Ishlab chiqarish vositalari** — odamlar tomonidan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish jarayonida foydalaniladigan mehnat vositalari va mehnat predmetlarining yig'indisi. Mehnat vositalari yordamida inson iste'mol qiymatini yaratish maqsadida mehnat predmetiga ta'sir qiladi.

**Mehnat predmetlari** — ishlab chiqarish vositalarining inson mehnatiga yo'naltirilgan qismi. Mehnat predmetlari yo tabiat tarafidan berilgan bo'ladi, yoki mehnat mahsuloti bo'ladi.

**Mehnat vositalari (*mehnat qurollari*)** — odamlar ular yordamida mehnatga, narsalarga ta'sir ko'rsatib, narsalarning ko'rinishlarini o'z maqsadlari va talablariga muvofiq ravishda o'zgartiradigan ishlab chiqarish vositalarining yig'indisidir.

### 3.3. IQTISODIY TAMOYILNI HISOBGA OLGAN TEXNIK IMKONIYATLAR BO'YICHA ICHO TASNIFI

**Yer** — tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, uylar, shaharlar, yo'llar qurish uchun foydalanish mumkin bo'lgan «tabiatning bepul ne'mati», tabiiy omilidir.

**Kapital** haqida gapirganimizda biz odamlar o'z kuchlarini oshirish va zarur ne'matlarni tayyorlash imkoniyatlarni ken-



gaytirish uchun yaratgan ishlab chiqarish texnik apparatini hammasini nazarda tutamiz. Soddaroq qilib aytganda, kapital ishlab chiqarishga mo'ljallangan bino va inshootlar, dastgohlar, uskunalar, temiryo'llar, ya'ni tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalarini amalga oshirishni qo'llash uchun zarur bo'lgan hamma narsalardan iboratdir. Kapitalning hajmi odatda, uning summalar qiymati bilan o'lchanadi.

**Kapital** — bu odamlar tomonidan yaratilgan, tovarlarni ishlab chiqarish va xizmatlarini ko'rsatishda foydalaniladigan ishlab chiqarish vositalari hamda pul jamg'armalaridir. Bu vositalarni ishlab chiqarish va to'plash jarayoni investitsiyalash deb ataladi.

Bunda yana ikki holatni ko'rsatib o'tish lozim.

Birinchidan, investitsiya qilinadigan tovarlar (ishlab chiqarish vositalari) iste'mol tovarlaridan shunisi bilan farq qiladiki, keyingilari talablarni bevosita qondiradi. Birinchilari esa iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishni ta'minlar ekan, bu ishni bilvosita qiladilar.

Ikkinchidan, keltirilgan ta'rifda «kapital» termini pulni nazarda tutmaydi. To'g'ri, menejer va iqtisodchilar mashina, uskuna va boshqa ishlab chiqarish vositalari sotib olish uchun ishlatishi mumkin bo'lgan pulni nazarda tutib tez-tez «pul kapitali» haqida gapiradilar. Ammo o'z-o'zidan pullar hech narsa ishlab chiqarmaydilar, demak, ularni iqtisodiy omil deb hisoblash mumkin emas.

**Tabiiy kapital** — jamiyatga ajratilgan va ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatilishi mumkin bo'lgan tabiiy ishlab chiqarish omillarining zaxirasidir.

**Sanoat kapitali** — moddiy ishlab chiqarish sohasida tovarlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish uchun qarz qilib berilgan kapitaldir. Kapitalning doiraviy aylanishi jarayonida kapitalning uch shakli: sanoat kapitali, ishlab chiqarish kapitali va tovar kapitalini farqlaydilar.


**Jismoniy kapital** — ishga qo'shilgan, ishlab chiqarish vositasi turidagi ishlab turgan daromad manbai. Asosiy va aylanma kapitalni farqlaydilar.

*Jismoniy kapital* — tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun ishlatiladigan mashinalar, uskunalar, inshootlar hamda xomashyo, ya'ni fabrikatlar va tayyor mahsulotlarning zaxiralardir.

**Insoniy kapital** — insonning zamonaviy qobiliyatlari va ta’lim olish hamda amaliy faoliyati jarayonida olgan amaliy ko’nikmalari shaklidagi kapitaldir.

*Insoniy kapital* — iqtisodiyot fanida — odamlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnasha olish qobiliyatidir. (4-sxema)

Iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishga qulay bo’lishi uchun mehnatning ichida ishlab chiqarish omillarining yana bir ko’rinishi tadbirkorlikni ajratadilar. Bu so’z bilan quyidagi fazilat va xususiyatlar ifodalanadi.



4-sxema.

— iste'molchilarga qanday tovarlar kerakligi, eng katta foyda olishga erishish uchun mavjud bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarishning qaysi texnologiyalarini joriy qilsa, arziyini to'g'ri baholay olish;

— yangi tijorat loyihasiga sarflangan o'z jamg'armalarining yo'qotilishi mumkinligi xavfi (tavakkali)ni bu loyihani amalga oshirish uchun ketgan kuch va vaqtning o'z-o'zini oqlamasligini o'ziga olishga tayyorlik;

— jamiyatga zarur bo'lgan ne'matlarni yaratish uchun ishlab chiqarishning boshqa omillaridan foydalanishi muvofiqlashtirishini bilish kabi xislatlarga ega bo'lgan odamlarning jamiyatga ko'rsatishga qobil bo'lgan xizmatlarini ataydilar.

Ishlab chiqarish omillarini tasniflashning turli xillari mavjud. O'z ichiga mehnat, yer va kapitalni olgan tasnif turi uch bo'g'imli tizim bo'lib, u fanda an'anaviy hisoblanib, ikki asr davomida shakllangan. Tadqiqotlarning maqsadlaridan kelib chiqib olimlar:

— texnologiya;

— axborot;

— ekologiya kabi qo'shimcha omillarni ham ushbu holatga kiritadilar.

### **Nazorat savollari:**

1. Iqtisodiy omillarning (ishlab chiqarish omillarining) asosiy turlari qanday?
2. Mulk egasi o'z mulkiga nisbatan qanday asosiy huquqlariga ega?
3. Nima uchun odamlar har doim iqtisodiyot sohasida tanlov qilishlari kerak?
4. Ishlab chiqarish nima degani?
5. Unumdorlik nima?
6. Ishlab chiqarishning asosiy turlarini aytib bering.

### 4.1. ASOSIY TUSHUNCHA VA TA'RIFLAR. INSONLAR ORASIDA MEHNATNI TAQSIMLASH

Mehnat taqsimoti deganimizda, har xil mehnat turlarining bir-biridan ajratilishini, pirovardida ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi turli guruh kishilarning xilma-xil mehnat faoliyatlari bilan band bo'lishini tushunamiz. Mehnat taqsimotining asosiy ustunliklaridan biri shundaki, bunda ishchi ishning ma'lum bir turida chuqur ixtisos topadi, shu ishning bajarilish texnikasi va tartibni puxta egallab oladi, zarur ko'nikmalarni kasb etadi, ish usul va uslublarini yanada takomillashtiradi. Bunda maxsus asbob va uskunalari ishlatiladi. Bundan tashqari mehnat taqsimotida xodimlarni ish jarayoniga tayyorlash ham osonroq bo'ladi.

Ishlab chiqarishda mehnat taqsimotining uchta turi mavjud bo'ladi: umumiy mehnat taqsimoti, xususiy mehnat taqsimoti, qisman (ayrim) mehnat taqsimoti. Umumiy mehnat taqsimotiga kishilar faoliyatining ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi mehnat taqsimoti, bu sohalari orasida esa, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa, savdo, xalq ta'limi, fan, davlat boshqaruvi, madaniyat va hokazolar o'rtasidagi mehnat taqsimoti kiritiladi. Ana shu sohalari o'rtasida xodimlarning taqsimlanishi umumiy mehnat taqsimoti va jamiyatning ayrim mamlakat va uning mintaqasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonidagi o'zgarishlar tasnifi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ayrim mehnat taqsimoti ishlar va mehnat funksiyalarining ayrim korxonalar yoki alohida tashkilot xodimlari o'rtasida: sexlar, uchastkalar, brigadalar, zvenolar, ayrim ijro etuvchi xodimlar bo'yicha, shuningdek, ularning kasb-malaka guruhlari o'rtasida taqsimlanishini nazarda tutadi.

Mehnat taqsimotining bu turi ancha murakkab va muhim bo'lib, unda muayyan mehnat jarayonlari alohida mehnat taqsimoti doirasida sodir bo'ladi; iqtisodiy natijalar ham ana shu darajada amalga oshiriladi: ijrochilarning ixtisoslashuvi va ular kasb mahoratining ortishi, ixtisoslashgan yuqori unumli asbob-uskunalarining tatbiq etilishi, mehnat unumdorligining ortishi. Mubolag'asiz shuni aytish mumkinki, barcha darajalardagi meh-

nat taqsimotisiz hozirgi zamon texnikasi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo'lishi mumkin emas.

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat taqsimotining har xil shakllari qo'llaniladi. Texnologik mehnat taqsimoti ishlab chiqarish jarayonlarining qayta ishlash faza va sikllariga qarab bo'ladi. Bunda eng muhimi ularni bajarishning texnologiya jihatidan bir xilligidir. Qayta ishlash va fazalar ichida ayrim guruh ishlar: chilangar (chilangarlik, slesarlik), qizdirilgan yoki sovuq metalni ikki bo'lak qolip (shtamp) orasiga olib urib, buyum tayyorlovchi va hokazo bo'ladi. Guruhlar ichida esa ishlab chiqarish jarayonlari sodir qilinadi. Funktsional mehnat taqsimoti qo'llanilganida birovlar asosiy ishni bajarishda ixtisos topadi, boshqalari yordamchi ishni bajarishda, uchinchilari esa tayyorlash, xizmat ko'rsatish ishini bajarishda ixtisos orttiradi.

Malakali mehnat taqsimoti yoki bajariladigan ishlarning murakkabligiga qarab mehnatni taqsimlash, murakkab ishlar bilan oddiy ishlarni bir-biridin ajratishdan iborat. Shu bilan birga mahsulot tayyorlashdagi texnologik murakkablik deganimizda tayyorgarlik funktsiyalarini va mehnat jarayonlarini bajarishdagi, shuningdek, tayyorlangan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat sifatni nazorat qilishdagi murakkabliklari e'tiborga olinadi.

Operatsiyalar bo'yicha mehnat taqsimoti ishchilar mehnatini eng to'la taqsimlashdir. Bunda ishlab chiqarishning har bir ayrim jarayoni ishlab chiqarish operatsiyasining tarkibiy qismlariga bo'linadi.

Kasbiy mehnat taqsimoti ishchilarning kasbiy ixtisoslariga qarab amalga oshiriladi va ish joyida u yoki bu kasb (ixtisos) bo'yicha ish bajarish nazarda tutiladi. Har bir tur ishning hajmiga qarab ishchilarga bo'lgan talabni — sex, uchastka, ishlab chiqarish, korxonalar, birlashma va hokazolar uchun kasblar bo'yicha talab qilinadigan ishchilar sonini belgilash mumkin.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishining o'ziga xos muhim xususiyati mehnatning bo'linishi, ya'ni ishlab chiqarish jarayonini ixtisoslashtirilgan topshiriqlari (amallar)ning katta miqdoriga maydalash, bo'lishdir. Har bir ishchi bu amallarning biri uchun javob beradi va uni butun ish vaqti davomida bajaradi. Shunday qilib, ko'pchilik tarmoqlarda tayyor tovar yuzlab mutaxassislar harakatining natijasidir.

Ko'pchilik tarmoqlarda har bir ishchi konveyerda harakat qilayotgan obyektga bitta detal o'rnatadigan yig'ish liniyalari ishlatiladi. Bunday tizimni, *odatda, ommaviy ishlab chiqarish* deb ataydilar.

## **Mehnatning bo‘linishi va bozorning hajmi.**

Ommaviy ishlab chiqarish faqat ommaviy talab bo‘lgandagina o‘zini oqlaydi. Mehnatning bo‘linishi tamoyili har haftada minglab bir xil tovarlarni sotishga qobil bo‘lgan sanoat tarmoqlaridagina keng tarqalgan. Agar bozorning hajmi nisbatan kichik bo‘lsa, firma mehnatni taqsimlash (bo‘lish) tamoyilini keng qo‘llay olmaydi.

Tovar ishlab chiqarishda ixtisoslashtirishning miqyosi bu tovar bozorining hajmiga bog‘liq bo‘ladi.

## **4.2. KORXONALAR ORASIDA MEHNATNI TAQSIMLASH**

**Mehnat taqsimoti** — bu faqat mehnat faoliyatining bir tomonidir, xolos. U ayrim xodimlar va ular guruhlarining umumiy mehnat jarayonidagi ayrim ishchilar mehnatini birlashtirishni talab qiladi. Barcha darajadagi o‘zaro bog‘langan mehnat jarayonlarida ayrim ijrochilarning ish o‘rinlaridan tortib butun-butun korxonalar, kichik tarmoqlar va iqtisodiyotning o‘zaro bog‘langan tarmoqlarigacha birlashtirishni taqozo qiladi. Bu birlashtirish, mehnat faoliyati jarayonidagi alohida ixtisoslashtirilgan ijrochilar o‘rtasidagi aloqalarning o‘rnatilishi mehnat kooperatsiyasi deb ataladi va mehnat faoliyatining tashkil etilishidagi eng muhim elementlardan biri hisoblanadi.

Mehnat kooperatsiyasining maqsadga muvofiq tashkiliy shakllarini tanlash — mehnatni tashkil qilishning mehnat taqsimotidan keyingi, ikkinchi muhim masalasidir. Ijtimoiy va xususiy sektor korxonalarida texnikaning rivojlanish darajasiga, ishlab chiqarish jarayonlari, tizimining tashkil etilish xarakteri va usullariga qarab mehnat kooperatsiyasining turli shakllaridan foydalaniladi. Ixtisoslashtirilgan sexlarning sexlararo kooperatsiyasi. Bunda korxonadagi bir necha sex jamoasining bir xil ishlab chiqarish jarayonida yoki turli bo‘lsada, bir-biri bilan bog‘liq ishlab chiqarish jarayonlarida rejali ravishda va birgalikda ishtirok etishi tushuniladi.

Asosiy sexlar bilan ularni materiallar, idish va hokazolar bilan ta‘min etib turuvchi ko‘makchi sexlar o‘rtasidagi mehnat kooperatsiyasi ham xuddi shunday bo‘ladi. Har bir korxonada asosiy ishlab chiqarishni tayyorlash, ishlab berish va chiqarish sexlari o‘rtasida mehnat kooperatsiyasi mavjud bo‘ladi. Bunday sexlararo mehnat kooperatsiyasi shunga asoslanadiki, tayyorlov sexlarining jamoalari ishlab berish sexlarini zarur yarimfabrikalar bilan ta‘minlab turadilar, yarim tayyor mahsulotlar bu sexlar-

da ishlanib, chiqarish sexiga o'tkaziladi, chiqarish sexida esa bu korxonada mahsuloti tamomila ishlanib bo'ladi. Mazkur sexlar o'rtasida mustahkan mehnat kooperatsiyasi, bundagi jamoalarning mehnat faoliyatida to'la uyg'unlik bo'lgan taqdirdagina istagan bir korxonasida rejali ravishda uzluksiz tayyor mahsulot ishlab chiqarish ta'min etiladi.

Ixtisoslashtirilgan uchastkalarining sex ichidagi mehnat kooperatsiyasi. Bu sex ichidagi bir necha uchastka jamoalarining bir xil ishlab chiqarish jarayonida yoki har xil bo'lsa-da, bir-biri bilan bog'liq ishlab chiqarish jarayonlarida rejali va birgalashib ishtirok qilishidir.

Mehnatga haq to'lashning jamoatchilik (jamoachilik) shaklini va tizimini ishchilarning idrok qilishlari quyidagi omillarga; jamoadagi ijtimoiy vaziyatga, bilim darajasiga, xodimlarning yoshi, malakasi, ishlab chiqarish stajiga, ayrim operatsiyalarni normalash holatiga, ish haqi tizimining tuzilish va qo'llanish usuli va hokazolarga bog'liq.

Sotsiologlar tomonidan o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mehnatni tashkil etishning brigada shakli joriy bo'lgan uchastkalarda ishlab chiqarish faoliyatidan qanoat hosil qilgan ishchilar salmoqi individual mehnat shakli hukm surgan uchastkalardagidan ko'ra ancha yuqori bo'lib, tekshirilgan sonning qariyb 82 foizini tashkil etadi. Mehnat individual tartibda tashkil etilgan uchastkalarda mehnat faoliyatidan qanoat hosil qilgan ishchilar 54—60 foizni tashkil qiladi.

Mehnat taqsimoti va kooperatsiya korxonalarining ixtisoslashuvi va kooperatsiyasini obyektiv zarur qilib qo'ydi. Xodimlar va bo'limlar jamoalarining manfaatlarini hisobga olgan holda ularning maqsadga muvofiq ixtisoslashuviz, vakolat doirasini qat'iy chegaralab, birgalikda ish bajaruvchi barcha qatnashchilarning aniq o'zaro yordam ko'rsatishini tashkil etmasdan turib, mehnat samarali bo'lishini ta'minlash mumkin emas.

Mehnat taqsimoti va kooperatsiya o'zaro bog'langan hamda bir-birini taqozo etadi. U shu narsada ifodalanadiki, mehnat vazifalarini chegaralab, muayyan xodimlarga (xodimlar guruhiga) birlashtirib qo'yish ularning o'zaro yordam ko'rsatish predmetini oldindan belgilab beradi. Shuning uchun ham mehnat taqsimoti tushunchasi keng ma'noda undan ajratib bo'lmaydigan kooperatsiya tushunchasini ham ta'riflaydi. Shu bilan birga odamlarning birgalikdagi faoliyat jarayonidagi o'zaro yordam ko'rsatish shakllari, o'z navbatida, yakka tartibdagi va jamoa tarzidagi mehnat taqsimotining tegishli chegaralarini belgilab beradi.

Mehnat taqsimoti va kooperatsiyasi jarayonlarining o'zgaruvchanligi texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil etishdagi o'zgarishlarga, shuningdek, ishlab chiqarish miqyoslariga boq'liq.

### **4.3. XALQ XO'JALIGI SUBYEKTLARI ORASIDA MEHNATNI TAQSIMLASH (MEHNATNING XALQARO TAQSIMLANISHI)**

Integratsion jarayonlarning o'sishiga sabab bo'luvchi boshqa omillar xalqaro mehnat taqsimoti tuzilishining chuqurroq siljib borishidir (birinchi navbatda, ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'sirida). «Xalqaro mehnat taqsimoti» atamasi, bir tarafdian, odatdagidek, millatlararo ishlab chiqarish majburiyatlariga ko'ra, ayrim mamlakatlarning belgilangan turdagi mahsulotni chiqarishga ixtisoslashishini, taqsimlash jarayonini nazarda tutadi. Boshqa tarafdian esa, ishlab chiqarish majburiyatlari rejali tarzda ichkari-da va firmalar o'rtasida taqsim qilinadi. Ichki soha ixtisosligi keng ko'lam topmoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyotning hozirgi bosqichi integratsion jarayonlarni turli mamlakatlarda ITT tarqalishi notekis bo'lgan taqdirda ham bozorni, ham ishlab chiqarishni sifatli yangi darajaga olib kelmoqda, turli mamlakatlarda ITT mustaqil omil bo'lib, hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarishidagi tashqi iqtisodiy aloqalarda katta rol o'ynaydi. U yoki bu mamlakatdagi fan va texnikaning rivojlanish muvaffaqiyatlarini davlatlararo aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Turli mamlakatlarning firmalari o'rtasida kooperatsiya asosida tashkil etilishning shiddat bilan rivojlanishi ulkan xalqaro ishlab chiqarish-investitsiya komplekslarini barpo etishga olib keladi, bularni tashkil etishga ko'pincha TNK boshchilik qiladi. Ular uchun firma ichidagi mehnat taqsimoti milliy chegaradan chiqib, xalqaro miqyosga aylangan. Xuddi shu asosda ochiq milliy iqtisodiyot darajasi oshadi.

Ochiq iqtisodiyot mamlakatlarning xo'jaliklararo aloqalariga to'la kirib borishi asosida shakllanadi. U rivojlangan mamlakatlarda ochiq iqtisodiyotni barpo etishda mamlakatlarning tashqi iqtisodiy strategiyasi katta rol o'ynagan holda, eksport ishlab chiqarishni rag'batlantiradi, kooperatsiyalarning chet el firmalari bilan ishlashiga ko'maklashadi va huquqiy asos tashkil etib, chetdan mablag', texnologiya, malakali kadrlar kirib kelishiga yo'l ochib beradi.

Ishlab chiqarish sohasida xalqaro munosabatlarning jadal sur'atdagi yo'nalishi va xarakteri muayyan darajada integratsion



jarayonning mazmuni va rivojlanishini belgilaydi. Umuman, u ishlab chiqarish bilan birga aloqa o'rnatish sohalarini qamrab oladi. Savdo munosabatlari ko'pincha ikkinchi darajaga surilib, xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining yakunlovchi bosqichiga aylanmoqda.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi aniq ishlab chiqarish maqsadi asosida birlashib, faoliyat ko'rsatuvchi huquqiy shaxslar uyushmasidir. Xalqaro ishlab chiqarish hamkorligining shakllarini quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin: ixtisoslashtirish va kooperatsiya asosidagi ishlab chiqarish hamda savdo ishlarini muvofiqlashtiruvchi hamkorlik; ilmiy-texnika hamkorligi, pudrat (pay) asosida qurilish sohalarida faoliyat yuritish (qo'shma korxonalariga ega bo'lish). Hamkorlikning bu shakllari «sof holda» bo'lmasligi mumkin. Biroq amaliyotda ko'pincha firmalar muayyan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonalarini tashkil etadilar yoki sohalararo va ichki ixtisoslashtirilgan sohalar asosida ishlab chiqarish xizmatlarini o'taydilar. Bunda ilmiy ishlab chiqarish va savdo-sotiq faoliyatini uyg'unlashtirgan bir-biriga uzviy bog'liq qo'shma korxonalar yaratish maqsadi ham turadi.

Xalqaro ixtisoslik asosidagi ishlab chiqarish hamkorligi, odatda, xalqaro integratsion jarayonlarning yuksak darajadagi taraqqiyotini aks ettiradi va bu ko'rsatkich turli mamlakatlarning firmalari o'rtasidagi aloqalarda ham namoyon bo'ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Quyidagi gaplarda qaysi so'zlar tushib qolgan?  
Soatiga \_\_\_\_\_ — bu mehnat unumdorligini o'lchash usulidir.  
Ishlab chiqarish \_\_\_\_\_ bo'lganidek, \_\_\_\_\_ ham yaratishni o'z ichiga oladi.
2. Qaysi ikki misol ikkilamchi tarmoqqa kiradi?
  - a) Do'konda ishlash.
  - b) Muzlatilgan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va o'rash.
  - c) Telefon pultini boshqarish.
  - d) Sutni idishlarga (butilikalarga) quyish.
3. Mehnat bo'linishi joriy qilinganda nima ro'y bermaydi?
  - a) Unumdorlik oshadi.
  - b) Ixtisoslashtirilgan uskunalar ishlatiladi.
  - c) Ish ko'proq darajada bir xillashadi.
  - d) Ish turli xil ko'nikma va mahoratni talab qiladi. Ishchi ish topish uchun kam vaqt sarflaydi.
4. Sizning fikringizcha mehnatning bo'linishi tufayli ishchilar qanday foydaga ega bo'ladilar?

### 5.1. IQTISODIY SIKLNING SEKTORLARI

**Sikl bo'yicha rivojlanish** nazariyasiga XX asrning 20-yillarida N.D. Kondratyev tomonidan asos solingan. U ijtimoiy-iqtisodiy bashorat qilish mumkin va zarur, shuningdek, murakkab va o'zgarib turuvchi ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash va buning asosida xalq xo'jaligining tizimining hamma darajasida uning muqobil rivojlanishini oldindan ko'ra olish mumkin deb hisoblar edi.

N. D. Kondratyev iqtisodiy statistika, dinamika va konyunktura tushunchasini aniq chegaralab, belgilab olgan edi. U asosiy e'tiborni iqtisodiy dinamika qonuniyatlarining tahliliga qaramaydi va konyunktura tebranishlarining to'lqinsimon jarayonlarini aniqladi. U konyunkturaning mavsumiy va siklik (turkumiy) tebranishlarini ajratadi, siklik tebranishlar orasidan 7—11 yilni qamrab oluvchi kichik sikllarni va 40 yildan 60 yilgacha davom etuvchi katta sikllarni farqlaydi.

Aynan shunday yondashishgina bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida konyunktura o'zgarishlarini uzoq muddatga bashorat qilish uchun ilmiy baza bera oladi. Fan-texnika qonuniyatlarini va tendentsiyalarining tahlili bashorat qilishning ustuni bo'lishi kerak, ro'y berayotgan texnologik inqiloblar zaminida yangi texnologiyalar yotgan ilmiy-texnik yo'nalishlarni shakllantirishga qaratilishi lozim. Shu narsa aniqlanganki, texnikaning yetakchi sohalarida innovatsiyalarga o'tish bilan izohlanadigan inqiloblar taxminan 50 yilda bir marta ro'y berib turadi.

Texnologik inqiloblardan tashqari ushbu yo'nalish bo'yicha texnika vositalarining avlodlar almashish (EHM, atom reaktorlari, sanoat robotlarining avlodlari) o'rganiladi. Bir yo'nalish doirasida 200 yil ichida odatda 3—4 avlod almashadi. Odatda, birinchi avlodlar zarar keltiradilar, ikkinchi, ayniqsa, uchinchi-lari texnologiyalarga mujassam etilgan samarani beradilar. Texnika vositalarining bitta avlodning hayot sikli 15—20 yilni tashkil qiladi. Lekin avlodlar almashinuvi 8—10 yildan so'ng amalga oshiriladi, chunki oldingi siklning oxirgi bosqichi va navbatdagi siklning birinchi bosqichlari vaqt jihatdan bir-birlariga to'g'ri keladilar.

**Sikllik nazariyasi tebranishlar nazariyasini** qo'llashni taqozo etadi. Keyingi nazariya esa ko'rib chiqilayotgan bosqichda takrorlanuvchi ikkita bosqich: ko'tarilish va pasayish bo'lishini ko'zda tutadi.

Bunda sikl takrorlanuvchi bosqich (faza)lardan iborat ketma-ketlik deb belgilanadi. Siklning muhim xususiyati rekurentlik izchillikdir.

**Rekurentlik** — siklning har bir bosqichi keyingisini qayta tiklash qobiliyatiga ega bo'lishi kerakligini bildiradi. Natijada sikl o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish (tiklash) qobiliyatini qo'lga kiritadi (rekurent izchillik — bu qayta ketma-ketlikdir).

Siklning yana bir xususiyati — bu muntazamlikdir. Sikllarda ma'lum bir trayektoriyali doimiy dinamika mavjud bo'lishi kerak, agar u yo'q bo'lsa, har qanday oqish tasodifiy deb qaralishi mumkin.

Sikllarni davomiyligi uning o'tish mexanizmini oldindan belgilab beruvchi ikki mezon: siklning davomiyligi yoki davriyligi va uning harakatlantiruvchi kuchlarini ko'plab tasniflash mumkin.

Venger iqtisodchisi B. Shiposh «Kondratyev sikllarini bashorat qilish va empirik tadqiq qilish» deb boshlagan ishida juda qiziq o'zaro bog'liqlikni aniqlagan: davomiyligi uzoqroq bo'lgan sikllar qisqaroqlarini o'z ichiga kiritib yutib yuboradilar. Masalan, o'rta muddatli sikllari qisqa muddatli kichik sikllardan ikkitasini o'z ichiga oladi. Kuznezov sikli ikki marta kuchaytirilgan siklidan tashkil topgan — bu qattiq sabab-oqibat bog'lanishli sikllar tizimidir. Aynan shu tizim bashoratlarni ishlab chiqishga xizmat qilishi kerak.

Iqtisodchilar iqtisodiy rivojlanishdagi uzoq muddatli tebranishlarning qonuniyatlarini tushuntirish ustida ishlamoqdalar.

Iqtisodiy o'sishning uning trayektoriyasi va tezligini belgilovchi turli omillarning o'zaro chambarchas aloqasi aniqlangan. Lekin ularning ichidagi eng muhimi hozirgacha aniqlangan emas. Ko'pchilik iqtisodchilar muhimlikni texnologiyalarga, ayrimlari esa tabiiy omillarga beradilar.

Iqtisodiy rivojlanishda talab va taklifning nisbatiga bog'liq bo'lgan uzun to'lqinli sikllar mavjud, bunday to'lqinlarning har birida yetakchi sifatida tabiiy omillarning amal qilishi (harakati) bilan bog'liq bo'lgan texnologiyalarni ko'rsatish mumkin.

## 5.2. PUL VA TOVAR OQIMLARI

Pul — bu, buyuk ixtirolarimizdan biridir. Pul insonlarni sehrlaydi. Unga ega bo‘lish uchun qiynalamiz va mehnat qilamiz. Pul — undan qutilish yo‘li bilan foydalanish mumkin bo‘lgan yagona tovardir. Ularni sarf yoki investitsiya qilmasangiz sizni ular kiyintirmaydi ham, qorningizni to‘yg‘azmaydi ham, yaxshi dam olishingiz uchun sharoit ham yaratmaydi. Insonlar pul uchun hamma narsaga tayyor va pul ham o‘z navbatida insonlar uchun hamma narsaga tayyor turadi.

Pul barcha iqtisodiy fanlarning eng asosiy bo‘limlaridan biri hisoblanadi. Pul tizimining to‘g‘ri faoliyati daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishiga hayotiy kuch beradi. Yaxshi ishlayotgan pul tizimi ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikdan to‘liq foydalanish imkonini beradi.

Aksincha, yomon ishlayotgan pul tizimi iqtisodiyotdagi inqirozlarga, ya‘ni, ishsizlik, inflyatsiya va shuningdek, boshqa salbiy oqibatlariga olib keladi.

Demak, pul maxsus xususiyatlarga ega bo‘lgan tovar hisoblanib, barcha turdagi tovar va xizmatlarni ayirboshlash vositasidir. Pul tovarlar ayirboshlashda umumiy teng qiymatlilik (ekvivalent) rolini bajaradi. Pullar maxsus xususiyatga — likvidlik (ya‘ni, tez almashtirish) xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi. Har qanday buyumning likvidligi uni sezilarsiz sarf-xarajatlar bilan boshqa buyumga ayirboshlanish qobiliyatini bildiradi.

Ayirboshlash kengayishi bilan kredit pullar deb ataluvchi veksellar, banknotlar, cheklar, sertifikatlar, kredit kartochkalari va boshqa shunga o‘xshash qiymatliklarga ega bo‘lgan pullar paydo bo‘ladi.

Pul o‘z tabiatiga ko‘ra, uch xil xususiyatga ega, ya‘ni, hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi, boyluk timsoli, mehnatning qiymat shaklidagi o‘lchov vositasi.

Umuman pulning beshta vazifasi mavjud:

1. Qiymat o‘lchovi.
2. Ayirboshlash vositasi.
3. Xazina to‘plash va jamg‘arish vositasi.
4. To‘lov vositasi.
5. Jahon puli.

Pul o‘z xizmati mazmuni va miqyosiga qarab turli toifalarga bo‘linadi:

1. Xazina biletlari — bu pul oddiy muomilada ishlatiladi.
2. Banknot — kredit pullari — bunday pullar qarz olish va berish jarayonida ishlatiladi.

Pul tovar sifatida qiymatga ega. Hozirgi kunda pulning qiymatidan turli ko‘rinishlarida foydalanilmoqda. Ya’ni, qog‘oz pullarga tovar va pulli xizmatlar ekvivalent almashinadi. Bundan tashqari bank cheklaridan va kredit kartochkalaridan ham keng foydalanilmoqda.

Pul muomilasidagi eng asosiy masalalardan biri mamlakatda zarur bo‘ladigan pul massasini aniqlash va muomilaga chiqarish hisoblanadi. Bu esa makroiqtisodiyotning asosiy muammosi bo‘lib va davlat tomonidan tartibga solib turiladi. Pul massasi muomilaga chiqarilgan metall tangalar va qog‘oz pullar (xazina va bank biletlari)ning jami miqdoriga teng. Xo‘jalik muomilasidagi pul vositalarining umumiy hajmiga naqd puldan tashqari banklarning joriy hisobdagi pul vositalari ham kiradi. Hozirgi zamon bozor iqtisodiyotida pul massasining asosini tashkil etuvchi yoki pul agentlarini bilish eng zarur muammolardan biridir. Chunki, pulning eng samarali miqdordagi massasini chiqarish uning xarid qobiliyati barqarorligini ta’minlaydi. Pulning xarid qobiliyati barqarorligi, tovar va xizmatlar narxi keskin o‘zgarishining oldini oladi.

Tovar pirovard iste’molga yetib borguncha, bir nechta bosqichlardan o‘tishi, bir necha bor sotilishi mumkin. Buni qo‘yidagicha guruhlash mumkin:

ishlab chiqaruvchi _____	iste’molchi
ishlab chiqaruvchi _____	vositachi
vositachi _____	vositachi
vositachi _____	iste’molchi

Birinchi guruh tovar oqimi ko‘pincha tez o‘z sifatini, iste’mol qiymatini yo‘qotuvchi tovarlar bo‘yicha oldi-sotdiga kiritiladi ( sut va sut mahsulotlari, non va non mahsulotlari va h.k ). Qolgan tovar oqimi guruhlari vositachilar yordamida iste’molga yetkaziladi. Vositachi tovarni qaytadan sotish maqsadida oldi-sotdida ishtirok etadi. Vositachi fizik yoki yuridik (firma) shaxs bo‘lishi mumkin.

Vositachilar qo‘yidagicha guruhlanadi:

— distribyuter — yirik ulgurji korxonalari bo‘lib, ular o‘z omborlariga, oldi-sotdi jarayonida egalik huquqiga ega bo‘ladilar (oldi-sotdining ikkinchi guruhiga kiritiladi);

— dilerlar — chakana yoki ulgurji chakana faoliyati bilan shugʻullanuvchilar boʻlib, ular ham tovarga egalik huquqiga ega boʻladilar, oʻz omborlari mavjud, koʻpincha yuqoridagi uchinchi, toʻrtinchi oldi-sotdi guruhlariga kiritiladi;

— jobterlar — yuqoridagi vositachilarga nisbatan kichik firmalar, oʻz ombori yoʻqligi sababli, tovarga nisbatan egalik huquqiga ega boʻlib, tovarni qaytadan tezroq sotishga harakat qiladilar (3- guruh).

Tovar oqimi jarayonida dallollar ham ishtirok etishi mumkin. Ular tovarga egalik huquqiga ega emas, sotuvchi va sotib oluvchi oʻrtasida dallollik qilib, xizmati evaziga ulush oladi. Bularga: makler, broker, gent, komissionerlar kiradi.

Tovarning iqtisodiy oqimi natijasida tovaraylanma oldi-sotdi jarayoni amalga oshiriladi. Bu jarayonda tovarga boʻlgan egalik huquqi oʻzgaradi. Tovaraylanma faqat oldi-sotdi jarayonida sodir boʻladi. Hadya etish pulsiz tovarni berish jarayonida, yaʼni tovarni pulga almashish boʻlmasa, tovaraylanma sodir boʻlmaydi.

### **5.3. INVESTITSİYALAR MOHIYATI VA ULARNING TURLARI**

Har qanday firmalar faoliyatining asosini investitsiya jarayonlari tashkil etadi. Investitsiya deganda, loyihalarni amalga oshirish uchun sarf etiladigan pul mablagʻlari tushuniladi. Tijorat amaliyotida investitsiyalarning quyidagi uch shakli oʻzaro farqlanadi:

- fizik aktivlarga qilingan investitsiyalar;
- pul aktivlariga qilingan investitsiyalar;
- nomoddiy aktivlarga qilingan investitsiyalar.

Fizik aktivlar deganda, asosiy ishlab chiqarish vositalari, yani ishlab chiqarish binolari hamda mashina va uskunalar tushuniladi.

Pul aktivlari deganda, boshqa jismoniy va huquqiy shaxslardan pul mablagʻlarini olish huquqi (bankdagi depozitlar, aksiyalar, obligasiyalar va h.k.) tushuniladi.

Nomoddiy aktivlar deganda, tashkilot tomonidan xodimlarni qayta tayyorlash, malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, litsenziyalar sotib olish, savdo belgilarini ishlab chiqarish kabilardan olinadigan mablagʻlar tushuniladi.

Qimmatbaho qogʻozlarga qilinadigan investitsiyalar «portfel

investitsiyalari», fizik aktivlarga qilinadigan investitsiyalar esa «real investitsiyalar» deb ataladi.

Investitsiyalarning har ikki turi ham korxonalarining barqaror ishlashi uchun muhim ahamiyatga egadir. Ushbu mavzuda biz koʻproq real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarga toʻxtalamiz. Investitsiyalarni tayyorlash va tahlil qilish asosan firmaning maqsadlariga, yani investitsiya yordamida firma nimaga erishmoqchi ekanligiga bogʻliqdir. Mana shu holatlar asosida investitsiyalarning nima maqsadda berilayotganini quyidagi guruhlarga boʻlib koʻrish mumkin:

I. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun qilinadigan investitsiyalar. Ushbu investitsiyalarning asosiy maqsadi quyidagilar hisoblanadi:

- firmalarning uskunalarini almashtirish;
- firmada ishlayotgan xodimlarning malakasini oshirish;
- ishlab chiqarish quvvatlarini samarali hududlarga koʻchirish.

II. Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qilinadigan investitsiyalar. Bunda bozorlarning kengayishi natijasida mavjud quvvatlarni oshirish maqsad qilib qoʻyiladi.

III. Yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish uchun sarf etiladigan investitsiyalar. Bunda oldin ishlab chiqarilmagan mahsulotlar va koʻrsatilmagan xizmatlar turlarini vujudga keltirish koʻzda tutiladi.

IV. Davlat talablarini bajarish uchun qilinadigan investitsiyalar, masalan, ekologiya va mahsulot standartlari talablarini bajarish uchun sarflanadigan investitsiyalar.

Investitsiyalarni bunday tasniflashda tavakkalchilik darajasi har xil boʻlishi asos qilib olingan. Yuqorida keltirilganlardan birinchi va toʻrtinchi guruh investitsiyalarida tavakkalchilik xavfi darajasi past, qolgan ikkitasida esa yuqori hisoblanadi.

Bozorda avval maʼlum boʻlmagan mahsulotni ishlab chiqarish va bunga investitsiya sarfi katta tavakkalchilikni talab qiladi. Investitsiyalarni sarf qilish, bir qaraganda, firmalarning xohishiga bogʻliqdek koʻrinadi, aslida esa har qanday firma oqimga qarshi suzish sharoitida, yani raqobat sharoitida faoliyat yuritadi.

### **6.1. ISTE'MOLCHI EHTIYOJLARI. ISHLAB CHIQRISH MANFAATLARI**

Bozor talabining shakllanishi asosida shaxsiy (individual) talab yotadi, ya'ni alohida iste'molchining talabi, har bir shaxs o'zining fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun qandaydir mahsulotdan, qanchadir sotib olishi kerak, sotib olish uchun ma'lum miqdorda mablag'i bo'lishi kerak. Iste'molchining mablag'i chegaralangan. Iste'molchi har doim tanlov oldida turadi: qaysi mahsulotdan qancha olishi kerak. Iste'molchining qaror qabul qilishi, mavjud imkoniyat doirasida maksimal darajada o'z ehtiyojini qondirishga, turmush farovonligining darajasini oshirishga harakat qiladi. Ushbu, ehtiyojni qondirish darajasi yoki turmush farovonligi darajasi naflik (poleznost) deyiladi.

Ne'matning nafligi — ne'matning inson ehtiyojini qondira olish xususiyatidir. Iste'mol nazariyasida ne'mat — bu iste'molchining ehtiyojini qondira oladigan har qanday iste'mol obyektidir. Ko'p hollarda ne'matlar yakka tartibda emas, balki majmua tartibda yoki «korzina» bilan iste'mol qilinadi. Iste'mol nazariyasida iste'molchilar ma'lum didga, xohishga ega va ular bu xohish va didlarini qanoatlantirishda budjetlari (daromadlari) bilan chegaralangan. Bunday holatda ular ne'matlar majmualaridan, maksimal naf keltiradigan majmuani tanlashga harakat qiladi.

Iste'mol nazariyasida iste'molchining daromadi chegaralangan; iste'molchilar tomonidan sotib olinadigan ne'mat narxi uning miqdoridan bog'liq emas; iste'molchilar nafligini to'liq biladi, iste'molchi maksimal naf beruvchi ne'matlar majmuasini tanlaydi, deb faraz qilinadi.

### **6.2. QO'YILGAN MAQSAD, TALAB, RAQOBAT, BOZORDAGI O'RIN, XARAJATLAR, KONYUNKTURA HOLATI**

Bozor iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi, uning taraqqiy etishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi raqobatdir. Raqobat kurashining ahamiyati shunchalik yuqoriki, usiz bozorni tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, u bozor iqtisodiyotining mazmunidir.



Bozor sharoitidagi raqobat iqtisodiy raqobat bo'lib, u iqtisodiy jarayonda yuz beradi. Undagi asosiy maqsad bozor ishtirokchilarining erkin faoliyat sharoitini yaratish, har bir ishtirokchi o'z harakati uchun zarur muhit va holatni ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan kurashdan iboratdir. Har bir bozor ishtirokchisining kerakli ishlarni boshqalarga nisbatan muvaffaqiyatli hal qilishi, buning uchun zarur sharoitlarni oldindan va o'z vaqtida yarata olishi, doimo ustunlikka ega bo'lishi kabilar iqtisodiy raqobat kurashining mazmunini tashkil qiladi.

Bozor iqtisodiyotiga qatnashuvchilar bir-biri uchun raqib hisoblanib, o'zaro kurash olib boradilar. Alohida-alohida holdagi ishtirokchilarning bir-birlari o'rtasidagi kurashi umuman bozor iqtisodiyoti bilan yakunlanadi.

Iqtisodiy raqobat kurashida qatnashuvchilar bir-birlarini shaxsan bilishlari, tanish bo'lishlari zarur emas. Buning uchun avvalo bozor xususiyati, uning harakat qonuniyatlarini yaxshi bilgan, sezgan holda faoliyat ko'rsatish asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, har bir narsada, har qanday sharoitda tezroq, ertaroq, har tomonlama o'ylab harakat qilgan, oldin ulguridek va to'la maqsadga erishganidek raqobat kurashida bozor masalalarini hal qilish ham shunga o'xshab ketadi.

Raqobat kurashida barcha ham muvaffaqiyatga erishishga muayassar bo'lmaydi. Bu tajriba, bilim, matonat, tavakkalchilik va albatta, yirik sarmoyaga ega bo'lishni talab qiladi.

Raqobat kurashi keng mazmunli, ko'p qirrali bo'lib, bozor iqtisodiyotining barcha davrlari, sohalari, tarmoqlarida yuz beradi. Raqobat kurashiga bardosh bera oladigan shaxsgina bozor taraqqiyotiga ko'p hissa qo'sha oladi.

Raqobat kurashining asosiy mazmuni xaridorlarni o'ziga ko'proq jalb etish sharoitini yaratishdir. Chunki, har bir tadbirkorning molini sotib oladigan xaridor ko'p bo'lsa, u sotish muammosini tezroq hal etadi, ishi tezlashadi, yuqori foyda oladi. Sarmoyasi qancha tez qaytib, tez harakatda bo'lsa, shunchalik ko'p mahsulot ishlab chiqarishga, ko'proq sotishga muayassar bo'ladi.

Tadbirkor uchun kurashdagi eng muhim narsa zarur tovarni, xizmatni o'z vaqtida ko'proq ishlab chiqarish va xaridorga tezroq yetkazishdir. Bu jarayonda boshqalarga nisbatan oldinroq ulgurisa, albatta u bu kurashda g'olib chiqish imkoniyatini qo'lga kiritgan bo'ladi. Bu birinchi navbatda, bir xil tovar ishlab chiqaruvchilar va bir xil xaridorlar o'rtasidagi kurashdir. Shuning

uchun ham raqobatdagi harakatning keng hajmlisi bozor uchun, tovarni muvaffaqiyatli sotish uchun bo'lgan kurashdir.

Raqobat kurashi iqtisodiy faoliyatning boshqa tarmoq va sohalarida ham yuz beradi. Masalan, xomashyo uchun kurashni olaylik. Ma'lumki, bu ishlab chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi. Kerakli xom ashyodan o'z vaqtida, kerakli miqdor va hissa olish uchun harakat qilish umumiy muvaffaqiyat uchun zarur shartdir. Yuqori samarali xomashyo joylarini qo'lga kiritish, arzon energiya uchun kurash katta o'rin egallaydi.

Bulardan yana biri ish kuchi ta'minotidir. Yuqori malakali, tajribali ishchi, xizmatchilarga ega bo'lish, ayniqsa tadbirkor, savdogar uchun juda kerak. Yetarli miqdorda ularga ega bo'lish, kasaba uyushmalariga ta'sir etish uchun kurash raqobatda o'rindir. Demak, sotuvchilar, tadbirkorlar o'rtasidagi raqobat asosan xaridorlar, ish kuchi, xomashyo, material, ma'qul energiya xili uchun olib boriladi.

Raqobatning mohiyati shuki, har bir sotuvchi bozordagi juda ko'p miqdordagi sotuvchilar ishtirokida o'zining nisbatan kichik hissasi bilan umumiy taklifga ta'sir ko'rsata olmaydi, demak, bahoni ham yakka holda o'zgartira olmaydi. Aytish mumkinki, raqobat shundan iboratki, har bir sotuvchi — taklif subyektii umumiy taklifga kichik hissa qo'sha oladi va umumiy oqim ichida bo'ladi. Yakka holdagi sotuvchilar taklifning umumiy miqdoriga sezilarli ta'sir ko'rsata olmaydilar, shuning uchun ham yakka ishlab chiqaruvchi sifatidagi sotuvchi mahsulot narxini istaganicha o'zgartira olmaydi va unga istagan holda munosabatda bo'la olmaydi. Haqiqatdan ham har bir sotuvchi yakka-yakka holdagi harakatda va raqobatda qatnashuvchi sifatida bozor ixtiyorida bo'ladi. Bunda raqobat yakka-yakka holdagi barcha yoki juda ko'pchilik sotuvchilar harakatidan iborat bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, raqobat bozorda hukmronlikni inkor etib, erkin harakatni talab etadi.

Raqobat faqat jamiyat talabiga e'tibor berish va ba'zi tarmoqlarning kengayishi va qisqarishiga olib kelish bilan chegaralanmay, firmalarni eng samarali texnologiyaga o'tish, ilg'or ishlab chiqarishni ta'minlab borishga undaydi. U past va kam samarali texnologiya asosida ishlab chiqarishni uyushtirgan firmalarni qo'llamaydi va ularning boshqa ilg'or raqiblar tomonidan siqib chiqarilishiga olib keladi. Shuning uchun raqobat, aytganimizdek, texnik progress imkonini qo'llaydi va uni keng taraqqiyotiga undaydi.

### 6.3. NARX. ISTE'MOLCHI VA ISHLAB CHIQRISH O'RTASIDA MUVOZANAT O'RNATISH

**Bozor** — ijtimoiy ishlab chiqarishni shunday tashkil qilishini, unda tovarlarni ishlab chiqaruvchilar xaridorlarning ehtiyojlaridan kelib chiqib nimani qachon va qaysi miqdorda hamda qaysi tovarlarni ishlab chiqarish, bu tovarlarni qanday qilib ishlab chiqarish (qaysi omillardan va qaysi texnologiyalar yordamida), kim uchun, iste'molchi kimligidan qat'i nazar, tovar shaxsiy iste'mol uchunmi yoki daromad olish uchun ishlab chiqarilishini o'zlari hal qiladilar.

Bozorning ishi deyilganda bozorning majburiyati, vazifasi, roli nazarda tutiladi. Bozorning bu majburiyatlari jamiyatning iqtisodiy maqsadlaridan kelib chiqadi.

Bu maqsadlar quyidagilardan tashkil topadi:

iqtisodiy o'sishni ta'minlash, har bir odamning talablarini katta miqdor va hajmdagi, sifatli tovarlar ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish vositasida qoldirish;

iqtisodiyotning samaradorligi yoki mavjud omillardan minimal xarajatlar qilib, maksimal samara (foyda) olish;

xo'jalik subyektlari: ishlab chiqaruvchilar, tadbirkorlar, xodimlarning iqtisodiy erkinligi va ishlashni xohlovchi va bunga qobillarning hammasini to'liq bandligi;

narxlar va baholar, ularning umumiy darajasini sezilarli darajada ko'tarilmagan yoki tushirilmagan, ya'ni inflyatsiyasiz va defetsitsiz optimal darajasi;

jamiyatning ishlovchi va ishlamovchi a'zolari (ishlashga qobiliyati yo'q, kasal, qariyalar) o'rtasida daromadlarning adolatli taqsimlanishidir.

Bozorning normal ishlashi va jamiyat uning oldiga qo'ygan iqtisodiy maqsadlarni real amalga oshirish uchun bir qator *shart-sharoitlarni* ta'minlash zarur. Bular:

1. Bozor, tovar-bozor munosabatlari faqat xususiylashtirilgan mulk asosidagina, tovar ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqarish vositalarining egasi bo'lib, o'z mehnati natijalarini erkin tasarruf eta olgandagina amalga oshirilishi mumkin.

2. Ijtimoiy ishlab chiqarishda barcha ishtirokchilarning ishlab chiqarish va tijorat sohalarida erkinligi zarurdir.


3. Qat'iy va avtoriter valutaning mavjud bo'lishi.

4. Kredit va moliya munosabatlarining aniq yo'lga qo'yilgan va ishlab turgan tizimi.

5. Ishlab chiqaruvchilar va boshqaruv xodimlarining bozor munosabatlariga tashkiliy ravishda va ishonchli qo‘shilib ketish mahorati.

### **Bozor iqtisodiyotida narxning vazifasi.**

Bozor iqtisodiyotida narxlar quyidagi vazifalarni bajarishadi:



*5-sxema.*

**Taqsimlash vazifasi** — eng muhimdir. U shundan iboratki, narxlar tovarlarning sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi taqsimlanishiga ta‘sir qiladi. Uy-joy uchun ijara haqining baland bo‘lishi uylarda yashovchilarni kambag‘allashtirsa, uy egalarini boyitadi, shuning uchun narxlarning bu vazifasi turli xildagi tartibga soluvchi mezonlarning ta‘siriga eng ko‘p tushishiga ajablanarli xol emas.


Narxlar iqtisodiyotda boshqa vazifani ham bajaradilar. Narxlar iste‘mol talabini mo‘l-ko‘l bo‘lgan tovarlarga yo‘naltirib, uni o‘ta tanqis tovarlardan uzoqlashtirib turadilar. Agar, aytaylik, yoqilg‘ining bir turining zaxiralari tugayotgan, shu bilan bir vaqtda mahsulotning ikkinchi turi hali keragidan ortiqcha bo‘lsa, ikkinchisiga qaraganda birinchisining narxining oshishini kutish lozim bo‘ladi. Bu firmalarni va yakka tartibdagi iste‘molchilarni yetishmayotgan yoqilg‘i turidagi zaxirasi yetarli bo‘lgan yoqilg‘iga o‘tishiga majbur qiladi. Yirik firmalar o‘z uskunalari ni qayta qurib oladilar, yangidan qurilgan uylarning isitish tizimi arzon yoqilg‘ini ishlatishga mo‘ljallantiriladi.

Bozor xo‘jaligida aniq korxonalar yoki firma mahsulotni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining hisob-kitobiga shu mahsulotning bozordagi raqobat natijasida qo‘yiladigan narxi qarama-qarshi turadi. Ularning keyingisi sotuvchi va xaridor o‘rtasidagi

erishilgan kelishuv (kompromiss) bo‘lgan talab va taklifning nisbatining narxda aks ettirilishiga olib keladi.


Shuni ham ravshanki, bozor ijobiy natija bera olmaydigan joyda davlatning aralashishi talab qilinadi.

Hozirgi zamon iqtisodiyotidagi narxlar tizimi juda murakkab, lekin detallashtirilishdan qochilsa, uning asosiy uchta turini keltirish mumkin.



6-sxema.

Bozor iqtisodiyoti davrida davlat narxlari belgilanishi mumkin bo‘lgan mahsulotlar.



Davlat narxlari tizimi ikki elementdan iborat

Hukumat tomonidan qat’iy belgilab qo‘yiladigan chegaralashni hisobga oluvchi qayd qilingan narxlar

Tartibga solinuvchi narxlar, bozor konyunkturasining o‘zgarishi. (Narxning eng katta chegarasi darajasini yoki uning qayd qilingan darajasidan chekinishni belgilash)

7-sxema.

**Shartnomaviy narxlar** — bu sotuvchi va xaridorning kelishuvi bilan belgilanadi, ya’ni faqat ushbu tovarga bo‘lgan talab va taklifni hisobga oluvchi narxlardir. Shartnomaviy narxlarning

solishtirma ogʻirligi ushbu mamlakat iqtisodiyotining, «bozoriylashganlik» darajasini belgilab boradi.

**Jahon baholari** mintaqaning oʻziga xosligini, sharoitlarini va tijorat bitishuvlari vaqtini aks ettirib, xalqaro savdoda qoʻllaniladi. Shuning uchun jahon narxlarining hisob-kitobi eng yirik eksport-import amallari bazasida (asosida) oʻtkaziladi.

**Narxlar darajasi** — mamlakatda ishlab chiqarilgan va koʻrsatilgan xizmatlar uchun toʻlangan narxlarning oʻrtacha (bosiq) kattaligidir.

Narxlarning darajasi indeks shaklida ifodalanadi. *Indeks esa mazkur davrdagi tovar va xizmatlarning maʼlum toʻplami narxlar yigʻindisining bazis davridagi aynan shu (yoki oʻxshash) guruh tovarlari va xizmatlar narxlarining yigʻindisi oʻrtasidagi nisbati sifatida taʼriflanadi.*

### **Nazorat savollari:**

1. Hozirgi zamonaviy bozor xoʻjaligiga, bozorga taʼrif bering.
2. Bozorning klassik modeli xususiyatlarini sanab bering.
3. Bozor xoʻjaligi tuzilmasining subyekt-obyekt tuzilmasini tushuntirib bering.
4. Bozor tuzilmasini tasniflashini tushuntiring.
5. Bozor infratuzilmasi nima?
6. Bozor mexanizmi nima?
7. Zamonaviy bozor iqtisodiyotda narxlarning vazifalarini aytib bering.
8. Narxlarning turlarini sanab bering.
9. Narxlarning darajasi nima va nima uchun uni hisoblash zarurati tugʻiladi?
10. Davlat 1 tonna koʻmir uchun 12000 miqdorda maksimal narx belgiladi. Ishlab chiqaruvchilarning bunga javobi qanday boʻladi?
11. Davlat bir metr gazlama uchun minimal narx darajasini 600 soʻm qilib belgiladi. Talab va taklif nazariyasi doirasida gazlama bozorida vaziyat qanaqa boʻladi?
12. Aholining daromadlari 7 marta oʻsadi. Bu koʻrsatkich talab dinamikasini bashorat qilish uchun yetarli boʻladimi?

### 7.1. BOZOR TAVSIFI

Bozorning eng eski shakli — an'anaviy bozor — bu sotuvchilar va xaridorlar bitishuvlarni amalga oshiruvchi joydir. Bizning ko'pchilik shaharlarimizda oldi-sotdi amalga oshiriladigan maydonlar va binolar haligacha mavjuddir.

Biroq hozirgi dunyoda bozor juda ko'p shakllarga ega. Bozorni xaridorlar va sotuvchilarga bitishuv baholarini belgilash va almashinuvni o'tkazish mumkin bo'lgan tarzda tuzish imkonini beruvchi har qanday tuzilma sifatida ta'riflash afzalroqdir.

Oldingi vaqtlarda ko'pchilik bozorlar mahalliy bo'lgan. Odamlar asosan o'zlarini-o'zlari ta'minlaganlar, boshqalardan esa juda kam narsa sotib olganlar.

Bugungi kunda ichki (milliy, bir davlat doirasidagi) va tashqi bozorni farqlash kerak bo'ladi.

Transport va aloqaning takomillashuvi, shuningdek, reklamadan foydalanish bir tomondan, jahon iqtisodiyotining ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarilayotgan tovarlarga o'sib borayotgan talab ikkinchi tomondan, ko'plab tovarlar uchun baynalmilal bozorlarning tuzilishiga olib keldi.

Hozirgi zamon iqtisodiy tizimida jahon bozorlari shakllangan. Turli mamlakatlarning yetakchi ishlab chiqaruvchilarining nomlari butun dunyoga yaxshi ma'lum. Kauchuk, neft, bug'doy, qand, kofe va choy kabi xomashyolar ko'p yillardan buyon aynan shu bozorlarda sotilmoqda.

Ishlab chiqarishning nima ishlab chiqarish kerak, qanday ishlab chiqarish kerak, kim uchun ishlab chiqarish kerak, kabi asosiy muammolari talab va taklif mexanizmi orqali hal qilinadi.

Ishlab chiqarilgan yoki taklif etilayotgan tovarning har bir turi boshqa bozorlardan ishlab chiqarish omillari bilan farqlanuvchi o'z bozorida sotiladi.

Ishlab chiqarish omillari bo'yicha quyidagilarni ajratish qabul qilingan:

- Mehnat bozori (bozor munosabatlari sharoitida ish kuchi tovarga aylanadi).

- Yer bozori (agar yer tovar hisoblangan taqdirda).
- Pul kapitali bozori.
- Ko'chmas mulk bozori.
- Xomashyo bozori va hokazolar.

## 7.2. BOZOR SHAKLLARI

Ishlab chiqaruvchilar soni o'rtasidagi nisbat va ular orasidagi raqobatning mavjudligi va iste'molchilarning soniga bog'liq ravishda bozorlarning quyidagi modellarini farq qiladilar:

**1. Polipoliya** (takomillashgan raqobat) — bir xil tovarning o'ziga sotuvchi va xaridorlar sonining kattaligi. Qaysidir sotuvchining tovarga qo'ygan narxdagi o'zgarishlari boshqa sotuvchilar orasida emas, faqat xaridorlar o'rtasidagina tegishli javob (reaksiya)ni vujudga keltiradi.

*Muhim o'ziga xos tomonlari.* Bozor har kim uchun ochiq. Bozorda hamma harakatlar ochiq ravshan amalga oshiriladi, amallarni bajarish jarayoni hech kimdan sir tutilmaydi. Narx — berilgan kattalik bo'lib, har bir sotuvchi va xaridor mahsulotning narxi, miqdori, xarajatlar va bozordagi talab haqida to'liq va haqqoniy axborotga ega bo'ladilar.

Biroq real mavjud bo'lgan bozorlarning birortasi sanab o'tilgan xususiyatlar bilan ajralib turmaydi. Shuning uchun takomillashgan raqobat sxemasi asosan nazariy ahamiyatga ega. Shunday bo'lsa-da, u o'ziga qaraganda ancha realroq bo'lgan bozorlar tuzilmasini tushunish uchun kalitdir. Uning qiymati, ahamiyati ham aynan shundadir.

**2. Monopoliya** — bitta sotuvchi ko'p xaridorlarga qarshi tursa-da, bunda shu sotuvchining o'zi mahsulotning yagona ishlab chiqaruvchisidir.

*Muhim o'ziga xos xususiyatlari:* monopolist bozor hokimiyatiga ega bo'ladi, narxlarni, bozorga mahsulot yetkazib berilishini nazorat qiladi. Bozorga kirish yo'lida monopolist tomonidan raqobatchilar uchun kelib chiqishi tabiiy yoki notabiiy bo'lgan to'siqlar qo'yiladi.

**3. Oligopoliya** — nisbatan uncha katta miqdorda (o'n nafar atrofida) bo'lmagan sotuvchilar tovarlar va xizmatlar bozorida hukmronlik qiladilar.

*Muhim o'ziga xos xususiyatlari:* sotuvchilarning unchalik ko'p emasligi ularning narxlarni belgilash, bozorlarni bo'lish va taqsimlashda monopolistik kelishuvlar qo'l keladi. Oligopoliyalar



turdosh bo'lganidek differensiyalangan tovarlarni ham ishlab chiqarish mumkin. Turdoshlik xomashyo va ruda, neft, po'lat, sement va hokazolarni yarim fabrikatlari bozorida, differensiyalash iste'mol tovarlari bozorida ko'proq uchraydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, taqdim etilgan modellardan biror-tasi iqtisodiyotda sof holda uchramaydi. Ammo uchalasi har biri o'z darajasida, zamonaviy bozorlarga xosdirlar.

**Bozorni tashkil qilish shakllari** bo'yicha mustaqil asosni belgilovchi va rol o'ynovchi xo'jalik yuritish jihatdan mustaqil tashkilotlarni ko'rsatish lozimdir. Bularga:

**1. Birjalar** — umumiy bozorni segmentlari sifatida ochiq oldi-sotdi yo'li bilan talab va taklifni muvozanatlashtirish. Tovarlar va xomashyo omillari bozorini tartibga solish, unifikatsiyalash (bir xillashtirish), bozorni rivojlantirish va iqtisodiy indikatorlar (bozorlarda turli iqtisodiy ko'rsatkich va hokazolarning ko'tarilishi yoki pasayishi) funksiyalarini rag'batlantirish vazifalarini bajaradilar.

**2. Auksionlar** — (lotincha auctio — ommaviy savdoda) — individual faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlarga va qiymatga ega bo'lgan tovarlarni sotish demakdir. Sotuvchi eng katta foyda olish uchun savdoda qatnashayotgan xaridorlarning raqobatidan foydalanadi.

**3. Ko'rgazmalar** — reklama faoliyatini yo'lga qo'yish potentsial iste'molchilarga yangi mahsulot uni qo'llash sohalari va sotib olish imkoniyatlari haqida axborot berish, ishlab chiqaruvchilar o'rtasida xo'jalik aloqalarini oqilona yo'lga qo'yishga yordam beruvchi tijorat axborotini almashish uchun o'tkaziladi.

**4. Yarmarkalar** — ma'lum bir davr oralig'ida, vositachilar, tashkilotlar vakillari ishtirokida, manfaatdor aniq sotuvchilar va xaridorlarning bu yerda taqdim etilgan tovarlarga kontraktlar va bitishuvlar tuzishlari uchun o'tkaziladigan tadbirlardan iboratdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Ichki va tashqi bozor o'rtasida qanday asosiy farqlar bor?
2. Bozorlarning ishlab chiqarish belgilari bo'yicha tasniflanishidan kelib chiqib uylar, neft, g'alla, bug'doy, guruch sotiladigan bozorlarni aytib bering.
3. Siz bozorlarning qaysi modellarini bilasiz?

## 8 - B O B. NORAQOBAT BOZORLARDA SOF RAQOBAT MODELIDA NARX BELGILASH

---

### 8.1. NARX BELGILASH. NARX BO‘YICHA EGILUVCHANLIK

Iqtisodda, «qiymat», aynan almashinuvdagi qiymat so‘zi alohida ma’noga ega. Boshqacha qilib aytganda, narsa, buyumning qiymati uni almashtirish mumkin bo‘lgan predmetlar orqali ifodalanadi.

Pulda ifodalangan baho (narx) almashish qiymatining o‘lchovidir. U ushbu buyum boshqalarga nisbatan qancha turishini ko‘rsatadi.

Biz sotib oladigan ko‘pchilik tovarlarning narxini bozor omillari, ya’ni talab va taklif belgilaydi. Taklif — bu ishlab chiqaruvchi tovarlarni sotishga chiqarishga tayyorligi va imkoniyati, talab esa — bu odamlarning ushbu tovarlarni sotib olishga tayyorligi va imkoniyatlaridir.

#### **Talab.**

Iqtisodiyotda «talab» so‘zi tovar yoki xizmatni xarid qilish, qo‘lga kiritish istagi, shuningdek, ular uchun haq to‘lashga tayyorgarlik va imkoniyat ma’nosini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, tovar yoki xizmatning taklifi faqat ularga talab bo‘lgan paytdagina mavjud bo‘ladi.

**Talab** — bu mahsulotning iste’molchilar ma’lum bir narxlarida, vaqtning ma’lum bir davrida sotib olishga tayyor bo‘lgan miqdoridir.

Narx va xaridorlar miqdori o‘rtasida bog‘liqlik borligini payqash qiyin emas, ya’ni tovarning narxi qancha past bo‘lsa, u shuncha ko‘p miqdorda sotib olinishi mumkin. Bu bog‘liqlikni iqtisodiyot nazariyasida talab qonuni deb ataydilar.

Tajriba uncha katta bo‘lmagan istisnolardan tashqari hollarda talabning hajmi narx pasayganda oshishini ko‘rsatmoqda. Odatda, bu «talab qonuni» sifatida bunday shakllanadi: boshqa sharoitlar bir xil bo‘lganida past narxlarda talab hajmi yuqori narxlardagiga qaraganda ko‘proq bo‘ladi.


«Boshqa sharoitlar teng, bir xil bo‘lganda» — bu qoidaning muhim qismidir. Biz bir qadar ishonch bilan tovarning narxi tushganida unga bo‘lgan talab ko‘proq bo‘ladi, deb ta’riflashimiz mumkin, lekin biz bunda boshqa omillarning o‘zgarmay qolishi-

ga yo‘l qo‘ygan holdagina yuqoridagi fikrni tasdiqlashimiz mumkin. Agar tovarning narxi tushib boraversa, iste‘molchilarning daromadlari, ularning didlari yoki boshqa tovarlar narxlari ham o‘zgarib borsa, narxni pasaytirishning oqibatlari nimaga olib kelishini oldindan aytish qiyin bo‘lib qoladi.

Shuning uchun biz narxni o‘zgarishi talabning hajmiga ta‘sir qilishi haqida gapirganimizda doimo bunda boshqa omillar o‘zgarmay qolishini nazarda tutishimizni yodda saqlashimiz muhimdir.

a) talabning qiyshiq chizig‘i

(b) talab shkalasi



8-sxema.

### Talab egri chizig‘ining shakli.

Talabning egri chizig‘i — nuqtalari xaridor ma‘lum vaqt davomida tovarlarning turlicha miqdorini qaysi narxlarda sotib olishlari mumkinligini ko‘rsatuvchi qiyshiq chiziqdir.

Nimaga talabning egri chizig‘i pastga chapdan o‘ngga qarab yo‘naltirilgan? Nima uchun odamlar tovarlarni uning narxi tushganida ko‘proq oladilar va nega bahosi oshganida kamroq xarid qiladilar? Talabning egri chizig‘i nega bunday shaklga ega ekanligini bir nechta izohi bor. Biz narxning o‘zgarishining ikkita natijasi bilan bog‘liq bo‘lgan oddiy izohni ko‘rib chiqamiz.

Agar ushbu tovarning narxi tushayotgan bo‘lsa, iste‘molchilarning daromadlari va boshqa tovarlarning baholari esa o‘zgarmay qolayotgan bo‘lsa, unda iste‘molchilarning turmush darajasi ko‘tariladi: demak, endi ushbu tovarni boshqa tovarlar hisobiga emas, aynan uning narxi pasaygani sababli ko‘proq sotib olish mumkin.

Biz qaysidir buyumni sotib olayotganimizda ularning qaysi birini tanlashimizga to'g'ri keladi, chunki ko'pchilik tovarlarning ularga yaqin bo'lgan, ularning o'rnini bosa oladigan o'zaro raqobatlashadigan tovarlar bor. Shuning uchun, tovarning narxi pasayganida, uning o'rnini bosuvchi tovar narxlari bilan solishtirganda, ancha jozibador ko'rinadi. Mazkur tovarga talab hajmi iste'molchilar bu tovarlarning o'rnini bosuvchilarning narxlari nisbatan qimmat bo'lib qolgani uchun o'rin bosuvchi tovarlarni olmay qo'yanliklari sababli oshib ketadi.

Tovar narxining ko'tarilishi teskari natijalarga olib keladi.

**Taklif.**

Taklifning hajmi tovarning mavjud zaxirasi haqida dalolat bermaydi: bunda sotishga taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovarning miqdori nazarda tutiladi.


*Taklif ma'lum bir narx bo'yicha, ma'lum bir vaqt davomida sotish uchun taqdim etiladigan tovarning miqdori sifatida ta'riflanadi.*

Narx va taqdim qilinayotgan mahsulotning miqdori o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'lanish bor, ya'ni tovarning narxi qanchalik past bo'lsa, u shuncha ko'p miqdorda ishlab chiqariladi va sotishga taklif qilinadi va aksincha.

Sotishga chiqarilgan tovarning miqdori xaridor to'lashga tayyor bo'lgan narxlarga bog'liqdir. Fermerlar bozor narxlarini past deb hisoblaganlarida, ba'zan ular sabzavot, mevalarni bozorda sotmasdan yerga ko'mib tashlaydilar. Bunday hollarda ishlab chiqarilgan sabzavot va mevalar taklifning bir qismi bo'lmaydilar, chunki ular sotishga taqdim etilmagan bo'ladilar.

a) taklifning egri chizig'i

(b) taklif shkalasi



9-sxema.

Iqtisodiyotning yana bitta qonunida bunday deyiladi: baholar yuqori bo'lganda taklifning hajmi narxlar past bo'lgandagiga qaraganda kattaroq bo'ladi.

### **Taklifning egri chizig'i.**

Taklifning egri chizig'i — sotuvchilar turli narsalar va ma'lum vaqt ichida sotishga taklif qiladigan tovarlar va xizmatlarning miqdorini ko'rsatuvchi egri chiziqdir.

Taklifning egri chizig'ini shakli firmalarning maksimal darajada foyda olishga intilishlari bilan aniqlanadi. Bunday talqin taklifning egri chizig'i nima uchun chetdan o'nga qarab tepaga yo'naltirilganligi, ya'ni nima uchun firmalar ko'proq mahsulotlarni yuqoriroq narxlarda taklif qilishga tayyor ekanliklarini tushunishga yordam beradi.

Agar ushbu tovarga talab oshsa, u ancha kam topiladigan bo'ladi va uning narxi ham ko'tariladi. Taklifning hajmi oshadi, chunki o'sib borayotgan foyda ishlab chiqarishning o'sishini rag'batlantiradi. Ancha baland bo'lgan narxlar va foyda bu tarmoqqa boshqa firmalarni ham jalb etadi.

### **Bozor narxi (muvozanat narxi).**

Agar biz talab va taklif egri chiziqlarini bitta diagrammaga yig'sak, ular bozor narxi yoki muvozanat bahosini ifodalovchi bitta nuqtadagina kesishishini ko'ramiz. Demak, shu narxdagina talabning kapitali taklifning kattaligiga teng bo'ladi.

Muvozanat yoki bozor narxi asta-sekin o'rnatiladi. Agar oldi-sotdi bozor bahosi emas, boshqa narxlarda tovarning ortiqchaligi yoki yetishmasligi ro'y beradi, bu esa narxlarning o'zgarishiga olib keladi va bu narxlar muvozanat darajasida to'xtamagunicha davom etaveradi.

## **8.2. TALAB VA TAKLIFNING O'ZGARISHI HAMDA NARXGA TA'SIRI**

Talab egri chizig'i boshqa omillar o'zgarmay qolib, narx o'zgariganida talabning hajmi bilan nimalar ro'y berishini ko'rsatadi.

Biroq real hayotda talab shartlari deb ataluvchi mana shu «boshqa omillar» ham, albatta o'zgaradi. Bu shartlarning o'zgarishi bilan talabning egri chizig'i ham o'zgaradi.

«Talabning o'zgarishi» termini taklif va talab muammolarining o'rganishni endi boshlaganlarni boshi berk ko'chaga ro'para qilib qo'yadi. Afsuski, uni talab egri chizig'idagi siljishini bilgandek, talab egri chizig'ining o'zini ham, ko'chishini ta'riflash uchun ham tez-tez qo'llaydilar.

Talabning oshishi talab egri chizig'ining o'ngga ko'chishini bildiradi va bu talabning har qanday narx qo'yilganida ham o'sishga olib keladi.

*Talabning kamayishi talab egri chizig'ining chapga ko'chishini bildiradi va bu har qanday narxda ham talabning pasayishiga olib keladi.*

**Talab egri chizig'ining ko'chishi sabablari.**

***Daromadlarning o'zgarishi.***

Ko'pchilik holatlarda aholining real daromadlarining o'sishi tovarlar va xizmatlarga talablarning oshishiga, uning pasayishi esa talabning tushishiga olib keladi. Qat'iy qilib aytganda, talab soliqlar olingandan so'nggi daromadga bog'liq. Daromad solig'i va ijtimoiy ta'minot bo'yicha nafaqalar miqdorining o'zgarishlari talabning hajmi va talabning egri chizig'ining holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadilar. Biroq shunday ham bo'ladiki, real daromadning oshishi qandaydir tovarga yoki xizmatga bo'lgan talabning tushishiga olib kelishi mumkin. Ba'zida tovarlar quyi toifaga mansub bo'ladilar, chunki real daromadlar oshganida ularni kamroq sotib oladilar. Qanday tovarlarning «quyi toifa»ga kiritilishi aholining turmush darajasiga bog'liqdir.

Real daromadlarning oshishi quyi toifadagi tovarlarga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi.

***Boshqa mahsulotlar narxining o'zgarishi.***

Ma'lumki, ko'plab tovarlar o'zlariga yaqin, ularning o'rnini bosa oladigan tovarlarga ega. Ulardan birining narxini o'zgarishi uning o'rnini bosuvchilarga bo'lgan talabga ta'sir qiladi. Qaysidir nav narxning o'sishi, shubhasiz, boshqa navlarga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi.

*O'zaro bir-birini to'ldiruvchi tovarlar.* Bunday tovarlarga talab bir vaqtda taqdim etiladi, chunki ularning bittasini qo'llash ikkinchisini ham ishlatishni taqozo etadi. Masalan, fotoapparat va tasma (plyonka), avtomobil va benzin. Bunday hollarda ulardan biriga bo'lgan talab u bilan qo'shib ishlatiladigan tovar narxining o'zgarishiga bog'liq bo'ladi.

Haqini ma'lum muddat davomida to'lash sharti bilan qilinadigan xarid.

Uzoq vaqt davomida foydalaniladigan ko'p tovarlar esa uni ma'lum muddat davomida to'lab borish sharti bilan xarid qilinadi. Ularga bo'lgan talab bunday savdo qanday shartlar asosida qilinayotganiga sezilarli darajada bog'liqdir. Agar bu sharoitlarni qabul qilish xaridor uchun qulay bo'lsa, badallar kamayti-


riksa, ssudani qaytarish muddati uzaytirilsa, ko‘plab tovarlarga bo‘lgan talabning qiyshiq chizig‘i o‘ng tomonga ko‘chadi. Agar ma‘lum muddatda haqini to‘lash sharti bilan tovar sotishdagi sharoitlar xaridorlar uchun kamroq qulayliklarga ega bo‘lsa, teskari vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

### Talabning oshishi

DD — talabning boshlang‘ich egri chizig‘i OR — muvozanat nomi, OQ — talab va taklifning hajmi deb faraz qilamiz. Talab oshganida egri chiziq  $D_1D_1$  tomonga ko‘chadi. Bu mavjud narx qolgan tovarning taqchilligini keltirib chiqaradi, chunki OR, narx bo‘lganida endi talabning hajmi taklifning hajmidan kattaroqdir.

DD va chiziq lari o‘rtasidagi gorizonta l punktir chiziq bilan belgilangan taqchillik narxn ing oshishiga olib keladi. U oshib borgan sari taklif o‘sib boradi. Bu yangi muvozanat narxi OR, o‘rnatilguncha davom etadi. Ushbu narx o‘rnatilgach, talabning kattaligi ( $OQ_1$ ) taklifning hajmi ( $OQ_1$ )ga teng bo‘ladi. *Boshqa bir xil sharoitlarda talabning oshishi narxn ing va taklifning o‘shishiga olib keladi.*

### Talabning o‘zgarish oqibatlari





10-sxema.

### Talabning kamayishi

Bu holatda  $D_1D_1$  — boshlang‘ich egri chiziq, OR, —

muvozanat narxi  $OQ_1$  talab va taklifning hajmi deb faraz qilamiz. Talab kamayganda egri chiziq  $DD$  tomonga ko'chadi. Bu mavjud bo'lgan narxdan tovarning tanqisligini keltirib chiqaradi, chunki  $OR$ , narx o'rnatilganida talabning hajmi endi taklifning hajmidan kam bo'ladi. Narxlar shkalasida qalin chiziq bilan ko'rsatilgan bu ortiqchalik narxning tushishiga olib keladi. U tushib borgan sari taklif yangi muvozanat narxi  $OR$  o'rnatilgunicha kamayib boradi. Bunday narx o'rnatilgach talabning hajmi ( $OQ$ ) taklifning hajmi ( $OQ_1$ ) ga teng bo'ladi.

*Boshqa bir xil sharoitlarda talabning susayishi narxning va taklifning pasayishiga olib keladi.*



11–12-sxemalar.



### Taklifning o'zgarishi.

Taklifning egri chizig'idagi ko'chishlar boshqa omillar o'zgarmay qolganida narxning o'zgarganligi tufayli sodir bo'lgan. Taklif hajmining bunday o'zgarishlari uning kengayishi yoki qisqarishi deb ataladi.


(a) narxning o'zgarishi taklifning o'zgarishiga olib keladi.

(b) taklif egri chizig'ining  $SS$  dan  $S_1S_1$  ga ko'chishi taklifning oshganligini ko'rsatadi, uning  $S_1S_1$  dan  $SS$  ga surilishi esa taklifning kamayganidan dalolatdir.

Taklif egri chizig'ining ko'chishini taklifning shart-sharoitlari o'zgarishi yuzaga keltirib, bu qo'shimchalar esa taklifning oshishini yoki kamayishini ko'rsatadi, aks ettiradi.

### Taklifning egri chizig'idagi ko'chishlar.

Narx



13-sxema.

Narx  $OR_1$  dan  $OR$  gacha oshganida taklifning hajmi  $OQ_1$  dan  $OQ$  gacha oshadi (taklifning kengayishi). Narx  $OR$  dan  $OR_1$  gacha tushganida taklifning hajmi  $OQ$  dan  $OQ_1$  gacha kamayadi (taklifning qisqarishi)

### Taklifning egri chizig'ining ko'chishi

Agar  $SS$  taklif egri chizig'ining boshlanishi,  $S_1S_1$  tomonga harakat taklifning oshganini bildiradi, endi har bir narx bo'yicha ko'proq tovarlar taklif qilinadi.  $S_1S_1$  taklifning egri chizig'ining boshlanishi deb faraz qiladigan bo'lsak,  $SS$  tomonga harakat taklifning kamayishini bildiradi, chunki endi har bir narx bo'yicha kamroq tovar taklif qilinadi.

### Talab va taklifning egiluvchanligi

Talabning egiluvchanligi — bu sotish miqdorining narxning o'zgarishiga bog'liqligidir.

### **Talabning narx bo'yicha egiluvchanligi**

Talabning **narx bo'yicha** egiluvchanligi tovar narxining o'zgarishiga xaridorlar talabi kattaligini javobini ifodalaydi.

Quyidagilarni farqlaydi:

**Egiluvchan talab**, narx pasayganda talab keskin o'sadi, sotishlar soni va umumiy tushum ko'payadi.

**Birlamchi egiluvchanlik**, narxning pasayishi sotishlar sonini oshishi bilan qoplanadi va umumiy tushum o'zgarmay qoladi.

**Noegiluvchan talab**, bunda narxning pasayishi sotuvlar hajmining sezilmaydigan darajada o'zgartiradi. Umumiy tushum pasayadi.

### **Daromad bo'yicha talabning egiluvchanligi**

Daromad bo'yicha talabning egiluvchanligi tovarga talab hajmining va iste'molchilar daromadining nisbiy o'zgarishlari o'rtasidagi nisbat bilan belgilanadi.

Ko'pchilik tovarlar uchun daromad bo'yicha egiluvchanlik isbotidir. Lekin ma'lum bir holatlarda, daromadning oshishi sotib olingan ne'matlar miqdorining kamayishi bilan qo'shilib kuzatilganda, u salbiy ham bo'lishi mumkin.

### **Taklifning egiluvchanligi**

Taklifning egiluvchanligi — bu narxning nisbiy o'zgarishi va qaysi tovarning taklif qilinayotgan miqdorining nisbiy o'zgarishi o'rtasidagi nisbatdir.

Iqtisodiyot nazariyasida ishlab chiqaruvchilarda mavjud bo'lgan muvozanat imkoniyatlarga bog'liq bo'lgan muvozanatning uch tipini farqlaydilar:

**lahzalik muvozanat** — taklif o'zgarmaydi, firmada taklifni o'zgartirish uchun vaqt yo'q,

**qisqa muddatli muvozanat** — taklif o'sadi, lekin korxonalar soni o'zgarmaydi,

**uzoq davom etadigan muvozanat** — korxonalar soni, foydalaniladigan omillar hajmi o'zgaradi.

## **8.3. NORAQOBAT BOZORLARDA NARX BELGILASH**

Raqobatlashgan bozorda firma maksimal foyda oladi, agar u chekli daromad chekli xarajatga teng holatni ta'minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsa,


$$MR=MC$$

Bunday mahsulot hajmi optimal bo'ladi. Monopolist ham shu optimal ishlab chiqarish shartiga amal qilishi kerak bo'ladi.

Sof monopolist tovariga boʻlgan talab ham bozor talabi hisoblanadi. Onopolist oʻz tovari narxini oshirsa unga talab kamayadi va aksincha, monopolist tovar narxini tushirsa unga talab ortadi. Xuddi shunday sof monopolist taklifi ham bozor taklifi hisoblanadi. Taklif hajmining qisqarishi va xaridorlar oʻrtasida raqobatning mavjudligi tovar narxini oshiradi.

Raqobatlashgan bozorda firmaning chekli daromadi mahsulot narxiga teng  $MR=P$  talab chizigʻi gorizontall boʻlsa, monopol bozorda monopolist mahsulotiga boʻlgan talab chizigʻi pastga yotiqroq va monopolistning chekli daromadi har doim narxdan kichik boʻladi.

$$MR < P$$



14-sxema. Sof monopoliyada firmaning mahsulotiga talab, uning chekli va umumiy daromadi.

Monopol firmaning mahsulotiga talab bilan uning chekli va umumiy daromadi o'rtasidagi bog'liqliklarni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.

Talab chizig'ining elastik qismida chekli daromad  $MR > 0$  bo'lgani uchun monopolist mahsulot hajmini noldan  $Q^*$ , miqdorgacha oshirganda uning umumiy daromadi  $TR$  daromadi oshadi. Talab chizig'ining elastik bo'lmagan qismida chekli daromad manfiy, ya'ni  $MR < 0$  bo'lgani uchun, talab chizig'ining ushbu qismida ishlab chiqarilgan mahsulot umumiy daromadni kamaytiradi. Shuning uchun ham monopolist talab chizig'ining elastik bo'lmagan qismidan qochishga harakat qiladi.

Agar monopolistning talab chizig'i raqobatlashgan bozordagiday gorizontaal bo'lganda edi, u tovar hajmini o'zgartirishi bilan narxga ta'sir qila olmas edi. Monopollashgan bozorda taklif chizig'i ma'noga ega emas. Nima uchun deganda, ishlab chiqariladigan mahsulot (taklif) miqdori bilan narx o'rtasida proporsional boqliqlik yo'q. Monopolistning qancha miqdorda mahsulot ishlab chiqarishi nafaqat chekli xarajatga boq'liq, balki talab chizig'ining shakliga ham boqliq bo'ladi.

Monopolistning maqsadi maksimal foyda olish bo'lsa, u tovar narxini xohlagancha oshira olmaydi. Narx oshishi bilan mahsulotga talab kamayib boradi, narx oshishi ma'lum darajaga yetganda umumiy daromad umumiy xarajatni qoplaymaydi. Monopolist qanday narx strategiyasini tutishini bilish uchun daromadning narxga ko'ra talab elastikligi bilan qanday boqliqligini eslash zarur bo'ladi. Talab chizig'ining elastik bo'lgan qismida ( $E_p > 1$ ) narxning pasayishi umumiy daromadni o'sishiga olib keladi, elastiklik birga teng bo'lganda umumiy daromad maksimumga erishadi ( $MR = 0$ ), elastik bo'lmagan qismida narxning pasayishi umumiy daromadni pasayishiga olib keladi. Shuni tushungan monopolist talab chizig'ining elastik bo'lmagan qismida harakat qilmaydi.

Monopolist ham raqobatlashgan bozordagi firma kabi chekli harakat bilan chekli daromadni tengligini ta'minlaydigan hajmda mahsulot ishlab chiqarsagina maksimal foyda olishi mumkin (14-sxema). Rasmda monopolistning o'rtacha daromad chizigi biror talab chizig'ini beradi. Mahsulot narxi shu mahsulot ishlab chiqarish hajmiga boq'liq funktsiya.

Grafikdan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish hajmi  $Q^*$  ga teng bo'lganda chekli xarajat chekli daromadga teng bo'ladi. Talab chizig'idan foydalanib mahsulot hajmi  $Q^*$  ga mos bo'lgan

bir birlik mahsulotning monopol narxi  $P^*$  narxi ni aniqlaymiz. Ushbu ga teng bo'lgan mahsulot hajmida foyda maksimal bo'lishini ko'rsatamiz. Ma'lumki, raqobatlashgan bozorda muvozanatlik  $E$  nuqtada erishiladi. Grafikda  $E$  Grafikda nuqta muvozanat nuqta va unga mos keladigan ishlab chiqarish hajmi  $Q_e$  va narxi  $P_e$ .

### **Nazorat savollari**

1. Talabning egiluvchanligi nima?
2. Talabning egiluvchanligini qanday qilib o'lchasa bo'ladi?
3. Taklifning egiluvchanligi nima?
4. Taklifning egiluvchanligini qanday o'lchash mumkin?
5. Xaridorlar va sotuvchilarga bitishuvlar tuzishga beruvchi tuzilma nima deb ataladi?
6. Narx pasayganida odamlar ko'p miqdorda tovar sotib olishlarining ikkita sababini keltiring.
7. Talab qonunining mazmunini ochib bering.
8. Taklif qonunining mazmunini ochib bering.

### 9.1. IQTISODIY TIZIMLAR. BOZOR IQTISODIYOTI

**Iqtisodiy tizim** — ma'lum bir jug'rofiy hudud doirasidagi ishlab chiqarish, daromad va iste'molga taalluqli qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish uchun foydalaniladigan mexanizmlar va institutlarning yig'indisi (qo'shilmasi)dir.

**Iqtisodiy tizim** — iqtisodiy jihatdan o'zini o'rni va natijalarga to'g'ridan-to'g'ri va bevosita ta'sir qiluvchi hamma institutlar, tashkilotlar, qonun-qoidalar, an'analar, e'tiqodlar, pozitsiyalar, baholar va sxemalarni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy tizimlar ko'p o'lchovlidir. Ular quyidagicha formulalashtirilishi mumkin:

$$ES = F(A_1, A_2, \dots, A_n)$$

ES iqtisodiy tizim  $A_n$  ning xususiyatlari bilan belgilanadi, unda  $n$  ta bunday xususiyatlar mavjud. Bu iqtisodiy tizim bittagina ta'rif (tasnifistika) terminlari bilangina belgilanishi mumkin emasligini bildiradi. Biz iqtisodiy tizimlarni differensiyalashda, ularning tiplarini aniqlashda mezonlar sifatida chiqadigan to'rtta muhim xususiy ( $n=4$ ) da to'xtalamiz. Bular:

*Qarorlar qabul qilish bo'yicha tadbirlarni tahlil qilish;*

*Mulk huquqlari: nazorat va daromad;*

*Axborot bilan ta'minlash va muvofiqlashtirish mexanizmlari;*

*Maqsadlar qo'yish va odamlarni harakat qilishga undovchi mexanizmlar.*

Iqtisodiy muammolarni hal qiluvchi turli mamlakatlarning iqtisodiy tizimlari bir-birlaridan farq qiladilar, shuning uchun ularni bir nechta guruhga bo'lish mumkin:

#### **An'anaviy iqtisodiyot**

Hayot tarzlari asrlar davomida amalda o'zgarmagan, turmush darajalari nisbatan past bo'lgan jamiyatlar mavjud. Osiyo, Afrikadagi uzoq chekka qishloqlar — mana an'anaviy iqtisodiyot jamiyatlarga misol. Bunday jamiyatlarda odamlar qadimiy odatlar, udumlar bo'yicha yashaydilar, hamma ishni ajdodlar qanday qilgan bo'lsalar shunday bajaradilar.

Nimani va qanday chiqarish hamda taqsimlash an'analar asosida hal qilinadi.

## **Bozor iqtisodiyoti**

Xaridorlarga sotuvchilar bilan muloqotga kirishish imkonini beruvchi har qanday tuzilma bozor deb ataladi. Bozor iqtisodiyoti odamlarga o'zlari xohlagan narsalarini sotib olish va o'zlari ishlab chiqargan tovarlarni sotish erkinligini beradi. Narxlar tovar va xizmatlarga talabning darajasi, bu mahsulot va xizmatlarning sotuvga taqdim qilinayotgan miqdori, ya'ni talab va taklifning bozor omillari bilan belgilanadi. Quyida bozor iqtisodiyotning ba'zi sifatleri, tavsiflari keltiriladi:

**Xususiy mulk.** Inson yer, binolar, uskunalar va boshqa tabiiy omillar hamda odamlar yaratgan ishlab chiqarish omillariga egalik qilish va tasarruf etish huquqiga ega. Aynan shu o'ziga xos tomoni tufayli bozor iqtisodiyotini kapitalistik iqtisodiyot deb atashadi.

**Tanlash erkinligi.** Odamlar o'z firmalarini ochish, nimani va qandoq qilib ishlab chiqarishni o'zlari hal qilish huquqiga ega; ishchilar mashg'ulot turini erkin tanlashlari, iste'molchilar daromadlarini o'z xohishlariga ko'ra, saralashlari mumkin.

**Shaxsiy foyda.** Odamlar o'zlariga nima foydali bo'lsa, shuni qilishlari: firma — o'z foydasini maksimallashtirishi, ishchilar — o'z daromadlarini ko'paytirishlari, iste'molchi o'z xohishlarini qondirishi mumkin.

**Narx mexanizmi (raqobat).** Tovar va xizmatlarning talab yoki taklifning o'zgarishi narxlarning tebranishini keltirib chiqaradi. Narxlarning o'zgarishlari iqtisodiy omillarning qayta taqsimlanishiga olib keladi.

Bunda davlatning roli nihoyatda cheklangan. Davlatning iqtisodiy vazifalari juda kam. Uning bosh vazifasi mamlakatning mudofaasini va huquqiy tartibotni qo'llab-quvvatlab, ta'minlab turishdir.

## **Buyruqbozlik iqtisodiyoti**

Bunda davlat mamlakatning iqtisodiy omillarini boshqarish huquqiga ega. U omillardan foydalanishni to'liq tartibga solib turadi, nima ishlab chiqarish qandoq va kim uchun ishlab chiqarishni hal qilish huquqiga ega. Bunday iqtisodiyotni markazlashgan rejaviy iqtisodiyot deb atashadi. Uning asosiy xususiyatlari shundaki, ishlab chiqarish vositalariga egalik huquqi davlatga tegishlidir. Bu ushbu iqtisodiy tizimning eng muhim xususiyatidir. Shuningdek, bu tizimning quyidagi xususiyatlari ham mavjud:

**Rejaviy iqtisodiyot.** Davlat rejasi minglab o'zaro aloqalarni

belgilaydi. Ko'p sonli amaldorlar reja tuzadilar va uning bajari-lishini kuzatib boradilar.

### **Aralash iqtisodiyot**

Hozirgi dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida aralash iqtisodiyot mavjuddir. U ham davlat, ham xususiy sektorga ega. «Aralash iqtisodiyot» termini odatda, Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya mamlakatlarining iqtisodiyotini tavsiflash uchun ishlatiladi. Odatda, bugungi kunda davlat jamiyatning iqtisodiy hayotida ikki sababga ko'ra ishtirok etadi:

— u jamiyatning ayrim talablarini ularning o'ziga xos xususiyatlari (armiyani saqlash, qonunlarni ishlab chiqish, yo'l harakatini tashkil etish, epidemiyalar bilan kurashish va hokozolar)ga ko'ra, faqat bozor mexanizmi asosida imkoni bo'lganidan ko'ra, yaxshiroq qondirishi mumkin;

— u bozor mexanizmlari faoliyatining salbiy oqibatlari (fuqarolar farovonligi — boyligidagi haddan tashqari katta farq, tijorat firmalarining faoliyatidagi atrof-muhitga yetkazilishi)ni yumshatishi mumkin. Shuning uchun XX asrning oxiri tamadduni (sivilizatsiyasi) uchun aralash iqtisodiyot tizimi ko'pchilik hollarda qo'llanilishi ko'plab kuzatiladigan bo'lib qoldi.

## **9.2. O'ZBEKISTON MISOLIDA IQTISODIY TIZIM**

O'zbekiston Markaziy Osiyodagi strategik muhim davlat bo'lib, u uzoq muddatga mo'ljallangan, yaxshi o'ylangan o'z kompleks milliy rivojlanish strategiyasini taklif qildi. O'zbekiston rivojlanishi o'zining bazaviy iqtisodiy ijtimoiy va madaniy qatlamlariga mos keluvchi aniq modelini hayotga joriy etmoqda. Sxematik ko'rinishda o'zbek modelini ikki sektorli modelga kiritish mumkin. Davlat sektori ustidan qattiq nazoratni saqlagan holda hukumat tartibga solmaydigan bozor sektorining rivojlanishi uchun asoslar yaratadi.

Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyilini joriy qilish, bir tomondan, respublikaga meros bo'lib tekkan boyliklarga tejamkorlik va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni, boshqa tomondan esa, isloh qilishning asosiy bosqichlarini ajratish, ularning har biri uchun aniq maqsadlarni belgilashni taqozo etadi. Faqat bir bosqichni yakunlagandan keyin-gina yangi bosqichga kirishish mumkin.

Birinchi bosqich yangi iqtisodiy tizimning huquqiy asoslari-



ni yaratishga davlatchilikni shakllantirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan edi.

Isloh qilishning butun jarayonining boshlanishi strategik maqsadlarini tanlash bilan bog'liq edi.

Bu maqsadlarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, dinamik rivojlanuvchi iqtisodiy tizimni yaratish;
- ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, xususiy mulkning davlat himoyasini ta'minlash;
- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy imkoniyatlar taqdim etish, davlatning xo'jalik faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aralashudan voz kechish iqtisodiyotni boshqarishning ma'muriy buyruqbozlik usullariga barham berish;
- iqtisodiyotning moddiy, tabiiy va mehnat omillaridan samarali foydalanishni, raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishni, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashishni ta'minlaydigan tuzilmaviy-tarkibiy qayta tuzilishini amalga oshirish.

### **Nazorat savollari:**

1. Iqtisodiy nazariyaning asosiy muammosini tuzib bering.
2. Iqtisodiy tizimlarni tasniflashning asosiy belgilarini sanab bering.
3. Iqtisodiy tizimni tanlash muammosi nimadan iborat?
4. Iqtisodiy tizimning bosh masalalari. Nima? Qanday qilib? Kim uchun? Uning mazmunini ochib bering. Bu savollar yoniga o'zingizdan savollar qo'sha olarmidingiz. Javobingizni asoslab bering.
5. Iqtisodiy tizimning subyektini tanlash asosida qanday omillar yotadi?
6. Rivojlanishning o'zbek modelini o'ziga xos tomonlari nimalardan iborat?
7. Bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish tamoyili nimani taqozo etadi?
8. O'zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayonining strategik maqsadlarini sanab bering.

## 10 - B O B. IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI

---

### 10.1. DAVLAT VA UNING TUZILMASI

#### **Bozor xo‘jaligida davlatning vazifalari:**

- Bozor iqtisodiyotining samarali ishlashiga yordam beruvchi huquqiy asoslarni va ijtimoiy muhitni yaratish, bozor munosabatlari subyektlarining o‘zlarini tutishlariga iqtisodiy richaglar (soliqlar, narxlar siyosatida maqsadga yo‘naltirilgan cheklash, davlat subsidiyalari, kreditlar, jarimalar, bojxona yig‘imlari) yordamida ta’sir qilib bozor xo‘jaligini tartibga solish.
- monopoliyaga qarshi siyosat va raqobatni qo‘llab-quvvatlash;
- qayta ishlab chiqarishning samarali umumiy sharoitlarini yaratish (ishlab chiqarish, tabiatni muhofaza qilish va ijtimoiy infratuzilmaviy rivojlantirish);
- davlat mulkini iqtisodiyotning ushbu sektorida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo‘li bilan sotish (realizatsiya qilish);
- bozorning salbiy tomonlarining o‘rnini to‘ldirish;
- qayta ishlab chiqarishni makro darajada iqtisodiy dinamikani tartibga solish vositasida, investitsion-tuzilmaviy siyosat, ishlab chiqarishning, ishsizlik va inflyatsiya darajasi ustidan moliyaviy va soliq nazorat yo‘li bilan mo‘tadillashtirish;
- daromadlarni qayta taqsimlash, transfert (mehnat sarflari bilan bog‘liq bo‘lmagan) to‘lovlarni amalga oshirish yo‘li bilan adolat tamoyillari, ijtimoiy kafolatlarni ta‘minlash;
- kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash;
- fiskal siyosatni o‘tkazish — xo‘jalik yurituvchi subyektlar daromadlarining bir qismini budjetni shakllantirish uchun olib qo‘yish.

XX asrdan boshlab, davlat o‘ziga iqtisodiy subyekt sifatida xos bo‘lgan — davlat mulkini va davlat tadbirkorligini rivojlantirish vazifalarini ham bajara boshladi.

#### **Iqtisodiyotda davlat sektori tarixiy o‘shining eng muhim sabablari:**

- urushlar va milliy mudofaa;
- makrodinamik jarayonlarini infratuzilmaviy ta‘minlash;

- aholi sonini o‘sishi;
- urbanizatsiyalash (qishloq aholisining shaharlarga ko‘chishi);
- atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari.

### **Davlat sektorining faoliyat sohalari:**

- militarizatsiyalashtirish (harbiylashtirish, urush, mudofaa uchun mahsulot, xomashyo, qurol-aslaha ishlab chiqarish) va konversiya;
- ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi;
- mablag‘ va ilmiy salohiyat ko‘proq jalb etilishini talab qiluvchi tarmoqlardagi innovatsion jarayonlar;
- iqtisodiyotning «bemor» sohalari.

## **10.2. DAVLAT SEKTORINING OPTIMAL CHEGARALARI**

Davlat mulkining miqyoslari rivojlangan kapitalistik davlatlarda hozirgi paytga kelib sezilarli, aniqrog‘i, salmoqli hajmlargacha ko‘paydi. AQSHdagi, G‘arbiy Yevropadagi davlat mulki holatining qat‘iy farqi yirik firmalar faoliyatining ko‘lami va kuchi bilan izohlanadi.

10.1-j a d v a l

### **Zamonaviy bozor xo‘jaligi modellari**

Modellar Mezonlar	Ijtimoiy bozor xo‘jaligi	Aralash iqtisodiyot	Korporativ iqtisodiyot
Davlat dasturlarining maqsadli yo‘nalishi	Fuqarolar manfaatlarini himoya qilish	Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish	Yirik biznes manfaatlarini himoya qilish
Iqtisodiyotni tartibga solish tamoyillari	Uzoq muddatli dasturlash	Taktik usullardan ko‘proq foydalanish	Asosiy ustuvorliklarni belgilash
Iqtisodiyotda davlat sektorining ulushi	30 foizga yetadi	10 foizgacha	Sezilar-sezilmas
Eng ko‘p bo‘lgan davlatlar	Germaniya	AQSH	Yaponiya Shvetsiya

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng G‘arbiy Yevropada xususiy sektor faoliyatning hamma sohalarini qamrab ololmagan, aynan mana shu salmoqli davlat sektorining paydo bo‘lishining sababi bo‘ldi.

Hozirgi zamon bozor xo‘jaligi iqtisodiyotining xususiy va davlat sektorlarining o‘zaro aloqasiga, hamkorlik hamda harakatiga asoslangan.

Zamonaviy bozor xo‘jaligining modellarini uning iqtisodiyotga ta‘sirining intensivligi darajasiga hamda davlat hal qilayotgan vazifalarning ustuvorligiga qarab farqlaydilar.

### **O‘zbekistonda bozor xo‘jaligi o‘tish sharoitlari**

Xo‘jalik faoliyatining erkinligini ta‘minlash.

- Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarini ratsionalizatsiyalashtirish (oqilona olib berish) vositasida xo‘jalik yuritishning shart-sharoitlariga, vositalari va natijalariga turli xil mulk shakllarining paydo bo‘lishi.
- Tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirishning eng muhim omili sifatli ishlab chiqaruvchilar raqobatining rivojlanishi.
- Narxning erkin belgilanishi mexanizmining rivojlanishi.
- Bozor munosabatlarining tarqalishi bilan birga iqtisodiyotning salmoqli nobozor sektorining ham saqlanishi.
- Ilmiy yechimlar ko‘p hajmda qo‘llaniladigan iqtisodiyotni mikroxo‘jalik aloqalari tizimga izchillik bilan integratsiyalari.
- Fuqarolarga ijtimoiy kafolatlarning davlat tomonidan ta‘minlanishi mablag‘lar ishlab topishda hammaga teng imkoniyatlar taqdim etish va jamiyatning ijtimoiy muhofazaga muhtoj va mehnatga layoqatsiz qismini qo‘llab-quvvatlash.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning mantig‘i va bosqichi vazifalari:

Iqtisodiyotning davlat tasarrufidan chiqarish xususiylashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish. Zaxira va imkoniyatlarni ishlash va ulardan foydalanish.

Ma‘muriy buyruqbozlik tizimi doirasida vujudga kelgan va bozor munosabatlarini rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi tashkiliy tuzilmalarni tugatish va iqtisodiyotni monopoliyadan chiqarish.

Narxlar ustidan davlat nazoratini asta-sekin cheklash, busiz bozor mexanizmining ishlashi mumkin bo‘lmagan, talab va taklifga mos ravishda narx (baho)ni erkin belgilashga o‘tish.

Muomaladagi pul massasini cheklash maqsadida pul-kredit va moliyaviy siyosatni olib borish. Odamlarning bozor iqtisodiyoti

sharoitlariga moslashuvini yengillashtiradigan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini himoya qiladigan, aholini qo'llab-quvvatlaydigan kuchli ijtimoiy kafolatlar tizimini yaratish.

Ustun ravishda, asosan iqtisodiy usullarga tayangan holda xalq xo'jaligining ijtimoiy mo'ljalga olish yo'nalishidagi zarur tuzilmaviy o'zgarishlarini ta'minlashi mumkin bo'lgan faol tuzilmaviy-investitsion siyosatni amalga oshirish.

Bozor tizimi xususiy mulk hukmronligi, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, pul yordamida amalga oshiriluvchi almashinuv munosabatlarining rivojlanishi bilan ifodalanadi. Har qanday boshqa ijtimoiy tizim kabi u doimiy rivojlanishda. An'anaviy jamiyatda vujudga kelib, bozor asta-sekin xususiy tadbirkorlikka tayanadigan bir butun kapitalistik tizimga aylanadi. Bu tizimning aniq zamonaviy variantlarining ko'pligi va o'ziga xosligiga qaramay ularning hammasi yuqori darajada rivojlangan texnologiya, aralash mulk va iqtisodiyotda davlatning faol ishtiroki asosida rivojlanadilar.

### **Nazorat savollari:**

1. Foydani eng katta olishga qiziqish qanday subyektga xosdir?
  - a) firmaga;
  - b) yer egasiga;
  - c) iste'molchiga.
2. Bozor iqtisodiyotida davlatning roli qanday izohlanadi?
  - a) ishtirok etmaslik;
  - b) cheklangan;
  - c) katta.
3. Ular yuzasidan o'zaro harakatga kirishadigan obyektlarni aniqlang:
  - a) uy xo'jaliklari va korxonalar;
  - b) korxonalar va davlat;
  - c) davlat va banklar;
  - d) uy xo'jaliklari va davlat.
4. Davlatning iqtisodiyotdagi vazifalari qanaqa?
5. Iqtisodiyotda davlat sektorining o'sishi sabablarini tushuntiring. Bozor xo'jaligi sharoitlarida davlat faoliyatining sohalarini aytib bering.
6. Bozor xo'jaligi modellarining mohiyatini ochib bering.
7. Jamiyatning iqtisodiy hayotini zamonaviy tuzilishi asosida qanday iqtisodiy erkinliklar yotadi?
8. Bozorning nomukammalligi nima degani?
9. Siz davlatning qaysi eng muhim iqtisodiy vazifalarini aytib berishingiz mumkin?

# 11 - B O B. UMUMIY XALQ XO‘JALIGI HISOB-KITOBINING TAMOYILLARI

## 11.1. ASOSIY MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR

### *Ishlab chiqarishning milliy hajmi*

Ushbu ko‘rsatkich jamiyatda ma‘lum bir vaqt davomida ishlab chiqarilgan mahsulot va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini aniqlash uchun mo‘ljallangan, yaratilgan milliy mahsulot **YMM (yalpi milliy mahsulot)** ko‘rsatkichida raqamlarida ifodalanadi. Uni mamlakatda bir yil ichida ishlab chiqarilgan hamma pirovard tovarlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning bozor qiymatlarining yig‘indisi sifatida belgilaydilar.

### **Narxlarning umumiy darajasi.**

Ushbu ko‘rsatkich tovarlarning keng guruhining baholar indeksi yordamida o‘lchanadigan narxlarining o‘rtacha darajasini belgilaydi.

Narxlar (baholar) indeksi narxlarning o‘rtacha darajasining ma‘lum bir davr ichida nisbatan o‘zgarishini ifodalaydi.

$$\text{Joriy yilning narxlar indeksi} = \frac{\text{joriy yil narxlari}}{\text{bazis yil narxlari}} \times 100\%$$

**Narxlar indeksi** quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

Foiz stavkalarining darajasi tadbirkorlar tomonidan pul mablag‘laridan foydalanish xarajatlari va pullarning iste‘molchilar sektori tomonidan ishlatilmaganligi uchun mukofotni ifodalaydi.

Stavkalarining foizlari bozor mexanizmi ta‘siri ostida bo‘ladi: agar pul taklifi kamaysa, foiz stavkalari oshadi. Va aksincha,

$$\text{Real stavka} = \text{nominal stavka} - \text{inflyatsiya darajasi}$$

nominal va real foiz stavkalarini farqlaydilar.

### **Bandlik.**

Ushbu ko‘rsatkich ishga ega bo‘lgan katta yoshdagi mehnatga qobiliyatli aholi soni bilan mazkur iqtisodiy tizimdagi ishsiz-

lar sonining nisbatini aks ettiradi.

Ishsizlikni hisoblab chiqarish va bandlikni baholash uchun

$$\text{Ishsizlik me'yor} = \frac{\text{ishsizlar soni}}{\text{ish kuchi miqdori}} \times 100\%$$

asosiy ko'rsatkich ishsizlik me'yori.

## 11.2. MILLIY HISOBLAR TIZIMI

Milliy schyot (hisob)lar tizimi (MHT) mamlakatning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashning xalqaro standartidir. Uning tarkibiy qismlari quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlardir:

### 1. Yalpi milliy mahsulot.

YMMni mamlakatda yaratilgan mahsulotlarga ketgan xarajatlar va mahsulot ishlab chiqarish natijasida olingan daromadlar bo'yicha hisoblab chiqarishning usullari ishlab chiqilgan:

$$\text{GNP} = \text{C} + \text{I} + \text{G} + \text{X}$$

### Xarajatlar bo'yicha hisob-kitoblar

GNP — Yalpi milliy mahsulot;

I — investitsiyalar;

C — iste'mol;

G — hukumat xarajatlari;

X — sof eksport;

C — harfi bilan belgilangan iste'mol xarajatlari uy xo'jaliklarini tovar va xizmatlarining har xil turlariga ketkazgan xarajatlari ham o'z ichiga oladi.

I — investitsiyalarga ketgan xarajatlar — bu investitsion tovarlar hisoblanuvchi uskunalar, ishlab chiqarish binolari, moddiy-texnik zaxiralar, uy-joy qurilishiga ishlatiladigan xarajatlar va amortizatsiya xarajatidir;

G — davlat xarajatlari bo'lib, davlatning bevosita tovarlar ishlab chiqarishga va xizmatlar ko'rsatishga yo'naltiriluvchi xarajatlarni birlashtiradi;

X — sof eksport — bu eksport va import hajmlari o'rtasidagi farq.

$$\text{Y} = \text{W} + \text{R} + \text{I} + \text{P}$$

## **Daromadlar bo'yicha hisob-kitob.**

Y — Yalpi milliy mahsulot;

R — renta;

I — foiz;

P — foyda;

W — ish haqi, ishchi va xizmatchilarning mehnatiga ijtimoiy ta'minot bo'yicha qo'shimcha to'lovlarni qo'shib hisoblangan haq;

R — renta bu yerda uy xo'jaliklarining yerni, binolar, uy-joy va boshqa narsalarni ijaraga berish natijasida olinadigan daromadlardir;

I — foiz bu holatda uy xo'jaliklari jamg'argan pul kapitalidan olinadigan daromadlar shaklida namoyon bo'ladi;

P — korxonalar oladigan foyda.

### **2. Yalpi ichki mahsulot.**

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) mamlakat ichida va faqat ushbu mamlakatning ishlab chiqarish omillaridan foydalanib, ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

$$GIP = GNP - X$$

GIP — yalpi ichki mahsulot;

GNP — yalpi milliy mahsulot;

X — sof eksport.

### **3. Sof milliy mahsulot.**

Sof milliy mahsulot (SMM) yalpi milliy mahsulotning undan mahsulot ishlab chiqarish vositalarini almashtirish uchun zarur bo'lgan mahsulot qismi (amortizatsiya ajratmalari) olib tashlangandan so'ng qolgan qismidir.

$$NNP = GNP - A$$

NNP — sof milliy mahsulot;

GNP — yalpi milliy mahsulot;

A — amortizatsiya.

### **4. Shaxsiy daromad.**

Shaxsiy daromad alohida shaxslarning ishlab topgan yoki olgan daromadning hammasidan iboratdir. U iste'molga, jamg'armaga soliqlarni to'lashga yo'naltiriladi, ishlatiladi.



**5. Tasarrufdagi daromad** — bu soliqlarni to‘lashdan tushgan daromad + budjetdan to‘lovlar tasarrufdagi daromad bevosita iste’molga va jamg‘armaga taqsimlanadi.

**Nazorat savollari:**

1. Bozor xo‘jaligining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini aytib bering.
2. Milliy hisoblar tizimini ta’riflang.

### 12.1. DAVLATNING IQTISODIY VAZIFALARI

Har bir mamlakatga uning fuqarolari faol xo‘jalik faoliyatini olib borishni xohlashlari va olib borishlari mumkin bo‘lishi uchun qanday sharoitlar zarur?

Insoniyat odamlarga kafolatlangan erkinliklar zarurligini tushunish jarayonida juda murakkab yo‘ldan o‘tib keldi. Bu erkinliklar quyidagilardir:

- o‘z mehnati natijalari va mulkni erkin tasarruf etish;
- tadbirkorlik erkinligi;
- bitishuvlar tuzish erkinligi.

**O‘z mehnat natijalarini erkin tasarruf etish** — bu odam o‘z mehnati bilan yaratgan yoki ishlab topgan puliga sotib olgan ne‘matlarga egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqiga ega ekanligini bildiradi. Boshqacha qilib aytganda, bu shaxsiy va xususiy mulk shakllanadigan asosdir.

**Tadbirkorlik erkinligi** — bu iqtisodiyot sohasida nimani va qanday qilish kerakligini erkin tanlash huquqidir. Bu erkinlik tadbirkorga hech kim qaysi ne‘matlarni va qanday usulda ishlab chiqarish buyurishga haqli emasligini — buni uning o‘zi hal qilishga haqli ekanligini bildiradi. Faqat shunday sharoitdagina odam o‘z mehnati natijalari uchun ma‘suliyatni o‘z zimmasiga olishi mumkin.

**Bitishuvlar tuzish erkinligi** — bu odamning o‘zi yaratgan ne‘matlarni kimga va qanday shartlarda sotishni o‘zi mustaqil tanlash huquqidir. Aynan mana shu huquq savdoni rivojlantirishning bosh shartidir, chunki faqat shundagina odam o‘z xo‘jalik faoliyatida to‘liq erkin bo‘ladi va uni amalga oshirishdagi tavakkalni o‘z zimmasiga to‘laligicha oladi.

#### **Iqtisodiy erkinliklarni himoya qilish mexanizmi**

Iqtisodiy erkinliklar quyidagi yo‘llar va usullar bilan muhofaza qilinadi:

- mulk huquqining huquqiy jihatdan mustahkamlanishi;
- fuqaroviy qonunchilik;
- sudlar;

— hakamlik sudlari;

**Mulk huquqining qonuniy mustahkamlanishi** — jamiyat va davlat odamlarning (jismoniy shaxslarning) va firmalar (huquqiy shaxslar)ning o'zlari yaratgan, sotib olgan, sovg'a sifatida yoki meros tariqasida qo'lga kiritgan istalgan turdagi mulkiga bo'lgan huquqlarni tan oladilar demakdir. Davlat huquqiy xizmat ko'rsatuvchi idoralar yordamida shaxsning bunday huquqlarini himoya qiladi.

**Fuqaroviy qonunchilik.** Insonning xo'jalik hayotida o'zini tutish qoidalari bugungi kunda, odatda, fuqarolik qonunchiligining eng muhim qismini tashkil qiluvchi juda ko'p fuqaroviy me'yorlar va qonunlar bilan tartibga solinadi. Bunday me'yor va qonunlar masalan, O'zbekiston Respublikasining Fuqaroviy Kodeksida jamlangan.

**Sudlar.** Fuqaroviy sud ishlarini yuritishda qamoq yoki surgunga yuborish shaklidagi jazolar yo'q. Bu yerda, odatda, jazo sifatida noqonuniy olingan mulk yoki foydani olib qo'yish, shuningdek, turli xildagi jarimalar qo'llaniladi.

*Hakamlik sudlari.* Ular xo'jalik faoliyati ishtirokchilari o'rtasida vujudga keluvchi nizolarni hal qilish uchun tuzilgan.

Iqtisodiy erkinliklar va xo'jalik hayoti qoidalariga rioya qilinishini nazorat qiluvchi davlat idoralari. Ular qatoriga, eng avvalo, qonunlarning to'g'ri ijro qilinishi ustidan nazorat qiluvchi prokuratura kiradi.

Davlatning iqtisodiy hayotga aralashuvi sabablari.

Iqtisodiy nazariyaning uzoq rivojlanishi natijalarini ikkita oddiy xulosaga jamlash mumkin:

- bozor asosiy, muhim iqtisodiy muammolarni hal qilishga qodir;
- bozor jamiyat uchun muhim bo'lgan bir qator vazifalarni hal qilishga qodir emas.

Bozorning zaifligining sababi shundaki, real hayotda hech qachon jamiyatning bosh iqtisodiy muammolarini hal qilish imkonini beruvchi hamma shartlarga rioya qilishga muvaffaq bo'linavermaydi.

Davlatning eng muhim vazifasi — bozorning zaifligidan (takomillashmaganligi) kelib chiqqan oqibatlarini bartaraf etish.

*Bozorni monopoliyalashtirishga qarshilik ko'rsatish va raqobatni himoya qilish uchun davlat:*

- ular asosida monopoliyalashtirishda qo'lga tushgan fikrlarni aniqlash va jazolash mumkin bo'lgan qonunlarni ishlab chiqadi va qabul qiladi;

- bozordagi voqealarning rivojlanishini kuzatib boruvchi va ularni monopoliyalashtirish holatlarini aniqlovchi tashkilotlarni tuzadi. Bu ishlar bilan monopoliyaga qarshi davlat qo‘mitasi shug‘ullanadi;
- bozorlarni monopoliyalashtirishga qarshilik ko‘rsatuvchi yoki uni buzib yuboradigan yangi firmalarni tuzishga yordam beradi. Bu ish bilan kichik va o‘rta tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘mita shug‘ullanadi.

## 12.2. IQTISODIY SIYOSATNING ASOSIY VAZIFALARI

**Iqtisodiy nazariya** — bu voqelikni xo‘jalik hayotining qonuni, qoidasi yoki modeli sifatida taqdim etilgan ta’riflar, tushunchalar, mezonlari vositasida uning asosiy tasnifistikalarni aks ettirish (mavhum) umum tizimiy bayon qilishdir. Hamma iqtisodiy nazariyalar to‘rtta umumiy xususiyatga egadir, chunki ularning har biri:

- iqtisodiyotdagi hodisalar va jarayonlarni kuzatishlarga asoslangan;
- iqtisodiy tizimlarning abstrakt-nazariy modellashtirishni namoyon qiladilar;
- o‘z ichiga kuzatilayotgan hodisalarning oqibatlarini bashorat qilishni oladi;
- xo‘jalik amaliyoti uchun tavsiyalar taqdim etadi.

Nazariyani yaratish va uni tekshirish uchun iqtisodiyot *induksiya va deduksiya* ilmiy usullaridan foydalanadi.


*Induksiya* — bu kuzatishlar to‘plamidan nazariya yaratish jarayonidir. U *xususiy kuzatishlardan umumiy lashtirishga o‘tishni ta’minlaydi*.

*Deduksiya* — bo‘lajak voqealarni nazariya yordamida bashorat qilish jarayoni. U umumiydan xususiyga o‘tishni ta’minlaydi.

**Iqtisodiy siyosat.** Iqtisodiy muammolarning yechimini topish va ularning mexanizmini harakatga keltirish bilan shug‘ullanadi. Siyosatchilar agar o‘zlari olib borayotgan siyosat muvaffaqiyatli bo‘lishini istasalar, iqtisodiy nazariyadan foydalanmalarida, shuningdek, hal qilinayotgan muammoning madaniy, ijtimoiy, huquqiy va siyosiy tomonlari bilan ham hisoblashishlari kerak. Iqtisodiy siyosat vazifalarining amalga oshirilishi iqtisodiy tizimning o‘zgarishi, uning takomillashuviga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy nazariyaning rivojla-

nishida, yangi ilmiy bilimning real ildiz otgani (hayotga tatbiq etilgani)da o'z aksini topadi.

### **Iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalari quyidagilardir:**



*15-sxema.*

### **Nazorat savollari:**

1. Iqtisodiy nazariya va siyosat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar qanday?
2. Iqtisodiy siyosatning asosiy vazifalarini shakllantirib bering.

## 13 - B O B. XO‘JALIK TIZIMINI SHAKLLANTIRISH SIYOSATI

---

### 13.1. SOLIQ TIZIMINI TUZISH

Moliyaviy munosabatlar bozor xo‘jaligi subyektlari orasida, shuningdek, tarmoqlar va mintaqalar o‘rtasida (bir tomondan, davlat va boshqa tomondan korxonalar, aholi, jamiyat tashkilotlari, ikkinchi tomondan, korxonalar o‘rtasida, korxonalar ichida, korxonalar va banklar o‘rtasida) vujudga keladi. Bu aloqalar moliyaviy munosabatlarning tizimi, tuzilmasini tashkil qiladi.

**Soliqqa tortish** — davlat bilan birga tug‘ilgan qadimiy iqtisodiy mexanizmlardandir. Soliq solmasdan davlat mavjud bo‘la olmaydi.

Soliq solish — daromadlarni va davlat mablag‘lari manbaalarini tartibga solish usulidir.

**Soliq tizimini tuzish tamoyillari:**

**Umumiylik** — daromad oluvchi hamma iqtisodiy subyektlarni soliq bilan qamrab olish.

**Mo‘tadillik** — soliq turlari va soliq stavkalarining vaqt mobaynida o‘zgarماسligi, qat‘iy bir darajada turishi.

**Tengyuklanganlik** — himoyaning daromadi va foydasi ulushlari hisobiga soliqlarning aynan bir xil stavkalar bo‘yicha undirishi.

**Majburiylik** — soliqlarning majburiy ekanligi.

**Ijtimoiy adolat** — xo‘jalik hayotining hamma ishtirokchilari soliqlar masalasi bo‘yicha bir xil sharoitga qo‘yilgan.

Soliqqa tortiluvchi obyektga qarab soliqlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

— huquqiy shaxslar to‘laydigan soliqlar;

— jismoniy shaxslar to‘laydigan soliqlar.

Soliq manbayini soliqqa tortish obyektidan ajrata olish zarurdir.

**Manba** — soliqqa tortish obyektga bog‘liq bo‘lmagan, jamiyatning sof daromadidir.

**Obyekt** — bu miqdoriy o‘lchanadigan fenomendir. U soliqlarni hisoblash uchun baza bo‘lib xizmat qiladi.

- korxonadan olinadigan daromad yoki aholining daromadi;
- mulk (ko‘char va ko‘chmas mulk);

- mulkni meros qilib qoldirish, sovg'a qilish paytida, shuningdek, bitishuvlarni ayrim turlari (qimmatbaho qog'ozlar bilan o'tkaziladigan amallar);
- tovarlarni chet elga chiqarish (bois to'lovlar) *soliqqa tortish obyektlaridir*.

Mexanizmlarga ko'ra, soliqlar ikkita asosiy to'g'ridan to'g'ri va bilvosita soliqlar guruhiga bo'linadilar.


To'g'ridan to'g'ri soliqlar mulk egalari, daromad oluvchilardan undiriladi.

Bilvosita soliqlar tovarlar va xizmatlarni sotish yoki iste'mol qilish sohasida undiriladi. Ya'ni pirovard natijasida mahsulotning iste'molchilariga yuklanadi.

Soliqqa tortish obyektlari:

- daromad;
- kapital;
- yer;
- xo'jalik aylanmasi;
- ayrim tovarlar aniqroq mezonlardir.

### Soliqqa tortish obyektlariga muvofiq soliqlarni tasniflash



16-sxema.

Soliqqa tortish tizimida obyektlar bilan bir qatorda soliq stavkaları va soliq imtiyozlari ham ulardan kam rol o'ynamaydilar.

Soliq stavkasi:

- eng katta soliq stavkasidan;
- o'rtacha soliq stavkasidan;
- nolinch soliq stavkasidan;
- imtiyozli stavkadan iborat bo'ladi.

**Soliq imtiyozlari** — bu ayrim korxonalariga ularning yo'nalishlari, chiqarayotgan mahsulotlarining holatiga qarab soliq stavkalarini kamaytirish yoki ularni to'lashdan to'liq ozod qilishdir.

### 13.2. RAQOBATGA BARDOSHLILIKNI BELGILASH

**Raqobatga bardoshlilik** deyilganida tovarning bozordagi muvaffaqiyatini, ya'ni keng taqdim etilgan raqobatlashuvchi tovarlar olami (o'xshash)lar o'rtasida aynan shu tovarning afzalligini belgilovchi, tovarning bozordagi muvaffaqiyatining hal qiluvchi omili bo'lgan iste'mol va qiymat (baho) tasnifi tushuniladi.

Sifat — bu mahsulotning unga shart qilib qo'ygan yoki ko'zda tutilgan talablarni qondirish qobiliyatini beruvchi xususiyatlar va tasnifi yig'indisidir. Sifat raqobatbardoshlilikning tarkibiy qismidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida bozor tovarning raqobatga bardoshlilikini va sifatini o'zi tartibga soladi. Davlat o'rni esa ularni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir, xolos. Buning uchun choralarning tizimi tuzilgan. Bular:

Eng avvalo, qonunchilik bazasidir. Uning asosini iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish haqidagi qonun standartlashtirish va sertifikatlashtirish haqidagi qonun, standartlashtirish, me'yorlar va qoidalar ustidan davlat nazorati to'g'risidagi qonun va boshqa hujjatlardir.

#### **Pulni tartibga solishni o'rnatish**

Hukumat muomalada bo'lgan pullarning miqdorini bir qator sabablarga ko'ra, nazorat qilishga intiladi. Birinchidan, agar narxlar ko'tarilsa, hukumat inflyatsiyadan xavfsirab, muomaladagi pul miqdorini qisqartirishga yoki juda bo'lmaganda uning o'sish sur'atini pasaytirishga harakat qiladi. Agarda aksincha bo'lib, pasayish kutilayotgan bo'lsa, hukumat aylanmadagi (muomaladagi) pul miqdorini oshirib, summalar xarajatlarni oshirishga intiladi.

Bu maqsadlarga erishish usullari *monitar siyosat* nomi bilan



ma'lum. Bu nazariya tarafdorlari davlat xo'jalik hayotiga aralashishini pul massasining o'sishining mo'tadil sur'atini qo'llab-quvvatlash bilangina cheklashi lozim deb hisoblaydilar. Ularning fikriga ko'ra, uzoq muddatli planda moliyaviy ekspansiya foiz stavkalarining o'sishigagina olib keladi, holbuki, kredit-pul ekspansiyasi ishlab chiqarishni kengaytirishni emas, balki faqat inflyatsiyani rag'batlantiradi. Pul-kredit tizimining qobiliyatiga tayanuvchi monetar iqtisodiy siyosat iqtisodiyotning ishlashi va rivojlanishiga sezilarli tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Davlat pul birligi qiymatining mo'tadillashishi uchun javobgardir, buning uchun u tegishli fiskal siyosatni olib boradi va pul taklifini nazorat qiladi.

Pullarning aksariyat qismi bank depozitlari shaklida saqlanadi, *monetar siyosat esa depozitlarning darajasini* tartibga solishga yo'naltirilgan. Bank depozitivlarining hajmlari:

- mijozlarning kreditlardan foydalanish xohishlari va imkoniyatlari (kreditlarga talab)ga;
- banklarning qarz taqdim etish imkoniyatlari (kreditlar taklifi)ga bog'liqdir.

**Markaziy bank** banklarning mijozlariga bo'lganidek, banklarning o'zlariga ham ta'sir qilishga da'vat etilgan. Markaziy bank pulga bo'lgan talabni:

- foiz stavkalarini o'zgartirish;
- tijorat banklariga moliya masalalari bo'yicha farmoyishlar berish yo'li bilan nazorat qiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Davlat mamlakatda pul aylanmasini tartibga solishni qanday amalga oshiradi?
2. Soliq tizimini tuzishda qanday tamoyillarga amal qiladilar?
3. Soliqlar qanday guruhlariga bo'linadi?
4. Nimalar soliqqa tortish obyekti bo'lib xizmat qiladi?
5. Zamonaviy soliq tizimlarini aytib bering.

# 14 - B O B. IQTISODIY JARAYONNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI

---

## 14.1. KONYUNKTURA SIYOSATI (DAVLAT VA DAVLAT TASHKILOTLARI)

### **Konyunktura siyosati (Davlat va davlat tashkilotlari)**

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni o'tkazish besh asosiy tamoyildan kelib chiqadi:

- *iqtisodiyotning siyosatdan ustunligi. Iqtisodiyot mafkuradan xoli bo'lishi kerak;*
- *davlat — bosh islohotchidir;*
- *bozor iqtisodiyotiga izchillik bilan o'tishni amalga oshirishda iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solib turish richaglarini qo'ldan chiqarib bo'lmaydi, iqtisodiyotning boshqarilishini ta'minlash kerak;*
- *hamma joyda boshqaruvning barcha bosqichlarida ijro intizomini va huquqiy tartibotni mustahkamlash, respublika konstitutsiyasi va qonunlarining ustuvorligini ta'minlash;*
- *aholining, ayniqsa, kam ta'minlangan qatlamlarini ijtimoiy jihatdan himoya qilish mexanizmini yaratish birinchi darajadagi ahamiyatga egadir.*

Bozor munosabatlarini shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, keyingi bosqichlarga o'tish joriy davr vazifalarining bajarilishiga qarab amalga oshiriladi, boshboshdoqlikdan qochish, qiyinchiliklarni yengib o'tish, ijtimoiy siyosiy vaziyatning mo'tadilligini ta'minlash imkonini beradi.

Shunday qilib, *ikkinchi tamoyildan* kelib chiqqanda bosh parametr davlatdir.

Respublikada «O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi haqida» qonun qabul qilingan. U quyidagi bo'limlardan iboratdir:

- Umumiy qoidalar;
- Vazirlar Mahkamasining tarkibi va shakllantirilishi;
- Vazirlar Mahkamasining Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasining boshqa davlat organlari bilan munosabatlari;
- Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari;
- Vazirlar Mahkamasining faoliyatini tashkil qilish va yuritish tartibi;

Qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlis hisoblanadi.

Vazirlar Mahkamasi — bu respublikaning hukumatidir. U ijroiya hokimiyati organidir. Bu organ iqtisodiyotning ijtimoiy va ma'naviy sohalarini samarali ishlashga rahbarlik qilishni qonunlarning va Oliy Majlisning qarorlari, shuningdek, respublika prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining ijrosini ta'minlaydi.

Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari va o'zi tuzgan xo'jalik boshqaruvi, ularning kelishilgan holda faoliyat yuritishlarini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Vazirlar Mahkamasining raisi O'zbekiston Respublikasining prezidentidir.

Vazirlar Mahkamasi tartibiga Bosh vazir, Bosh vazirning birinchi o'rinbosarlari, vazirlar, davlat qo'mitalari raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvining boshqa organlarining rahbarlari kiradilar.

Bosh vazir, uning o'rinbosarlari Vazirlar Mahkamasining a'zolari Respublika Prezidenti tomonidan tayinlanib, keyin oliy majlis tomonidan tasdiqlanadilar.

Vazirlar Mahkamasining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqish;
- Respublika budjetining asosiy parametrlarini unga kiritiladigan o'zgarishlarni ishlab chiqish va tasdiqlash uchun Oliy Majlisga taqdim qilish, eng muhim kompleks tarmoqlararo va mintaqaviy dasturlarini amalga oshirishda vazirliklar, davlat qo'mitalari, muassasalar va boshqa idoralar, davlat va xo'jalik boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasining guruhlariga rioya qilinishini ta'minlash;
- mahalliy ijroiya hokimiyati idoralarining hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy rivojlantirish masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirish.

Vazirlar Mahkamasining asosiy vakolatlari quyidagilardir:

- iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni boshqaradi, mulkning barcha shakllarining qo'shiluvi va tengligi, iqtisodiyotning monopoliyadan chiqarilishi asosida erkin tadbirkorlik yuritish uchun sharoitlar yaratadi;
- xo'jalik yuritishning yangi shakllarini — konsernlar, konsorsiumlar, tarmoqlararo birlashmalar, turli uyushmalarining tuzilishi va mustahkamlanishiga yordam beradi;

- O‘zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash bo‘yicha choralarni amalga oshirishga yordam beradi, narxlarning yagona siyosatini o‘tkazish mehnatga haq to‘lashning kafolatlangan miqdori va ijtimoiy ta‘minotning kafolatlangan darajasini ta‘minlash bo‘yicha choralarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- Respublika budjetini, shuningdek, bashorat (prognoz)larni, O‘zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning eng muhim dasturlarini ishlab chiqish va ijro etishni tashkil qiladi;
- boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar va respublikani boshqarishning boshqa davlat va xo‘jalik idoralarini qayta tashkil qilish va tugatish haqida takliflarni ishlab chiqadi;
- fan va texnikani rivojlantirish, tabiiy omillardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo‘yicha choralarni amalga oshiradi;
- sog‘liqni saqlash xalq ta‘limi sohalarini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi, madaniyatni rivojlantirishga yordam beradi;
- tashqi iqtisodiy faoliyat, ilmiy-texnik va madaniy hamkorlik sohalariga rahbarlikni amalga oshiradi.

Asosiy iqtisodiy boshqaruv idoralariga O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiyot vazirligi kiradi.

Prezidentning farmonida ushbu vazirlik oldida turgan asosiy vazifalar ko‘rsatib o‘tilgan. Bular:

- iqtisodiy islohotlarning aniq yo‘nalishlari, yo‘llari va usullarini belgilash, respublika iqtisodiyotini boshqarishning bozor mexanizmlarini ta‘minlash;
- makroiqtisodiy moddiy balanslarni, milliy raqam (schyot)-lardan foydalanib, O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning bashoratlarini va hisob-kitoblarning bashorat variantlarini ishlab chiqish;
- Moliya vazirligi bilan birgalikda to‘lov balanslarini shakllantirish va ularning bajarilishini nazorat qilish;
- real iqtisodiyot sektorida optimal sur‘at va proporsiyalarni, mineral va xomashyo omillaridan oqilona foydalanishi, O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi va makroxo‘jalik aloqalarga integratsiyalashishini ta‘minlovchi investitsiya dasturlarini tayyorlash va amalga oshirilishini muvofiqlashtirish;

- iqtisodiyot, madaniyatning rivojlanishi, xalq turmush darajasi va farovonligini o‘rishini hisobga olishning zamonaviy, indikativ, tahliliy hamda statistik usullari, vositalarini rivojlantirish va chuqurlashtirish.

Ushbu vazirlik O‘zbekistonni rivojlantirishning strategiyasini, uning ustuvor yo‘nalishlari va tashqi iqtisodiy aloqalarni ishlab chiqish, respublikaning iqtisodiyot majmuasini jahon hamjamiyatga kirishni hisobga olib samarali ixtisoslashtirilishi uchun javob beradi.

**Iqtisodiyot vazirligi** respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning konsepsiyalarini va qisqa muddatli istiqbolga mo‘ljallangan bashoratlarini, shuningdek, yirik iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni iqtisodiyotning moddiy-moliyaviy muvozanatlantirilishi, tabiiy, mehnat omillaridan va yaratilgan ishlab chiqarish potensialidan samarali foydalanish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Bu vazirlik respublika idoralari, vazirliklari, muassasalari, konsernlari, uyushmalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasining hukumati, hokimliklar, korxonalar tashkilotlarning respublikani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish parametrlarini bashorat qilish va belgilash sohasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirishni amalga oshiradi.

Iqtisodiyot vazirligi vazifalariga respublika aholisining moddiy farovonligini, uning kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilishni mustahkamlash bo‘yicha takliflarni asoslash; xalqning turmush darajasini ko‘tarish yo‘llari va yo‘nalishlarini bashorat qilishni amalga oshirish kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi fan va texnologiyalar markazi fan va texnika bo‘yicha davlat qo‘mtasini qayta tashkil qilish natijasida tuzilgan.

Ushbu markaz tomonidan hal qilinadigan bosh vazifalar quyidagilardir:

- davlatning ilmiy-texnik siyosatini ilmiy-texnik taraqqiyotini ko‘rsatib, shakllantirish va o‘tkazish;
- ilmiy-tadqiqot va loyiha-konstruktorlik tashkilotlarining yirik ilmiy-texnik dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish, istiqbolli ishlanmalarni va texnologiyalarni joriy qilish, fan va ishlab chiqarishning aloqalarini mustahkamlashni tashkil qilish bo‘yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirishni ta‘minlash;
- fan va texnika sohasining infratuzilmasini tashkil qilish va rivojlantirish;

- respublikaning xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikda ishtirokining ustuvor va asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlar bilan fan-texnika kadrlarni tayyorlash sohasidagi aloqalarni rivojlantirish;
- fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotning tarmoqlariga joriy qilinishini nazorat etish.

### **Oʻzbekiston Respublikasining mulkni boshqarish va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha Davlat Qoʻmitasi**

Ushbu qoʻmitaning vazifalari quyidagilardir:

- respublikaning davlat mulkini respublika va kommunal mulk (maʼmuriyat-hududiy tuzilmalar mulki)ni boʻlinishini amalga oshirish;
- davlat tasarrufidagi chiqarilishi va xususiylashtirilishi mumkin boʻlmagan korxonalar va mulkning turlari hamda guruhlarini aniqlash boʻyicha takliflarni ishlab chiqish;
- past rentabelli va zarar koʻrib ishlaydigan korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish haqida qaror qabul qilish.

### **Oʻzbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi**

Vazirlikning vazifalari:

- davlatning tashqi iqtisodiy siyosatini shakllantirish va oʻtkazish;
- iqtisodiyotning va aholining import mahsulotlariga talabini qondirishdir.

### **Oʻzbekiston Respublikasining Moliya vazirligi**

Uning maqsadlari quyidagilardir:

- respublika hududida yagona moliya, soliq va narx siyosatini shakllantirish va oʻtkazish boʻyicha ishlarni muvofiqlashtirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va aholini ijtimoiy jihatdan muhofaza qilishning moliyaviy barqarorligini taʼminlash (tashkil etish).

Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligining bosh vazifasi — *budjetni tayyorlash va uni koinflyatsion moliyalashtirishdan iborat.*

Bu vazifani hal qilish mamlakatning budjetini tayyorlash; budjetning Oʻzbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanishi; budjetni ijrosini moliyalashtirish; xarajatlarni nazorat qilish kabi bosqichlar orqali amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasining Moliya vazirligi mamlakatni

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishga moliyaviy tizim orqali faol ta'sir ko'rsatadi; moliyaviy omillarning hamma turlarining o'sishini ularni ishlab chiqarishning ustuvor yo'nalishlariga, kompleks iqtisodiy dasturlarini, mamlakatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlashni moliyalashtirishga, zarur davlat zaxiralarini yaratishga konsentratsiyalash bo'yicha choralarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi. U mulk shaklidan qat'i nazar, korxonalarda moliyaviy intizomga rioya etilishining, ularning davlat oldidagi moliyaviy majburiyatlarining bajarishlarini nazorat qilinishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligining asosiy vazifalari belgilab qo'yilgan. Bularga quyidagilar kiradi:

- qimmatbaho qog'ozlar bozorining shakllanishi, qimmatbaho qog'ozlarning emissiyasi va harakati ustidan nazoratni amalga oshirish;
- moliya bozorini shakllantirish bo'yicha ishlarni muvofiq-lashtirish;
- hissadorlik jamiyatlarining yagona registrini yuritish;
- korxonalarining qimmatbaho qog'ozlarini ro'yxatga olish;
- xorijiy investorlarning investitsiya faoliyatini moliyaviy va soliq jihatdan tartibga solishni amalga oshirish;
- moliya, budjet, valuta va soliqlar sohasida rejalashtirishning va moliyalashtirishning usullarini takomillashtirish;
- soliqqa tortish, monopoliyaga qarshi siyosat, baholarni shakllantirish, sug'urtalash, valuta moliyaviy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasiga oid qonunchilik va me'yoriy hujjat-larni ishlab chiqishda qatnashish.

Bu vazirlik boshqa markaziy iqtisodiy idoralar: O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiyot vazirligi bilan — mamlakatning yig'ma moliyaviy balansini tuzish bo'yicha: O'zbekiston Respublikasining monopoliyadan chiqarish va Raqobatni rivoj-lantirish bo'yicha Davlat qo'mitasi bilan — ulgurji chakana va xarid narxlarini, shuningdek, respublikada monopoliyaga qarshi siyosatni ishlab chiqishda: Markaziy bank bilan — pul muomas-lasini mustahkamlash, respublika aholisining pul daromadlari va xarajatlarini muvozanatlashtirish yuzasidan choralarni ishlab chiqish bo'yicha yaqindan ish olib boradi.

**Markaziy bank.** Iqtisodiyotni boshqalarga va bank tizimini nazorat qilishda uning roli beqiyosdir.

**Markaziy bankning bosh maqsadi** milliy valutaning mo'tadilligini ta'minlashdir. Bu atama o'z ichiga pul massasi-

ning mo‘tadilligini, narxlarning va milliy valutaning almashish kursining mo‘tadilligini oladi.

## 14.2. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TASHQI IQTISODIY SIYOSATI

**Xalqaro iqtisodiy hamkorlik** — bu davlatni o‘rtasidagi ko‘p qirrali tashqi-iqtisodiy aloqalarning obyektiv jarayonidir.

Tashqi iqtisodiy aloqalar tovarlar ayirboshlash, ishlab chiqarishni va ilmiy-texnik hamkorlikni ixtisoslashtirish va kooperatsiyalash, shuningdek, iqtisodiy hamda texnik yordam ko‘rsatish, qo‘shma korxonalar tuzish va iqtisodiy hamkorlikning boshqa shakllarini qamrab oluvchi xalqaro xo‘jalik va savdo-siyosiy munosabatlaridir. Bu munosabatlarning barchasi tovar ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasidir.

Tashqi savdo orqali **xalqaro mehnat taqsimoti** amalga oshiriladi. Buning natijasida ishlab chiqarish jarayonida mamlakatlar o‘rtasida ijtimoiy mehnatning iqtisodiyoti va uning natijalarining ayirboshlashi sodir bo‘lishi kerak. Xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish qo‘yilgan iqtisodiy maqsadlarga tezroq va ijtimoiy mehnatni kamroq sarflab erishishga imkon beradi. Bundan mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirish uchun hamma shakldagi tashqi iqtisodiy almashinuv miqyoslarini oshirish maqsadga muvofiqdir degan xulosa kelib chiqadi.

**Xalqaro tovar almashinuvi** mamlakat uchun eksport tovarlarini ishlab chiqarishga eksportdan tushadigan mablag‘ hisobiga importning o‘rnini bosadigan tovarlarni ishlab chiqarishga qaraganda kamroq ijtimoiy mehnat sarflaydigan hollardagina maqsadga muvofiq bo‘ladi.

**Xalqaro mehnat taqsimoti** ayrim mamlakatlarning o‘zlari almashinadigan ma‘lum bir mahsulotlar turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashishlariga yordam beradi. Hech qaysi mamlakat agar u boshqa davlatlardan ajralib, yakkalanib qolsa, o‘z xo‘jaligini katta sur‘atlar bilan rivojlantira olmaydi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti bir davlat hududlaridan tashqariga chiqayapti. Mahsulotlarning ko‘plab turini milliy ishlab chiqarish borgan sari ichki talablardan ko‘proq darajada o‘tib bormoqda va ishlab chiqarish eksportini hisobga olgan holda tashkil etilmoqda. Shu bilan bir vaqtning o‘zida xalq xo‘jaligining bir qator talablarini qondirish mahsulotni chetdan olib kelishga mo‘ljallantirilgan.



**Tashqi iqtisodiy aloqalarni** rivojlantirish bir vaqtning o'zida chetdan olib kelinishi iqtisodiy jihatdan foydaliroq bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishdan voz kecha borib, ustunlikni mamlakat uchun eng samarali bo'lgan tarmoqlarda konsentratsiyalash (mujassamlashtirish) imkonini beradi. Shu munosabat bilan milliy xo'jalik tuzilmasini butunlay bo'lganidek, uning alohida olingan tarmoqlarini ham takomillashtirish uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish aholining talablarini to'laroq qondirishga yordam qiladi.

O'zbekiston Respublikasida «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonun qabul qilingan bo'lib, u respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni olib borish tartibini belgilaydi va xalqaro huquqning umume'tirof etilgan me'yorlariga muvofiq, mulk shaklidan qat'i nazar, tashqi iqtisodiy aloqalar ishtirokchilarining huquqlari, manfaatlari va mulklarining himoya qilinishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalanishining huquqiy asoslarini yaratadi.

**Tashqi iqtisodiy aloqalar** faqat davlat darajasidagina emas, mintaqalar darajasida ham shakllanishi lozim. O'zbekistonda xo'jalikni mustaqil olib borish tendensiyalari yorqin aks etib turgan mintaqalarga Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Xorazm viloyatlari kiritilishi mumkin.

Xo'jalik yuritishning bozor tamoyillari iqtisodiyotning davlat va mahalliy o'z-o'zini boshqarish omillarini chegaralashni talab qiladi. Mintaqaviy hokimiyat idoralari rivojlanish mezonlarini mustaqil tanlashlari, investitsiya siyosatini mustaqil olib borishlari mumkin. Davlat esa umumiy masalalarni hal qilishi va qay-sidir guruhga imtiyozlar bermasligi kerak.

Mintaqaning *tashqi iqtisodiy aloqalari* o'z xo'jaliklarining afzalliklarini ochib berishi, bunda mahalliy omillardan samarali foydalanishlari lozim.

Raqobatga bardoshlilikning tarkibiy qismi bo'lgan tovarlarning sifatini yaxshilash masalalari hal qilinishi lozim.

**Importning** nomukammalligi va uni noan'anaviy qo'llash muhim masalalardandir. Respublikaning importida mamlakat o'zi ishlab chiqara olishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning ulushi kattadir. Gap oziq-ovqat, texnologik uskunalarning ko'pgina turlari haqida ketmoqda.

Importdan mavjud disbalanslarni bartaraf etish uchun foydalanish unga stixiyali tasnif kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida ko'proq tayyorgarlikka ega bo'lgan sanoat sektorlarida, alohida korxonalar (birlashmalar)da, eksportga mo'ljal oldirilgan yangi korxonalarni qurish va hududiy omillarni hisobga olgan ishlab chiqarishni konsentratsiyalash masalasi hal qilinishi kerak.

Mintaqalarda bo'lganidek, respublikada ham *tashqi iqtisodiy aloqalarning infratuzilmasini* modernizatsiyalash o'tkazilishi, ularning ishonchiligi yuklarning transportirovka qilish (tashib keltirish) saqlash va ishlov berish tizimi bilan ta'minlanishi lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyat *uchun malakali kadrlarni tayyorlash* muhim masaladir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati quyidagi asosiy *tamoyillarga* asoslanadi:

1. Sherikning ichki ishlariga aralashmaslik va uning davlat suverenitetiga qat'iy rioya qilish.

2. Tomonlarning to'liq tengligi.

3. O'zaro foydali hamkorlik.

4. Xorijiy davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar va kelishuvchilar bo'yicha olingan majburiyatlarni vijdonan, halol va aniq bajarish.

5. Ikki tomonlama eng ko'p qulaylik yaratish tamoyili. Bunga o'zlari ham muqobil tayyorgarligini ko'rsatayotgan hamma xorijiy davlatlar bilan o'zaro foydali tovar ayirboshlash izchillik bilan o'tkazilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy strategiyasi quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatning tashkiliy-huquqiy mexanizmini va tegishli iqtisodiy infratuzilmasini yaratish.

2. Eksport ixtisoslashini aniqlash, o'tkazilayotgan mahsulotning raqobatga bardoshlilikini hisob-kitob qilish, sheriklar izlash.

3. Jalb qilingan kapitaldan ichki etaplarini qondirish va ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish uchun oqilona foydalanish. Xorijiy kapitalni to'g'ridan-to'g'ri jalb qilish tashqi iqtisodiy siyosat doirasidagi faollikning muhim yo'nalishidir. Xorijiy mablag'lar va moddiy vositalarni taqsimlash asosan mintaqaviy tasnifga ega. Shuning uchun hududiy kapitalning kiritilishi uchun jozibali obyektlarga aylantirishlari mumkin. Lekin shuni ham aytib ogohlantirish kerakki, mutlaqo alohidalanish, mintaqa darajasida mustaqil tartibga solish masalani hal qilishning imkoniyati yo'q, chunki yagona bojxona tizimi mavjuddir.

Davlatning bir *butun mavjud* bo'lishining *zaruriy sharti* mamlakat ichida tovarlar va pullarning harakatining har qanday cheklovlaridan ozod bo'lgan **ichki bozorning** birligidir.

Ichki bozorda talab va taklifning keskin disbalansi (muvozanatsizligi) sharoitlarida davlat tomonidan tartibga solishning asosiy choralardan biri **litsenziyalash va kvotalash**.

O'zbekiston Respublikasida «Litsenziyalash va kvotalash tartibi» haqidagi nizomga amal qiladi. Unda litsenziyalashtiriladigan tovarlar ro'yxati, kvotalarni o'rnatish va taqsimlash hamda litsenziya berish tizimida keltirilgan. Eksport import litsenziyalarini berishni tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi amalga oshiradi. Mintaqaviy kvotalar markaziy hokimiyat tomonidan o'rnatiladi va ularning taqsimoti va mintaqalarga yetkazilishini tashkil etuvchi tegishli vazirliklar va idoralarga xabar qilinadi. Soliqlarga muhim o'rin ajratiladi. Bitishuvning o'zi, savdo amali, ssuda kelishuvi, tovarning eksporti, importi bo'lganidek, bu bitishuvdan olingan daromad ham soliqqa tortilish obyekti bo'lib xizmat qilishlari mumkin.

*Kreditlar taqdim qilish shartlari* tashqi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishni muhim vositasiga aylanmoqda. Kreditlar bozori ikki shaklda: umumiy va loyihaviy kreditlar shaklida namoyon bo'ladi. Ammo munosabatlarning masalan, faktorning oziq-ovqat kreditlari, vekselsiz kreditlash va moliya amallari kabi yangi shakllari ham kiritilishi kerak.

Faktoring — bu disponentlash sohasidagi xizmat turidir. U bozorga yangidan kiruvchilarga, shuningdek, mayda va o'rta firmalar uchun mo'ljallangan.

Uning mohiyati: faktor — firma tomonidan mahsulotni yetkazib beruvchilardan tovar jo'natish bo'yicha qisqa muddatli to'lovlarni kattaroq qismini zudlik bilan qoplash imkoni, qarzlarni to'liq uzish, hisoblarni olib borish bo'yicha xarajatlarni kamaytirish kafolati bilan sotib olishda mujassamlashgan.

Xorijiy investor ishlab turgan korxonalarining aksiyalarini sotib olishlari mumkin bo'lgan qimmatbaho qog'ozlar bozori haqida unutmazlik kerak. Shuning uchun sanoatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish tamoyillariga taalluqli masalalarni aniqlash muhimdir.

Iqtisodiy samaradan tashqari *tashqi iqtisodiy aloqalar* natijalari *ilmiy-texnik, ijtimoiy siyosat natijalarga* erishish nuqtayi nazaridan ham baholanadi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning ilmiy-texnik natijalari fundamental bilimlar sohasidagi ilmiy-texnik yutuqlarni qoʻlga kiritish, respublika va chet ellik olimlar oʻrtasida ijodiy aloqalar oʻrnatilishdan iboratdir.

**Ijtimoiy natijalarga** hamkorlik asosida sogʻliqni saqlash, xalq taʼlimi sohasida taʼminlanadigan ijobiy siljishlar, mehnat sharoitlarining yaxshilanishi kiradi.

Xalqaro hamkorlikning samarasini aniqlashda *iqtisodiy natijalar va xarajatlar solishtiriladi*.

**Iqtisodiy natijalar** deyilganda import va shu turdagi mahsulotlarning oʻzida mamlakatning import mahsulotlariga oʻxshash mahsulotni mamlakat ichida ishlab chiqarishdan voz kechish munosabati bilan amalga oshirilmagan xarajatlarini, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida import mahsulotlaridan foydalanishning samarasini ifodalovchi qiymat bahosi tushuniladi.

**Xarajatlar** deyilganda mahsulotni ishlab chiqarishga ketadigan kapital mablagʻlar va xarajatlar hamda ishlab chiqarish jarayoniga yordam berish uchun qilinadigan, tarkibiga transport sarflari, oʻrnini bosish xarajatlari, tabiiy omillarning cheklanganligini aks ettiruvchi mahsulotni oxirigacha isteʼmol qilmaslikdan iqtisodiyotning yoʻqotishlari (zararlari)ni kiritgan xalq xoʻjaligi xarajatlari; tashqi savdo tashkilotlari va boshqalarning xarajatlari tushuniladi.

Shuningdek, iqtisodiy samarali boʻlgan tashqi iqtisodiy bitishuvlarning u yoki bu tomonini tasniflaydigan xususiy koʻrsatkichlar ham qoʻllaniladi. Bunday koʻrsatkichlarga importning valuta samaradorligi koʻrsatkichi kiradi.

Eng maqbul va iqtisodiy jihatdan foydali variant milliy iqtisodiyotning jahon xoʻjaligi iqtisodiyoti bilan integratsiyalashishi, uning foyda va imkoniyatlaridan foydalanishdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Tashqi iqtisodiy aloqalar nimalardan tashkil topadi?
2. Oʻzbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini tubdan qayta qurish nima bilan bogʻliq?
3. Tashqi iqtisodiy siyosatni yuritish uchun qanday vositalardan foydalaniladi?  
Oʻzbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy strategiyasi nimadan iborat?
5. Tashqi iqtisodiy aloqalarning iqtisodiy samaradorligini baholash qanday amalga oshiriladi?

## 15 - B O B. MARKAZIY BANKNING PUL-KREDIT SIYOSATI

---

### 15.1. INFLYATSIYA, UNING O‘LCHAMLARI VA NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI

**Inflyatsiya** — iqtisodiyotga xos jarayon bo‘lib, unda muomala sohasi keragidan ortiq (haqiqiy-oltinga bo‘lgan talab bilan solishtirganda) qog‘oz pul bilan ular haddan ortiq chiqarilgani sababli to‘lib-toshib ketadi. Inflyatsiya chiqarilgan qog‘oz pullar miqdori o‘zgarmagan hollarda tovarlar ishlab chiqarishning qisqarishi natijasi ham bo‘lishi mumkin. U baholarning o‘shishi aholining turmush darajasini pasayishi bilan kuzatiladi.

«Inflyatsiya deyilganda, — deydi Nobel mukofoti sovrindori Milton Fridman, — men har doim va har yerda chiqarilgan mahsulotga nisbatan pulning ortiqchaligini keltirib chiqargan Pul fenomeni sifatida namoyon bo‘ladigan narxlarning beqaror va uzluksiz o‘shishini tushunaman». Bundan monetaristik ta‘rif, inflyatsiyaning og‘irlik markazi muomala sohasida joylashganini taxmin qiladi. Bunday pozitsiyadan kelib chiqilganida davlatning qayta ishlab chiqarish jarayoniga cheklangan aralashuviga yo‘l qo‘yiladi. Kapitalistik nazariyalarda bundan farqli o‘laroq, inflyatsiya deyilganida, sabablari taklif tomonida bo‘lganidek, talab tomonida bo‘lgan ortiqcha xarid talabi tushuniladi.

**Inflyatsiya** — iqtisodiy organizmning moliyaviy izdan chiqishga, tovarlar va pul o‘rtasidagi statistik tenglik holatiga erishish uchun urinishlarga sog‘lom reaksiyasi, javobidir.

Shu bilan bir vaqtning o‘zida nazariya inflyatsiyaning quyidagi oqibatlarini ham ko‘rsatib o‘tadi:

- milliy daromadning va moliyaviy boylikning qayta taqsimlanishi;
- soliq stavkalari va shkalalari tizimining buzilishi;
- mehnatkashlar real ish haqlarining pasayishi.
- Inflyatsiyaning uch turi mavjud: bosiq, yo‘rg‘alovchi, giperinflyatsiya.

**Bosiq** inflyatsiya paytida narxlar sekin (bir yilda 10 foizdan kam) o‘sadilar. Pulning qiymati saqlanadi. Nominal narxlarda kontraktlar imzolashda tavakkal — xavf yo‘q.

**Yo'rg'alovchi** inflyatsiyada narxlar yiliga 20 foizdan 200 foizga o'sadi. Kontraktlarning ko'pchiligini narxlarning o'sishi yoki chet el valutasini (masalan, AQSH dollari)ga bog'laydilar. Pul tezlik bilan tovarlarga moddiylashtiriladilar va endi odatdagi foiz stavkalari bo'yicha qarzi berilmaydi.

**Giperinflyatsiyada** muomaladagi pul miqdori va narxlar astronomik sur'atlar bilan o'sadilar. Jamiyatning eng ko'p ta'minlangan tabaqalarining ham farovonligiga putur yetadi. Narxlar va ish haqi o'rtasidagi farq fojiaiviy tus oladi. Inflyatsiyaning bosiq inflyatsiyadan giperinflyatsiyaga o'sib o'tishi majburiy tarzda sodir bo'ladigan, ya'ni qochib qutilib bo'lmaydigan jarayon emas. Giperinflyatsiya kamdan-kam uchraydigan hodisa, lekin bu gapni yo'rg'alovchi inflyatsiya haqida aytib bo'lmaydi. U xuddi uzoq vaqt davom etadigan ishsizlik davrlariga o'xshab hatto sanoatni rivojlangan mamlakatlar (Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya)da ham vaqti-vaqti bilan ro'y berib turadi. Davlatning aralashuvi (pul, fiskal siyosati) inflyatsiyani iqtisodiy jihatdan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralarda ushlab turishga imkon beradi.

#### **Inflyatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini:**

- naqd pullarning qadrsizlanishi: inflyatsiyani o'sishi bilan aholining real daromadi kamayib boradi;
- daromadlar va boylıklar turli sinflar o'rtasida taqsimlanadi; mehnatkashlarning ahvolidan yomonlashgani turmushning qimmatlashgani, turmush darajasining pasaygani, ishsizlikda aks etadi, namoyon bo'ladi. Ishsizlik mehnatkashlarning turmush darajasining pasayishini asosiy sabablaridan biridir. Yana bir sabab ish haqining qisqarishi «qashshoqlik chegarasi»ga sirg'anib tushish hollarining 40 foizidan ortig'i 80-yillarda ishni yo'qotish bilan bog'liqdir. Inflyatsiyadan keyin ishsizlikning yuqori darajasi uzoq vaqtgacha saqlanib qoladi. Iqtisodiy nazariyalarga ko'ra, inflyatsiyaning va ishsizlikning o'sishi o'rtasida bog'liqlik qonuniyati bor. Unga ko'ra, inflyatsiya darajasini 1 foiz kamaytirish uchun ishsizlikning o'sishini 2 foizga oshirish kerak.

Davlat inflyatsiya bilan kurashni turli usullar bilan olib borishi kerak. Bular: pul siyosatini mustahkamlash, daromadlarni tartibga solish, narxlarni chegaralash va hokozolardir.

#### **Inflyatsiyaga qarshi siyosat o'z ichiga quyidagilarni oladi:**

- talabni qisqartirishni monetar va moliyaviy choralarini,

sanoatga ishlab chiqarishning samaradorligini ko‘tarishda va taklifni oshirishda yordam ko‘rsatish;

- pul daromadlarini o‘sishini real daromadlar bilan bir xil darajada ushlab turish uchun daromadlarni tartibga solish siyosatini ishlatish. Boshqacha qilib aytganda, odamlarning daromadlari bu daromadlar sarflanadigan tovarlar va xizmatlar taklifidan tezroq o‘smasligi kerak.

#### **Inflyatsiyaga qarshi choralar:**

- inflyatsion kutishlarni mo‘tadillashtirish;
- pulni chiqarishni cheklash;
- budjet tanqisligi muammosini hal qilish;
- soliqqa tortish tizimini isloh qilish;
- iqtisodiyot tuzilmasini qayta qurish;
- valutar kursini tartibga solish;
- iqtisodiyotning tovarlilik darajasini oshirish;
- xususiyashtirish;
- jamg‘armalar me‘yorini oshirish va ularning sarflanishini kamaytirish usullari;
- konfiskatsiya (olib qo‘yish) tipidagi pul islohoti.

## **15.2. MARKAZIY BANKNING KREDIT TIZIMIDAGI POZITSIYASI VA VAZIFALARI**

### **Markaziy bankning vazifalari:**

1. Milliy valutaning mo‘tadilligini ta‘minlash.
2. To‘lov aylanmasini ta‘minlash.
3. Xususiy banklar ustidan davlat nazoratini olib borishga yordam berish.

### **Bank sohasi faoliyatida:**

- likvidlikni ta‘minlash;
- bank tizimining mo‘tadilligini ta‘minlash.

### **Markaziy bankning choralari**

**1. Ochiq bozordagi amallar** — bu moslanuvchan valuta siyosiy choradir. U qimmatbaho qog‘ozlarning «ochiq bozor» da sotilishi yoki sotib olinishida ifodalanadi. Pul massasining ekspansiv (sotib olish) yoki restriksion (sotish) siyosatini olib borish uchun foydalaniladi.

**2. Hisob stavkasi siyosati** — pul muomalasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solish choralari. U hisob stavkalarining turli variantlarini qo‘llashda ifodalanadi. Ya‘ni stavkalar turli vaziyatlar-

da turlicha miqdorda belgilanadi yoki moliyaviy qudrati har xil bo'lgan tashkilotlarga stavkalar darajasi har xil (boshida ko'proq, oxirigacha pastroq) qilib belgilanishi. Kredit faoliyatini boshqarish uchun qo'llaniladi.

**3. Minimal zaxiralar siyosati** — bu pul-kredit siyosati-ning eng katta chorasidir. Tijorat banklari Markaziy bank-ning hisoblarida saqlashga majbur bo'lgan zaxiralar me'yori-ni variatsiya qilishda ifodalanadi. Tizimdagi kredit massasini tez siqish yoki kengaytirish uchun vosita sifatida qo'llanila-di.

**Emissiya banki** o'z vositalari (choralari) yordamida xaridor-larda pullarning bo'lishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsata olmaydi. Ularning miqdorini kamaytirar yoki ko'paytirar ekan u buning uchun faqat impuls (turtki) bera oladi, xolos. Monetar impulslarni ko'chirish shuning uchun ham shunday mexanik aloqaga eng kam darajada mos keladi.

### **Pul-kredit siyosati**

Pul-kredit siyosati — pul emissiyasining hajmini, pul mas-sasining kattaligi va tuzilmasini inflyatsiya o'sishining oldini olish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini qo'llash uchun tartib-ga solish.

**Kredit** — odatda, foiz to'lab qaytarilish sharti bilan pul yoki tovar shaklida beriladigan ssuda, uning harakati davomida kre-ditor va qarzdor o'rtasida ma'lum iqtisodiy munosabatlar yuza-ga keladi.

Kredit munosabatlarining mohiyati shundaki, almashinish ekvivalentini to'lash muddatlari bilan variatsiyalarni qo'llash (variatsiyalash) iqtisodiy tizimdagi ayrim tovar ishlab chiqa-ruvchilarning ishlab chiqarish sikllarining vaqtincha mos kelmasligini bartaraf etish imkonini beradi. Kreditning asosini bitishuvning ssuda deb ataluvchi tipi tashkil qiladi.

**Kredit** quyidagi **tamoyillar** asosida amalga oshiriladi:

- muddatlilik;
- qaytarishlilik;
- haq to'lashlik;
- moddiy ta'minlanganlik;
- maqsadga yo'naltirilganlik.

### **Kreditning vazifalari:**

- iqtisodiyotda pul aylanmasining tezlashishi tufayli iqtisodiy jarayonlarni tezlashtirish;



- haqiqiy pullarni kredit pullari va kredit amallari bilan almashtirish;
- kredit bozorini shakllantirish.

*Bozor krediti* — to‘lov vositalarining har xil turlariga talab va taklif vujudga keladigan hamda o‘zaro ta’sir qiladigan bozorlarning umumiy belgisidir.

*Kreditga talab* — iqtisodiy subyektlarning o‘z asosiy va aylanma kapitallarini sotib olish: davlat budjetining tanqisligini qoplash; banklarning to‘lov qobiliyati va likvidlikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan kredit omillariga bo‘lgan talablar oqibatida yuzaga kelgan.

*Kredit taklifi* iqtisodiy subyektlarda muqobil loyihalarga vaqtincha yo‘naltirish uchun ortiqcha omillarning paydo bo‘lganligi oqibatida yuzaga keladi. Uy xo‘jaliklari shaxsiy jamg‘armalarini loyihalarga joylashtiradilar.

Kreditlash subyektlari, kreditlash usuliga, shuningdek, kreditlash jarayonining makon-zamon (joy va vaqt) tarkibiga qarab *kredit* turli xil shakllar bo‘yicha tasniflanadi:

- **Subyektlar bo‘yicha** — kreditlar va qarz oluvchi.
- **Kreditlash usuli bo‘yicha** — natural va pul.
- **Kreditlash muddati bo‘yicha** — qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli, maxsus uzoq muddatli.
- **Kredit makoni tasnifi bo‘yicha** — davlatlararo davlat, bank, tijorat, iste’mol va boshqa kreditlar.

**Pul-kredit tizimi.** Bozor xo‘jaligi subyektlari orasida muhim o‘rinni egallaydi. U pul bozorlarining rivojlanishini boshqarib boradi, kapitalni shakllantiradi va unga iqtisodiyotning bir sektoridan ikkinchisiga oqib o‘tishini tashkil qiladi, investitsiya iqlimi (muhiti)ni yaratadi va uning qanday bo‘lishini belgilaydi, pul-kredit muomalasida va to‘lov aylanmasida o‘yin qoidalarini belgilaydi.

Kredit-bank tizimining tuzilmasi quyidagilarning yig‘indisidan iborat:

- ular orqali moliyalashtirish amalga oshiriladigan institutlar va bozorlar;
- ular orqali amalga oshiriladigan shakllar;
- kredit tizimi ichidagi ayrim xususiy bozorlarning miqdoriy roli;
- ular yordamida kredit bozorlarining vazifalari va bozorlardagi o‘yin qoidalari belgilanadigan reglamentatsiyalar.

### **Kredit tizimining institutlari:**

- pul va kreditlarning oqib o'tishini (moliyaviy institutlar) amalga oshiradilar;
- tartibga solish va nazorat yordamida (tartibga soluvchi institutlar) pul bozorlarini ishlashi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadilar;
- o'yin qoidalariga rioya qilinishini ta'minlaydilar (tartibga soluvchi institutlar).

### **Kredit tizimining vazifalari:**

1. Pul-xo'jalik faoliyatini—kredit institutlari amalga oshiradilar.

2. Tartibga soluvchi faoliyat — uni Markaziy bank va uning nazorat bo'yicha idoralari amalga oshiradilar.

3. Tartibga soluvchi vazifalar — ularni Markaziy bank, Moliya vazirligi amalga oshiradilar.

Kredit-bank tizimining pul xo'jalik vazifalari tuzilmasiga muvofiq tijorat banklarining asosiy amallari quyidagilardir:

**Passiv amallar** — pul omillarini jalb qilish masalan, depozitlarni qabul qilish, aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotish. Passiv bitishuvlar qarzlarni miqdorini oshiradi.

**Aktiv amallar** — pul omillarini joylashtirish, masalan, kreditlar berish, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog'ozlarni sotib olish. Aktiv bitishuv talablar summasini oshiradi.

*Banklar xizmatlari* orasida ularning quyidagi turlari ajralib turadi.

**To'g'ridan-to'g'ri kreditlash** — qaytarish, haq to'lash, mudatlilik shartlarida ssuda berish.

**Bank investitsiyalari** — bank tomonidan aksiyalar va obligatsiyalarni sotib olinishi.

**Lizing** — mol-mulkning, uskunalarining har xil turlarini bank vositachiligida ijaraga berilishi.

**Faktoring** — mijozning debitor qarzlarni hisoblar summasini darhol yoki qarzlarning uzilib borishiga qarab kassa qilish.

**Trast amallari** — mijozlar kapitalni boshqarish bo'yicha amallari.

### **Nazorat savollari:**

1. Inflyatsiya mohiyatini tushuntiring va uning asosiy tiplarini sanab bering.
2. Inflyatsiyaning sabablarini aytib bering va uning oqibatlarini ta'riflang.
3. Inflyatsiyaga qarshi choralarni sanab bering.
4. Inflyatsiyani qanday o'lchash mumkin?
5. Markaziy bankning asosiy vazifalarini sanab bering.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning asarlari va nutqlari

1. *Karimov I. A.* O'zbekiston iqtisodiy yuksalish yo'lida. T.5, Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
2. *Karimov I. A.* Islohotlar yo'lida qat'iyatli bo'lish bugungi kun talabi. T.5, Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
3. *Karimov I. A.* Qishloqlarda islohotlarni chuqurlashtirish — ustuvor vazifa. T.5, Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
4. *Karimov I. A.* Mulkdor sinfini shakllantirish islohotlarning bosh mezon. T.5, Toshkent, «O'zbekiston», 1997.
5. *Karimov I. A.* Kuchli adolatli jamiyat sari, T., «Sharq», 1998.
6. *Karimov I. A.* O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. «O'zbekiston», 1998.
7. *Karimov T. A.* Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti — to'kin hayot manbayi. T.6, Toshkent, «O'zbekiston», 1998.
8. *Karimov I. A.* O'zbekiston XXI bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, taraqqiyot kafolatlari. T. «O'zbekiston», 1999.
9. *Karimov I. A.* Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. T.1, Toshkent, «O'zbekiston», 1999.
10. *Karimov I. A.* O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. T., «O'zbekiston», 1999.
11. *Karimov I. A.* Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8, Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
12. *Karimov I. A.* O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 2000.
13. *Karimov I. A.* Tadbirkorlikning yuksalish garovi. T.8, Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
14. *Karimov I. A.* Iqtisodiyotni erkinlashtirish farovonlik poydevori. T.9, Toshkent, «O'zbekiston», 2001.
15. *Karimov I. A.* Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish — yuksalish garovi. T.9, Toshkent, «O'zbekiston», 2001.
16. *Karimov I. A.* Iqtisodiyotni erkinlashtirish resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish — bosh yo'limiz. T.10, Toshkent, «O'zbekiston», 2002.

## O'zbekistoun Respublikasi qonunlari va me'yoriy hujjatlari

1. Tadbirkorlik to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari, 2 tom, Toshkent, «Adolat», 1991-y.
2. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni. O'zbekiston Yangi Qonunlari, 2 tom, T., «Adolat», 1991.
3. O'zbekistonning mulkchilik to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi Yangi Qonunlari, 2 tom, Toshkent, «Adolat», 1991.
4. «Ijara to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasining Yangi Qonunlari. T., «Adolat», 1992.
5. «Banklar va bank faoliyati to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Qonuni 15-fevral 1991-yil O'zbekiston Respublikasining Yangi Qonunlari, T., «Adolat», 1993.
6. «Valutani tartibga solish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 7-may 1993-yil. O'zbekiston Respublikasining Yangi Qonunlari T., «Adolat», 1994.
7. «Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabr qonuni O'zbekistonning Yangi Qonunlari RY215, Toshkent, «Adolat», 1997.
8. «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 1998-yil 30-aprel Qonuni. O'zbekistonning Yangi Qonunlari №19,T, «Adolat», 1998
9. «Tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirishning kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi 2000-yil 25-may Qonuni. O'zbekiston Yangi Qonunlari, №23, Toshkent, «Adolat», 2001.

## Qo'shimcha adabiyotlar

1. *Smit A.* Xalqlar boyligi, tabiati va sabablari haqida izlanish. Iqtisodiy klassika antologiyasi. M. 1993-y.
2. *Petti U.* Soliqlar va yig'implar haqida traktat. Iqtisodiy klassika antologiyasi. M., 1993-y.
3. *Rikardo D.* Siyosiy iqtisod va soliq olishning boshlanishi. Iqtisodiy klassika antologiyasi. M., 1993-y.
4. *Rikardo D.* Sochineniye. T.I. M., 1965.
5. *Samuelson P.* Iqtisod. 1—2 kitob, 1992-y.
6. *Makkonell K, Bryu S.* «Ekonomiks» T.I-M.: Respublika, CH.SH. Predmeti metod. 1992.
7. *Сажина М.А., Чибриков Г.Г.* Экономическая теория. Учебник для ВУЗов. М.: Издательская группа НОРМА-ИНФРА. М., 1998.

8. *Beknozov N.* va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi. Toshkent, «Universitet», 1993.
9. *Бекнозов Н.* и др. Основы рыночной экономики, Ташкент, «Университет», 1997.
10. *Umarov K, Beknozov N.* va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi (o'quv qo'llanma). Toshkent, «Universitet», 2002.
11. *Shodmonov SH., Alimov D., Jo'rayev T.* Iqtisodiyot nazariyasi, 2002.
12. *O'lmasov A, Sharifxo'jayev M.* Iqtisodiyot nazariyasi. T., Mehnat, 1995.
13. *Xaitov A. A, Jalolov F.T.* Bozor iqtisodiyotining shakllanish asoslari. Andijon, 1996.
14. *Роберт Б. Карлсон.* Что знают экономисты? Москва, СП «Квадрат», 1993.

# IQTISODIYOT ASOSLARI

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent — 2007

Muharrir *Sh. Xurramova*  
Badiiy muharrir *F. Basharova*  
Tehnik muharrir *D. Gabdraxmanova*  
Sahifalovchi *T. Ogay*  
Musahhah *N. Oxunjonova*

Bosishga ruxsat etildi 17.10.2007. Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . «Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tobog'i 6,5. Nashriyot-hisob tobog'i 7,0. Adadi 2500 nusxa. Buyurtma № 3894. Bahosi kelishilgan narxda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,  
100083, Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41.**